




**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI**

**UMUMIY O'RTA TA'LIMNING
O'QUV DASTURI**

ADABIYOT



Toshkent-2020

TUSHUNTIRISH XATI

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'limda o'zining alohida o'rniga ega. O'qish darslarining asosida savodxonlik va axloqiy ta'lim-tarbiya turadi. Shuning uchun ham boshqa fanlar to'plamini o'qish ta'limisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinflari o'quv rejasidagi adabiyot fani "O'qish" predmeti og'zaki va bog'lanishli nutqini o'stirishga, lug'atini boyitishga, to'g'ri va ifodali o'qishga o'rgatish bilan birga ularda kitobxonlik va nutq madaniyatini hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, boshlang'ich sinflardayoq o'quvchilarni **matnni o'qish va uni tushunish darajasini aniqlash bo'yicha Xalqaro tadqiqot metodlari (PIRLS)** doirasida o'qish savodxonligini rivojlantirishda mazkur fan muhim ahamiyatga ega.

O'qish fanini o'qitishning **asosiy maqsadi**: o'quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirish, asarlarni o'rgatish jarayonida olam va inson tabiati, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali o'quvchilarning ma'naviyatini, dunyoqarashini kengaytirib, mustahkamlab borishdan iborat.

O'qish fanini o'qitishning **asosiy vazifalari** quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarda to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish;
- o'quvchilarda kitobga, o'qishga muhabbat uyg'otish, ularni oddiy kitobxondan chuqur mulohaza yurutuvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish;
- o'qish orqali o'quvchilarning tevarak-atrof, borliq haqidagi bilimlarini kengaytirish, dunyoqarash elementlarini shakllantirish;
- o'quvchilarni axloqiy-estetik va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash;
- o'quvchilarning nutqi va tafakkurini o'stirish;
- elementar adabiy tushunchalarni shakllantirish;
- o'quvchilarning tafakkurini boyitish.

I-IV-sinflarda "Konstitutsiya alifbosi", "Iqtisod va soliq alifbosi", "Salomatlik darslari", "Tejamkorlik saboqlari" kabi fanlarning sodda elementlari o'qish fani mazmuniga, ya'ni mavzular kesimida singdirib o'qitilishi ko'zda tutilgan.

O'qish dasturini tuzishda g'oyaviy-estetik, mavsumiy, tadrijiy asoslar hisobga olinadi. Shunday qilib, o'quv materiallari bolalarga ta'lim berish, ularni tarbiyalashda muhim bo'lgan borliq haqidagi bilimlar va insoniy munosabatlarni o'z ichiga oladi. O'tmishda xalqimiz boshidan kechirgan muhim voqea-hodisalar aks ettirilgan asarlarni o'qish orqali o'quvchilarda tarixiy bilimlar shakllana boradi. Ona yurt daxlsizligi yo'lida ajdodlarimiz olib borgan mardonavor kurashlar tarixi haqida hikoya qilingan asarlar bolalarda vatanga muhabbat tuyg'ularini tarbiyalaydi.

Boshlang'ich ta'lim o'quv dasturidan o'rin olgan vatan mavzusidagi asarlar o'quvchilarni mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy madaniy-ma'rifiy hayoti va xalqimizning bunyodkorlik yo'lidagi olib borayotgan ishlari bilan tanishtirishga yordam beradi. Istiqloq tufayli erishgan yutuqlarimiz haqidagi asarlar milliy g'urur tuyg'ularini tarbiyalashga xizmat qiladi.

O'qish darslari oldiga qo'yilgan tarbiyaviy vazifaning muvaffaqiyatli hal etilishi darsda badiiy asar matni ustida ishlash bilangina bog'liq bo'lib qolmay, balki bolalarni qurshab olgan hayot, tabiatdagi turfa o'zgarishlar, ekologik vaziyat, ijtimoiy foydali mehnat bilan ham o'zaro bog'liq bo'lishi lozim. O'quvchilarni o'qishga o'rgatishda hayot tajribalariga tayanib ish ko'riladi.

O'qish darslarini bolalarda go'zallikka muhabbat uyg'otadigan, poklik tuyg'ulariga ozuqa beradigan, hissiyotni o'tkirlashtiradigan, aqlni charxlaydigan, tasavvurlarni boyitadigan, estetik didni o'stiradigan musiqa va tasviriy san'at fanlari bilan uzviy bog'langan bo'lishi kerak. O'qish, musiqa va tasviriy san'at darslarini o'zaro bog'lab uyushtirish bolalarda san'at asarlarini to'g'ri tushunish va qadrlash ko'nikmalarini o'stiradi, o'quvchilarning shaxs sifatida ma'naviy qiyofasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Sinfda va sinfdan tashqari o'qish dasturining mazmuni kichik yoshdagi o'quvchilarda ona – vatanga muhabbat uyg'otish maqsadlariga xizmat qiladi. O'qish o'quvchilarni nutq boyligini o'stirish, adabiy-estetik tafakkurini kamol toptirish, mustaqil fikrlashga o'rgatishning muhim omilidir. Shuning uchun ham boshlang'ich ta'lim tizimida muhim o'quv predmeti ta'lim berish, kamol toptirish va tarbiyalash vositasi hisoblanadi.

Sinfda o'qish. O'qish darslarida o'quvchi matnni to'g'ri, tez, tushunib o'qish, mazmunini o'zlashtirish bilan ilk bor tanishadilar. Aynan o'qish ta'limda insonning, avvalo, o'zligini, qolaversa olamni anglashga bo'lgan intilishlariga turtki beradi.

Sinfdan tashqari o'qish. Sinfdan tashqari o'qish o'quvchilarni o'qish malakasini rivojlantirgan holda kitobni mustaqil o'qiy oladigan, uni tushunadigan, ma'lum bir mavzularga oid kitoblarni tanlay oladigan, gazeta va jurnallarni ham mustaqil o'qiy oladigan kitobxonni tarbiyalaydi. Sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari o'qish darslari bilan bog'lab olib boriladi. O'quvchilar o'qituvchi rahbarligi ostida avval mavzuga oid bir necha kitob bilan tanishsalar, keyinroq bolalar yozuvchilari hamda bolalarning qiziqishlariga mos asarlari bilan tanishadilar.

O'qish ko'nikmalari. Matn va bog'lanishli og'zaki nutq ustida ishlash

O'qish mashg'ulotlarini o'tkazish jarayonida o'quvchilarda nutq faoliyatining asosiy ko'rinishi bo'lgan ko'nikmalari, matn va kitob ustida ishlash, o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirish, nutq madaniyatini rivojlantirish nazarda tutiladi.

1-sinfda o'quvchilar matnni ongli, to'g'ri va bo'g'inlab sidirg'a o'qishni o'rganadilar. Olti-yetti yoshli bolalarning nutqini takomillashtirish uchun uning nutqidagi kamchiliklarni o'qish darslaridagina emas, balki darsdan va maktabdan tashqari o'tkaziladigan mashg'ulotlar jarayonida ham tuzatib borishga alohida ahamiyat berish zarur.

2-3-sinflarning o'qish darslarida to'g'ri, tez o'qish, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini o'stirish va takomillashtirish zarur. Bunga asarni va uning qismlarini o'quvchilarga bir necha marta qayta o'qitish bilangina erishish mumkin.

o'quvchilar o'qilgan asarlar yuzasidan berilgan savollarga javob berishga

o'rganadilar. Matn ustida ishlash o'qituvchi rahbarligida olib boriladi.

2-sinfda o'quvchilarda so'zlarni to'liq sidirg'asiga o'qish malakasi shakllanadi, o'qishning to'g'ri va ifodali bo'lishiga erishiladi, o'qish texnikasi tezlashadi. Bu sinfda o'quvchilar matnning ayrim qismlarini, qisqa hikoyalarni ichida (ovozsiz) mustaqil o'qishga o'tadilar. Matn ustida ishlash murakkablashib boradi, bolalar o'qituvchi rahbarligida asarning asosiy mazmunini aniqlaydilar, qahramonlarning xatti-harakatini ifodalovchi so'z va iboralarni topishga, voqea-hodisalarni so'z bilan tasvirlashga o'rganadilar. Ularda so'z boyligiga talab ortadi, nutq sofligi va aniqligiga e'tibor kuchayadi, lug'at boyligi ko'payadi, faollashadi, o'qish sur'ati oshadi va so'zlarni to'g'ri qo'llashga, ovozni boshqarishga o'rganadi.

3-sinfda so'zlarni butunligicha sidirg'a o'qish ko'nikmasi to'la shakllanadi. Bu esa o'quvchilarda ongli va ifodali o'qishga qo'yilgan talablarni o'stirish imkoniyatini beradi. O'qish darslarida bolalarning matn mazmunini o'zlashtirish ustida mustaqil ishlashlari, hikoyadagi voqea-hodisalarning izchilligini belgilashlariga, o'zaro bog'lanish sabab-natijalarini aniqlashlariga alohida ahamiyat beriladi. Matnning badiiy xususiyatlarini, tasviriy vositalarini aniqlash ustida ishlash davom ettiriladi.

O'quvchilarni o'z nutqlarida maqollardan, hikmatli so'z va iboralardan foydalanishga, so'zlarni to'g'ri tanlashga, gap qurilishidan (so'zlarning bir-biriga bog'lanishidan) to'g'ri foydalanishga o'rgatish talab etiladi.

4-sinfda o'quvchilar so'zlarni bo'g'inlamay sidirg'a o'qishlari, matnni tez, to'g'ri, ongli o'qiy olishlari kerak. Bu sinfda bo'g'inlab o'qishga yo'l qo'yilmasligi kerak. Bolalar o'qilgan matn mazmunini mustaqil ravishda qayta hikoya qilishlari, matn yuzasidan sodda reja tuza olishlari, uning asosiy mazmunini ajrata olishlari, o'qilgan matnni to'la qisqartirib, tanlab qayta hikoyalashlari, o'qilgan matnga nisbatan o'z munosabatlarini bildira olishlari zarur. Ifodali o'qish va o'zaro nutqiy faoliyat jarayonida bolalarning adabiy talaffuz me'yorlari shakllanadi. O'quvchilar nutqining faollashuvi, nutqning grammatik shakllarini to'g'ri qo'llash va to'g'ri talaffuz etish bolalar nutqining ravon, ifodali bo'lishiga yordam beradi.

I SINF O'QISH

Xalq ta'limi vazirligining 2018-yil 29-oktabrdagi
266-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan

O'quvchilar o'quv faoliyati natijalariga qo'yiladigan talablar:

hikoya, she'r, ertak, topishmoq, maqol, rivoyat va tez aytishlarni ifodali o'qiydi;

badiiy asar mazmunini tushunadi va undagi eng qiziqarli lavhalarni biladi;
matndagi so'zlarning ma'nolarini izohlay oladi;

matn mazmunini ko'rgazmalar vositasida va tayyor reja asosida qayta hikoya qiladi;

asar qahramonlarining (salbiy va ijobiy) xatti-harakatlarini farqlaydi va baholay oladi;

soʻz tarkibida tovushlarni toʻgʻri talaffuz qiladi va soʻzlarni boʻgʻinlab, soʻng sidirgʻa (tekis, ravon) oʻqiydi;

bir daqiqada 25-30 soʻzni oʻqiydi va oʻqigan matn (hikoya, badiiy asar parchasi) yuzasidan oʻz fikrini bildiradi;

oʻqigani asosida rasm chizadi;

oʻquv yili yakunida 5 ta sheʼrni yoddan aytib beradi.

Kirish. Oʻqish kitobi bilan tanishtirish. Kitobni asrab-avaylash haqida tushuncha berish. (1 soat)

I boʻlim. BIZ–VATANNING ERTASI

(8 soat)

Vatan haqidagi dastlabki tushunchalar. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari. Oʻquvchilarda ona vatanga muhabbat, Vatan oldidagi burch va masʼuliyatni anglash, uni dunyoga mashhur qilish hissini tarbiyalash. Baxtli bolalik.

Boʻlim yuzasidan takrorlash.

II boʻlim. MOʻJIZAVIY QISH

(6 soat)

Qish tabiati va hodisalari. Qish manzarasining jozibadorligi, dala, bogʻ va daraxtlardagi oʻziga xos goʻzallikning qishki koʻrinishi. Qor yogʻishining tabiatga va inson salomatligiga taʼsiri va qishki bolalar oʻyinlari haqida.

III boʻlim. BIZ–BUYUKLAR AVLODI

(9 soat)

Bobolardan meros yurt. Vatan mehri. Vatanga boʻlgan muhabbat oʻzi tugʻilib oʻsgan maskandan boshlanishi. Buyuk ajdodlarimiz Al-Xorazmiy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulugʻbek, Zahriddin Muhammad Bobur, kabi mutafakkirlarning dunyo ilm-fani rivojiga qoʻshgan hissasi. Ulugʻ allomalar hayotiga bagʻishlangan asarlar misolida milliy qadriyatlarimiz yuzasidan tushuncha berish, oʻquvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olib sheʼr, matn, rivoyat, ertak berish.

Boʻlim yuzasidan takrorlash.

Sinfdan tashqari oʻqish (20 daqiqa).

IV boʻlim. KOʻKLAM–YASHNAYDI OLAM

(8 soat)

Tabiat goʻzalliklaridan zavqlanish, tabiat neʼmatlarini asrab-avaylash, onalar bayrami, qadimiy Navroʻz-bahor bayrami va anʼanalar tavsifi. Navroʻzda tayyorlanadigan milliy taomlar. Yasharish va yangilanish faslining oʻziga xos xususiyatlari, kishilar va uning tabiatga taʼsiri haqida hikoya qilingan asarlar.

Boʻlim yuzasidan takrorlash.

V boʻlim. KITOB–BIZNING DOʻSTIMIZ

(6 soat)

Kitob–muqaddas boylik. Kitobni e’zozlash–oliy qadriyatligini tushuntirish. Kitob-bilim manbai. Kitobxonlik madaniyati. Ilm hosiyati haqida donolar o’g’itlari. Kitob eng yaxshi do’st va hayot yo’limiz uchun nur ekanligi. Bilim haqidagi hikmatli so’zlar. Allomalarimizning ilm, bilim va o’quvga bag’ishlangan hikmatli so’z va o’g’itlari.

Kompyuter bilan ishlash madaniyatini shakllantirish. Kompyuter insonning do’sti. Kompyuterdan o’rinli va ongli foydalanish qoidasi haqida tushuncha berish.

Bo’lim yuzasidan takrorlash.

Sinfdan tashqari o’qish (20 daq.).

VI bo’lim. XALQ O’GITI - BAXT KALITI

(13 soat)

Ertaklar va ulardagi qahramonlar. Salbiy va ijobiy qahramonlarning xislatlarini ajrata bilish, ertaklardagi hayvonlarning insonlar bilan bog’liqlik jihatlarini bilish, yomonlikka yaxshilik bilan javob qaytarishni o’rganish, yaxshilik qilishning ahamiyati haqida tushuncha berish. Maqollar, topishmoqlar, tez aytishlar, qo’shiqlar kabi janrlar bilan o’quvchilarni tanishtirish.

Bo’lim yuzasidan takrorlash.

Sinfdan tashqari o’qish (20 daq.).

VII bo’lim. TINCHLIK VA DO’SSTLIK

(6 soat)

Tinchlik-aziz ne’mat ekanligi haqida. 9-may-Xotira va qadrlash kuni. Biz nima uchun bu kunni nishonlaymiz? Insonni nima uchun xotirlash va qadrlash kerak? Tinchlik uchun jonini fido qilgan bobolarimizning xotirasini yod etish. Tinchlikni ulug’lash va uni qadrlash. Do’stlikning qadr-qimmatini va uning inson hayotidagi o’rni.

Bo’lim yuzasidan takrorlash.

Sinfdan tashqari o’qish (20 daq.).

VIII bo’lim. YOZ–O’TADI SOZ

(6 soat)

Yoz faslida tabiatdagi o’zgarishlar. Yoz ne’matlari va yozda kishilar mehnati. Yozgi ta’tilning boshlanishi va bolalarning so’lim joylarda bo’lishi. Oromgohlarda bolalarning hayoti. O’quvchilarning yozgi ta’tilida do’stlari bilan bog’liq qiziqarli voqealar haqida.

Bo’lim yuzasidan takrorlash.

Sinfdan tashqari o’qish (20 daq.).

Yakuniy umumlashtiruvchi dars.

Izoh: Dastur asosida beriladigan matnlar tuzishda eng avvalo o’quvchining yosh-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda hamda DTSning me’yoriy talablaridan kelib chiqib, savodga o’rgatish davridan so’nggi davrda (3- chorak) 20-25 so’zdan iborat bo’lishi, 2, 3,4 bo’ginli so’zlardan tuzilishi, matnning sodda,

qisqa va mazmunan boyligiga e'tibor qaratilishi hamda tarbiyaviy xarakterda bo'lishi, qo'yilayotgan savol va topshiriqlar o'quvchini mantiqiy fikrlashga undashi lozim.

O'qish ko'nikmasi:

O'quv yilining ikkinchi yarmidan ongli, to'g'ri va bo'g'inlab sidirg'a o'qishga o'rgatish; sodda so'zlarni bo'g'inlab tekis o'qish;

gaplarni ohangiga, to'xtamlariga, tinish belgilariga rioya qilib, qiroat bilan o'qish.

Matn ustida ishlash. O'qish darslarining asosiy qismi asarni o'qish va matn ustida ishlashga ajratiladi. O'quvchidan asarlar yuzasidan o'qituvchi bergan savollarga va darslikda berilgan savollarga javob olish, rasmlarga qarab matnlarni qayta hikoya qilish, sarlavhani asardagi asosiy fikr bilan taqqoslash, asarning to'liq mazmunini qayta hikoyalash yoki asar yuzasidan fikr bildirishga o'rgatish.

Asarni qismlarga ajratish, uning xat boshi bilan aloqadorligi haqida tasavvur hosil qilish. Asar matnini eshitganlari, ko'rganlari, kuzatganlari asosida to'ldirish – ijodkorlik sifatlarini tarkib toptirish. Asarda ishtirok etuvchilarni bilib olish, ularga eng oddiy tavsif berish: yaxshi-nima uchun yaxshi, yomon-nima uchun yomon ekanini asoslash.

Asarlarni mavzu doirasiga ko'ra guruhlash. Asar yuzasidan tuzilgan rejani qayta o'qish orqali o'rgatish.

Asardagi ayrim so'zlarning ma'nolarini izohlashga o'rgatish, matndagi ayrim so'zlarga ma'nodosh, qarama – qarshi ma'noli so'zlar topishga o'rgatish.

Shaxslarni, tabiat manzaralarini tasvirlovchi badiiy ifodalarni o'quvchilar tasavvur qila olishi, ko'p ma'noli so'zlar ishtirokida birikmalar yoki gaplar tuzdirish, diqqatini so'zning ma'nosiga qaratish, "O'qish kitobi" mundarijasidan kerakli asarni topish.

Sinfdan tashqari o'qish va nutq o'stirish

Sinfdan tashqari o'qish uchun 8-16 betli kichik hajmdagi asarlardan tuzilgan bolalarbop kitoblar tanlash. Sinfdan tashqari o'qish darsida 1-1,5 betli asardan foydalanish. Sinfdan tashqari o'qish dasturining asosiy vazifasi o'qish malakalarini takomillashtirish, bilimlarini boyitish, kitob bilan mustaqil ishlashga o'rgatishdir.

Haftada oxirgi o'qish darsining 20 daqiqasi sinfdan tashqari o'qish uchun ajratiladi.

O'qish mavzusi sinfda o'qiladigan asarlar mavzusi bilan uyg'unligiga, ta'lim tarbiya birligida, mavsumiy, bosqichli va bolalar qiziqishiga rioya qilgan holda belgilanadi hamda asarlar tanlanadi.

Sinfdan tashqari o'qishning asosiy vazifasi bolalarni mustaqil amaliy faoliyatga o'rgatish, bilimni boyitish va o'qish ko'nikmalarini takomillashtirishdir. O'qituvchilarga sinfdan tashqari o'qish darslarida o'qishlari zarur bo'lgan kitoblar, ular bilan tanishish tartibi yuzasidan ko'rsatmalar beriladi. Maktab kutubxonasi bilan birgalikda kitob ko'rgazmalari tashkil etiladi.

Kitob muqovasi tituli, betlarini farqlay olish, asar muallifi, nomlarini, rassomlarni tanib, bilib olish. Rasm asosida asarlarning nima haqida ekanini, mazmunini aniqlashga erishish. O'quvchilarning o'qigan kitoblari ro'yxatini yozib

borishga o'rgatish.

O'quvchilarda muayyan mavzularda tavsiya etilgan asarlar ichidan kitob tanlash va o'qish ko'nikmalarini shakllantirish, o'qigan asari mazmunini qisqacha so'zlab berishga o'rgatish.

MAVZUIY REJALASHTIRISH

№	Bo'lim nomi	soatlar taqsimoti		
		Jami	Nazorat	Tahlil
1	I bo'lim. Biz-vatanning ertasi	8	-	-
2	II bo'lim. Mo'jizaviy qish	6	-	-
3	III bo'lim. Biz-buyuklar avlodi	9	1	1
4	IV bo'lim. Ko'klam-yashnaydi olam	8	-	-
5	V bo'lim. Kitob-bizning do'stimiz	6	1	-
6	VI bo'lim. Xalq o'giti-baxt kaliti	13	1	1
7	VII bo'lim. Tinchlik va do'stlik	6	-	-
8	VIII bo'lim. Yoz-o'tadi soz	6	1	
Jami		62	4	2

II SINIF

O'QISH

Xalq ta'limi vazirligining 2017-yil 3-iyundagi
190-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan

O'QISH VA NUTQ O'STIRISH

136 soat (A1+: 204 soat)

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Axborot bilan ishlash kompetentsiyasi:

A1

turli manbalardan (kitob, telefon va televizorlardan) foydalana olish.

A1+

televizor va radio orqali berilgan eshittirishlarni ko'rish, tinglash va mazmunini gapirib bera olish.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

A1

o'quv fanlarini o'rganish va bir-biridan farqlash;
mehnatsevarlik, to'g'rilik, hurmat qilish kabi sifatlarga ega bo'lish;
o'z xatosini tushunish va tuzatish.

A1+

o'zini nazorat qila bilish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

A1

davlat ramzlarini bilish;
o'zining o'quvchilik burchi va vazifalarini bilishi va unga rioya qilish;
o'zidan kattalarga, o'rtoqlari va o'zidan kichiklarga yordam berish;

A1+

sinfda va oilada o'z o'rniga ega bo'lish.

Milliy va umummadaniy kompetensiyasi:

A1

orasta kiyinish, yurish turishda kattalardan o'rnak olish;

milliy bayramlarni bilish;

odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

A1+

o'z uyi, maktabi, turar mahallasini qadrlash.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

A1

maktabga kelib ketadigan vaqtni bilish;

tejamkorlikka rioya qilish;

kundalik rejalarini tuza olish.

A1+

ehtiyoji uchun kerak bo'ladigan narsalardan (o'quv qurollari, kiyim-kechagi va h.k.) tejab foydalanish.

I bo'lim. ONA YURTIM – OLTIN BESHIGIM

(21 soat, A1+: 10 soat)

1-mavzu. Vatanjonim – vatanim. Po'lat Mo'min (1 soat).

Ona yurtimiz O'zbekiston ekanligi. Vatanning ona kabi ulug'ligi. Shoirning bu haqda yozgan she'rlari. She'rda Vatan tavsifi. Vatanni onaga o'xshash jihatlari. Vatan haqidagi maqollar. She'rni tushunilib, ongli, to'g'ri va ifodali o'qish.

2-mavzu. Vatan (1 soat).

Vatan hamma xalqlar uchun birdek azizligi. Vatan atamasi. Vatanning muqaddasligi. Vatanimizda yashab o'tgan buyuk shoirlar, olimlar, mutafakkirlar. O'tmishda vatan uchun kurashgan, jon fido qilgan qahramonlar. Har bir kishining vatan oldidagi burchi. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish.

3-mavzu. Toshkent – O'zbekistonning poytaxti (1 soat).

O'zbekiston poytaxti Toshkent shahri haqida ma'lumot. Toshkent shahrining o'tmishi. Toshkent - Sharq darvozasi. Poytaxtimiz ta'rifi. Toshkent bog'lari, muzeylari. Toshkent metrosi. Mavzuga doir maqol, topishmoqlar. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish.

4-mavzu. Biz – Vatanning ertasi. Muqim Qodir (1 soat).

Buyuk ajdodlarimiz bilan faxrlanish hamda ularga munosib bo'lish. Nega shoir "Biz vatanning ertasi" deganligi. Vatanning ertasini obod qilish uchun o'quvchilar oldida turgan vazifalari. Vatanning kelajagi yosh avlod qo'lidaligi. She'r mazmuniga mos maqol, topishmoq va tez aytishlar. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish.

A1+

Mavzu. Sinfдан tashqari o'qish (1 soat).

Mavzu. Vatanim. O'tkir Rashid (1 soat).

She’rda chaman gullarga, sayroqi bulbullarga, sho‘x kuylarga to‘lgan go‘zal va boy yurtimiz haqida kuylanishi. Ongli va ifodali o‘qish.

5-6-mavzu. Tandir. Rivoyat (2 soat).

Muhammad otaning vasiyati. Alisher Navoiyning bergan maslahati va uning natijasi. Yaxshi kun kechirish uchun o‘ylab ish qilish kerakligi. Rivoyatdan ko‘zda tutilgan maqsad. Rivoyat qahramoni timsolida vatanga muhabbat. “Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmag” hikmatli so‘zining mazmuni. Milliy qadriyatlarimizning tarbiyaviy ahamiyati. Mavzuga doir tez aytish, topishmoqlar. Ongli, ifodali, to‘g‘ri, tez o‘qish.

7-mavzu. Ozod Vatan – obod Vatan. Normurod Narzullayev (1 soat).

She’rda Vatan tavsifi. Farzandlarning Vatan oldidagi burchlari va Vatanning mo‘tabarligi. Maqol va topishmoqlar. Ongli, ifodali, to‘g‘ri, tez o‘qish.

8-mavzu. Sinf dan tashqari o‘qish (1 soat).

A1+

Mavzu. O‘lka. Erkin Vohidov (1 soat).

She’rda Vatan madhi. Bog‘lar, har bitta daraxt oy, yulduzlar vatan ruhidan madad olishi kabi badiiy ifodalar. She’rni ongli, ifodali, to‘g‘ri o‘qish. She’r mazmuniga doir maqol va topishmoqlar.

Mavzu. Yurtim uchun. Otabek Quvvatov (1 soat).

She’rda vatan go‘zalligi madh etiladi va bolalarga vatan ravnaqiga hissa qo‘shish topshirig‘i beriladi. She’rni ongli, ifodali, to‘g‘ri o‘qish.

Nazorat ishi (1 soat).

9-mavzu. Ma’naviyatli xalqni yengib bo‘lmaydi. Rivoyat (1 soat).

Ma’naviyat tushunchasi. Ma’naviy boylik, madaniyat, yurt tinchligi va farovonligi. Ma’naviy boyligini e‘zozlagan, madaniyati yuksak taraqqiy etgan xalqni yengib bo‘lmasligi. Ma’naviyat – qudratli askarlarni yenga olishga qodir kuchligi. Rivoyat mazmuniga doir maqollar. Ongli, ifodali, to‘g‘ri, tez o‘qish.

10-mavzu. Bolajon hayajoni. Miraziz A‘zam (1 soat).

Yurtimizdagi obodonchiliklar, o‘zgarishlar va taraqqiyot. O‘quvchilarda Vatan ravnaqidan faxrlanish hissi. She’r mazmuniga doir topishmoq va maqollar. She’rni ongli, ifodali va to‘g‘ri o‘qish.

11-mavzu. “Afrosiyob” – tezyurar poezd. Erkin Malik (1 soat).

Sherzodning dadasi bilan sayohati. “Afrosiyob” tezyurar poezdi. Poezdning tuzilishi. Poezddagi qulayliklar. Sayohat taassurotlari. O‘quvchilarda vatanimiz taraqqiyotidan faxrlanish hissi. Matn mazmuniga taalluqli maqol va topishmoqlar. Ongli, ifodali, to‘g‘ri, tez o‘qish.

A1+

Mavzu. Sinf dan tashqari o‘qish (1 soat).

Mavzu. Vatan haqida ijodiy matn tuzish (1 soat).

12-mavzu. O‘zbekistonim. Anvar Obidjon (1 soat).

She’rda Vatan madhi. O‘zbekistonimizdagi bog‘lar, tog‘lar, qishloq va shaharlar tavsifi. She’r mazmuniga mos maqol va topishmoqlar. She’rni ongli, ifodali, to‘g‘ri o‘qish.

13-mavzu. Suv oqsin orolga. G‘ani Abdullayev (1 soat).

Orol dengizi. Orol dengizi haqida ona va bola suhbat. Nodirning tabiatga munosabati. Tabiatni asrashdagi o'quvchilarning vazifalari. Suvni toza saqlashning tabiatga va insonlarga ta'siri. Tabiatni asrashga doir maqol va topishmoqlar. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish.

14-mavzu. She'rim senga, Vatanim. Quddus Muhammadiy (1 soat).

She'rdagi ona Vatani madhi. She'r mazmuniga doir maqol va topishmoqlar. She'rni ongli, ifodali, to'g'ri o'qish.

15-mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

A1+

Mavzu. Vatani. Abdulla Avloniy (1 soat).

Vatanning muqaddasligi, uning qadrini bilmaslik aqli pastlik ekanligi, insonning voyaga yetishida shakllanishida vatanning o'rni. Vatanning onaga o'xshashi, uni sotmaslik, vatani oldidagi burchni anglash. She'rni ongli, ifodali, to'g'ri o'qish. She'r mazmuniga doir maqol va topishmoqlar.

Mavzu. Sog'inchi manzili. Dilshod Rajab (1 soat).

Inson uchun o'zining tug'ilgan joyi har qanday go'zal joydan ustunligi bir bolaning yozgi ta'tilda shaharga kelgani va tug'ilgan yurtini sog'ingani misolida ko'rsatilgan. Matn to'g'ri, ifodali va tez o'qish. Matn mazmuniga mos maqol, topishmoq va tez aytishlar.

16-17-mavzular. Ajoyib bahs. Hidoyat Olimova (2 soat).

Ertak qahramonlari tavsifi. Ertak qahramonlari. daraxt, olov, daryo, quyosh, tun, yer, tog', gul-chechaklarning o'zaro bir-biriga bog'liqligi. Tabiat hodisalarining o'zaro ta'siri. Mavzuga doir tez aytish, maqol va topishmoqlar. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish.

18-mavzu. Vaqtning hajmi qancha (1 soat).

Vaqt haqida. Vaqtdan to'g'ri foydalanishga doir ko'rsatmalar. She'r mazmuniga mos maqollar. She'rni ongli, ifodali, to'g'ri o'qish.

19-mavzu. Bo'lim yuzasidan takrorlash (1 soat).

"Ona yurtim – oltin beshigim" bo'limi yuzasidan o'quvchilar bilimni tekshirish, takrorlash va umumlashtirish. Boshqotirma va krossvordlar yechish orqali o'quvchilar bilimni mustahkamlash.

A1+

Mavzu. Dala xunuk bo'lib qoladi. Mahmud Murodov (1 soat).

Dam olish kuni bolalar sayohatga borishdi. Yaxshi dam olishdi. Sayohat oxirida dalani tozalashdi. Bolalarda tabiatga mehr, uni asrab-avaylash hissi uyg'ondi. Hikoyani ongli, to'g'ri o'qish. Hikoya mazmuniga doir maqol, topishmoqlar va tez aytish.

Mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat)

Nazorat ishi (1 soat).

**II bo'lim. MAKTABIM – QUTLUG' MAKONIM,
KITOBIM –OFTOBIM**

(15 soat, A1+: 8 soat)

20-mavzu. Maktab. Umida Abduazimova (1 soat).

Maktab, ilm o'rganish va kitobning bola hayotidagi o'rni. Kitob katta boylik ekanligi. Maktab – muqaddas dargohlighi. She'r mazmuniga doir maqol va topishmoqlar. She'rni ongli, ifodali, to'g'ri o'qish.

21-mavzu. Ilm. Abdulla Avloniy (1 soat).

Ilm – dunyoning ziynati. Madaniyat va ma'rifat. Ilmsiz inson. Hayotimizning ilmga bog'liqligi. Ilm haqidagi hikmatlar, maqollar. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish.

22-mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

A1+

Mavzu. Ko'chamda bor bir bola. Do'stjon Matjon (1 soat).

O'quvchi mas'uliyati, hech kimning gapiga kirmaslik, past o'qishning oqibati. Matnni ongli, ifodali, to'g'ri o'qish. Matn mazmuniga doir maqol va topishmoqlar.

Mavzu. Sehrli qalam. Turg'unboy G'oyipov (1 soat).

Har qanday ishni bilib, o'rganib bajarish natija berishi. Sehrli qalam ham faqat chizishni bilganlar uchun ekanligi, bilish uchun o'qish-o'rganish kerakligi haqida tushuncha. Matnni ongli, ifodali, to'g'ri o'qish. Matn mazmuniga doir maqol va topishmoqlar.

23-mavzu. Uyg'on. Mirtemir (1 soat).

Tongda tabiatning uyg'onishi. Erta turishning afzalligi. She'r mazmuniga mos maqol, topishmoq va tez aytish. Topishmoq – xalq og'zaki ijodi turi. She'rni ongli, ifodali, to'g'ri o'qish.

24-mavzu. Mukofot. Ne'mat Toshpo'lat (1 soat).

O'rmondagi maktab. O'rmon hayvonlari misolida bilim olishga va kitobga munosabat. Kitobni asrash. Kitobni asragan va yaxshi o'qiganlarga mukofot. Ertak mazmuniga taalluqli maqol va tez aytishlar. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish.

25-mavzu. Ona tilim. Vafo Fayzulloh (1 soat).

Ona tili jozibasi. Ona tilining ajdodlar tomonidan e'zozlanishi. She'r mazmuniga taalluqli maqol va topishmoq. She'rni ifodali, to'g'ri o'qish.

26-mavzu. Sayoq bola. Rauf Tolib (1 soat).

Tuflijon va Tojivoy. Tojivoyning qilmishi va jazo. Odobli va tartibsiz o'quvchilar xulqining qiyosiy tahlili. Odoblilik va buyumlarni qadrlashning ahamiyati. Matn mazmuniga mos maqol va topishmoqlar. Ifodali, to'g'ri, tez o'qish.

A1+

Mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

Mavzu. Ustozim. Yo'ldosh Sulaymon (1 soat).

Ustozning ota va onaga qiyoslanishi. Uning mehri. O'quvchining hayolida hamisha bo'lishi. Ongli va ifodali o'qish.

27-mavzu. Yodlasam bo'lmasmidi. Kavsar Turdiyeva (1 soat).

Ilm o'rganish. Topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish mas'uliyati. Mas'uliyatsizlikning oqibati. Maqol va topishmoqlar. She'rni ongli, ifodali, to'g'ri tez o'qish.

Nazorat ishi (1 soat).

28-mavzu. Ilk saboq. Raim Farhodiy (1 soat).

Maktab – bilim maskani. Birinchi dars. Ustoz – eng aziz inson. Dars – muqaddas. She’r mazmuniga mos maqol va topishmoqlar. She’rni ifodali, to‘g‘ri o‘qish.

29-mavzu. Sinfdan tashqari o‘qish (1 soat).

A1+

Mavzu. Gapning joni. Tolib Yo‘ldosh (1 soat).

Gapni to‘g‘ri, va o‘ylab gapirish, muloqot odobi. She’rni ongli, ifodali, to‘g‘ri o‘qish. She’r mazmuniga doir maqol va topishmoqlar.

Mavzu. Yomg‘ir. Farhod Musajon (1 soat).

Maktabga bormaslik uchun yalqovlik, mug‘ombirlik, yolg‘on aytishning oqibatlarini. Ifodali, to‘g‘ri, tez o‘qish. Matn mazmuniga mos maqollar, tez aytish va topishmoqlar.

30-mavzu. Eng yaqin do‘stimiz. Hakim Nazir (1 soat).

Kitob – oftob. Kitobning sabog‘i, yaxshilik va yomonlik, qiyinchiliklarni yengish, zehnlarni peshlash, bilimlar koni. Abdurahmon Jomiyning kitobini ulug‘lashi. Bilim – boylik. Matn mazmuniga mos maqollar, hikmatlar, tez aytish va topishmoqlar. Ifodali, to‘g‘ri, tez o‘qish.

31-mavzu. Bo‘lim yuzasidan takrorlash (1 soat).

“Maktabim – qutlug‘ makonim, kitobim - oftobim” bo‘limi yuzasidan o‘quvchilar bilimini tekshirish, takrorlash va umumlashtirish. Boshqotirma, krossvord va rebuslar hal etish orqali o‘quvchilar bilimini mustahkamlash.

Nazorat ishi (2 soat).

A1+

Mavzu. Sinfdan tashqari o‘qish (1 soat).

Mavzu. Maktabim. Ilyos Muslim (1 soat).

Maktabning ona kabi mehribonligi, ilm fanning makoni ekanligi, o‘quvchining xalq oldidagi burchi kabi masalalar bayoni. She’rni ongli, ifodali, to‘g‘ri o‘qish. She’r mazmuniga doir maqol va topishmoqlar.

O‘quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Adabiy-nutqiy kompetensiya (*tinglab tushunish, fikrni og‘zaki bayon qilish, o‘qish, fikrni yozma bayon qilish*):

A1

ertak va she’riy matnlarni tinglab, tushuna oladi;

ularni ongli, ifodali, to‘g‘ri, tez va bir daqiqada 30-35 ta so‘zni o‘qiy oladi;

o‘qilgan matnlarning mazmunini tushuna oladi va mavzuga mos maqol va hikmatli so‘zlarni topa oladi;

matn mazmunini qisqartirib va darslikdagi rasm va illyustratsiyalarga qarab fikrini og‘zaki bayon qila oladi;

maktab kutubxonasidan foydalana oladi;

kichik hajmdagi 5 ta she’rni yoddan aytib bera oladi.

A1+

matnlarning mazmunini to‘liq bayon qilib bera oladi.

Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi:

A1

o‘rganilgan asarlarning nomi, mazmuni va qahramonlarini ajrata oladi va o‘qituvchi yordamida ularga baho bera oladi;

asar mazmunidan ta’sirlana oladi;

o‘qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera oladi.

A1+

mustaqil o‘qish uchun tavsiya etilgan asarlarda tasvirlangan voqea-hodisalar mazmunini tushunib, qayta hikoya qila oladi.

III bo‘lim. OLTIN KUZ - HOSILING UZ

(8 soat, A1+: 4 soat)

32-mavzu. Oltin kuz. Tursunboy Adashboyev (1 soat).

She’rda kuz fasli tavsifi. Kuz faslida tabiatdagi o‘zgarishlar. Kuz faslining tarovati. Kuz haqidagi maqollar, tez aytish va topishmoqlar. She’rni ongli, ifodali, to‘g‘ri, tez o‘qish.

33-mavzu. Kuz. Qutlibeka Rahimboyeva (1 soat).

Kuz faslidagi tabiatdagi o‘zgarishlar. Kuz faslida nishonlanadigan bayramlar. Kuzda dala, bog‘ va polizlardagi kishilar mehnati. Kuzda pishadigan mevalar va poliz mahsulotlari. Kuzda qushlar hayoti. Ongli, ifodali, to‘g‘ri, tez o‘qish.

34-mavzu. Kuz fasli. Eson Rahimov (1 soat).

Turnalar bazmi. Oltin kuz. Kuz ne‘matlari. Mevalar. Kuz haqidagi maqol, tez aytish va topishmoqlar. She’rni ongli, ifodali, to‘g‘ri o‘qish.

35-mavzu. Sinfdan tashqari o‘qish (1 soat).

A1+

Mavzu. Kuz. Yo‘ldosh Sulaymon (1 soat).

Kuz faslida tabiatdagi o‘zgarishlar, mevalarning pishishi, hayotdan qoniqish hissi ifodalanadi. She’rni ongli, ifodali, to‘g‘ri o‘qish. She’r mazmuniga doir maqol va topishmoqlar.

Mavzu. Sizga. Abdulla Oripov (1 soat).

Mustaqillik, ozodlik, insonning erkinligi. Shunday hayotni ta’minlashda Birinchi Prezidentimizning xizmatlari. Bolalar O‘zbekistonning kelajagi ekanligi. She’rni ongli, ifodali, to‘g‘ri o‘qish. She’r mazmuniga doir maqol, topishmoqlar va tez aytish.

35-36-mavzular. Barglar nega sarg‘ayadi? Muhabbat O‘rinboy qizi (2 soat).

Kuz faslida tabiatdagi o‘zgarishlar. Barglarning sarg‘ayish siri. Jumboqqa Olmaxon, Tulkivoy, Ukkining javobi. Tipratikanning xulosasi. Ongli, ifodali, to‘g‘ri, tez o‘qish.

38-mavzu. Bo‘lim yuzasidan takrorlash (1 soat).

“Oltin kuz – hosiling uz” bo‘limi yuzasidan o‘quvchilar bilimini tekshirish, takrorlash va umumlashtirish. Boshqotirma, krossvord va rebuslar hal etish orqali o‘quvchilar bilimini mustahkamlash.

Nazorat ishi (1 soat).

A1+

Mavzu. Maratning sayohati. Yoqub Xo'jayev (1 soat).

Tabiat hodisalari Maratning o'ylari misolida. Tabiatdan, hayotdan zavq olish hissi. She'rni ongli, ifodali, to'g'ri o'qish. She'r mazmuniga doir maqol, topishmoqlar va tez aytish.

Mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

IV bo'lim. MEHNAT – BAXT KELTIRAR

(10 soat, A1+: 4 soat)

39-mavzu. Odam bo'laman. Anvar Obidjon (1 soat).

Kasb-hunarga doir tushuncha. Mehnatkashlik va mehnatni qadrlash. O'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash. Mehnatsevarlikka doir maqol, topishmoq va tez aytishlar. She'rni ifodali, to'g'ri o'qish.

40-mavzu. Keksa kulol va shogird. Qudrat Hikmat Ertak (1 soat).

Kulol va kulolchilik. Ustoz va shogirdlik munosabatlari. Sabr-toqat bilan hunar egallash sirlari. Shogirdning xatosi. Tadbirkorlik va mehnatsevarlik. Kasb-hunarga doir maqol va topishmoqlar. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish.

41-mavzu. Hunar – bebaho boylik. Ollobergan Po'lat (1 soat).

Dehqonchilik sirlari. Mehnatkashlik va o'z mehnatidan zavqlanish hissi. Dehqonchilik va mehnatsevarlikka doir hikmatli so'zlar. She'rni ifodali, to'g'ri o'qish.

42-mavzu. Mening do'stim – kompyusha. Alisa Lavruxina (1 soat).

Aqliy mehnat. Bolakayning kompyuter bilan "suhbati". Kompyuter va uning inson mehnatini yengillatishdagi, ilm olishdagi o'rni. Kompyuterning imkoniyatlari. Aqliy mehnat haqidagi hikmatli so'z. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish.

A1+

Mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

Mavzu. A'zam tut. Sobit G'afurov (1 soat).

Tutning A'zam tut deb atalishi. Odamlarga yaxshilik qilishi. Yaxshilik qilganning nomi o'chmasligi. Matn mazmuniga mos maqol, topishmoqlar va tez aytish. Matnni ongli, ifodali, to'g'ri o'qish.

43-mavzu. Non aziz. Obid Rasul (1 soat).

Nonning ushug'i ham nonligi. Non va nonni e'zozlash. Mehnatni qadrlash. Non va nonni e'zozlashga doir maqol va tez aytishlar. She'rni ongli, ifodali, to'g'ri o'qish.

44-mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

45-46-mavzu. Uch o'g'il. Ertak (2 soat).

O'zbek xalq ijodida uch o'g'il haqidagi ertaklar. Mehnatsevarlikka doir ertaklar. Otaning o'g'illari uchun sinovi. Topshiriqning bajarilishi. Kenja o'g'ilning tadbirkorligi. Mehnat va mehnat orqali keladigan daromad. Tadbirkorlik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik va ota-onani hurmat qilish sifatleri. Mehnatsevarlikka doir maqol, topishmoq va tez aytishlar. Ongli, ifodali, to'g'ri, tez o'qish.

A1+

Mavzu. Qobusnoma. (Hikoyat) (1 soat).

Bir hunarni to'liq o'rganmasdan, bilaman deb o'zboshimchalik qilishning oqibatlarini. Yaxshilik qilish. Minnatsiz qilingan yaxshilikning mukofoti. Ongli, tez va ifodali o'qish. Matn mazmuniga mos topishmoq, hikmatli so'z, va tez aytishlar.

Mavzu. Usta. Ertak (1 soat).

Tabiat ne'matlarini qadriga yetish, ularni asrab-avaylash zarurligi. Ustaning mahorati ham ana shunda ekanligi. Mehnatni sevish, hunar egallash va o'z hunarining mohir ustasi bo'lish.

47-mavzu. Bo'lim yuzasidan takrorlash (1 soat).

“Mehnat – baxt keltirar” bo'limi yuzasidan o'quvchilar bilimini tekshirish, takrorlash va umumlashtirish. Boshqotirma va topshiriqlarni hal etish orqali o'quvchilar bilimini mustahkamlash.

Nazorat ishi (1 soat).

V bo'lim. KUMUSH QISH – MISOLI OQQUSH

(14 soat, A1+: 8 soat)

48-mavzu. Qish. Ilyos Muslim (1 soat).

Qish faslida tabiatdagi o'zgarishlar. Bolalarning qishki o'yinlari. Qishki dam olishlar. Qish fasli haqidagi maqol, topishmoq va tez aytishlar. She'rni ongli va ifodali o'qish.

49-mavzu. Qishning o'rtog'i. Zahro Hasanova (1 soat).

Qishki o'yinlar. Sport – sog'lik garovi. Hikoya qahramoni otasi bilan badantarbiya qilishi. Badantarbiyaning inson salomatligidagi o'rni. Qish – eng yaqin o'rtog'im. Qish fasli haqidagi tez aytishlar. Ongli, tez va ifodali o'qish.

A1+

Mavzu. Teshik kulcha. Sobit G'afurov (1 soat).

Milliy qadriyatlardan biri bolalarning keksalarga yordam berishi. Matnda muammoli vaziyat – nega hammaga yordam beradigan Qobiljon ko'zi ojiz kishiga yordam bermoqchi bo'lishi va fikridan qaytishi. Hikoya mazmuniga doir maqol, topishmoqlar va tez aytish. Matnni ongli, to'g'ri o'qish.

Mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

50-mavzu. Qorqiz. Anvar Obidjon (1 soat).

Qish faslida nishonlanadigan bayramlar. Yangi yil bayramining sevimli qahramoni – Qorqiz haqida. Qish fasli haqidagi maqol, topishmoq va tez aytishlar. Ongli, tez va ifodali o'qish.

51-mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

52-mavzu. Ayrilganni ... Latif Mahmudov (1 soat).

Qish faslida daraxtlardagi o'zgarishlar. O'jar bargning qismati. Barg ramzida o'jarlikning va ko'pchilikdan ajralishning oqibati. Hikoya mazmuniga doir maqol, topishmoq va tez aytishlar. Hikoyani ongli, tez va ifodali o'qish.

53-mavzu. Qor. Zafar Diyor (1 soat).

Tabiat hodisalari va qor. Qor yog'ishining tabiatga va inson salomatligiga ta'siri. Qish faslidagi bolalar o'yinlari. Qish fasli haqidagi maqol va tez aytishlar. She'rni ongli va ifodali o'qish.

A1+

Mavzu. Sinfdan tashqari o‘qish (1 soat).

Mavzu. Qish ham chiroyli. Q. Muhammadiy (1 soat).

Qishdagi go‘zal manzaralar, dala va daraxtlardagi o‘ziga xos go‘zallik. O‘quvchilarning qishda qunoq o‘yinlari, uyda dars tayyorlashga berilishi. She’rni ongli va ifodali o‘qish.

54-mavzu. Tog‘ malikasi. Zahro Hasanova (1 soat).

Qish faslida nishonlanadigan bayram – Yangi yil. Yangi yil bayramining asosiy bezagi. Archa daraxti. “Tog‘ malikasi”. Archa bezatish va go‘zallikdan zavqlanish. Archa haqidagi topishmoq va tez aytishlar. Ongli, tez va ifodali o‘qish.

55-mavzu. Qorning ko‘p xosiyati bor. Ilyos Muslim (1 soat).

Tabiat hodisalari. Qor va uning dehqonchilikka hamda inson salomatligiga ta’siri. Qor va bolalar quvonchi. Qish fasli haqidagi maqol va topishmoqlar. She’rni ongli va ifodali o‘qish.

56-mavzu. Laylakqor. Qutbi Nosirova (1 soat).

Qor yog‘ganda bolalar o‘yinlari. Qorbobo. Tabiat go‘zalligidan zavqlanish. Qish fasli haqidagi maqol va tez aytishlar. She’rni ongli, tez va ifodali o‘qish.

Nazorat ishi (1 soat).

A1+

Mavzu. Qor odamning sovg‘asi. Odiljon Husanov (1 soat).

Qishda odamlar mehnati. Bolalarning o‘ziga xos ishlari: Qor odam yasash. Har qanday mehnatning ham mukofoti bo‘lishi. Matnni ongli, tez va ifodali o‘qish. Matn mazmuniga mos topishmoq va tez aytishlar.

Mavzu. Salom yangi yil. Olqor Damin.

She’rda yangi yilning kelishi. Yangi yilda yangi vazifalar berilishi. Ongli, ifodali, to‘g‘ri, tez o‘qish.

O‘quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Adabiy-nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, fikrni og‘zaki bayon qilish, o‘qish, fikrni yozma bayon qilish):

A1

hikoya, ertak va she’riy matnlarni tinglab tushuna oladi;

ularni ongli, ifodali, to‘g‘ri, tez o‘qiy oladi;

o‘qilgan matnlarning mazmunini tushuna oladi va mavzuga mos maqol va hikmatli so‘zlarni topa oladi;

ularning mazmunini qisqartirib va darslikdagi rasm va illyustratsiyalarga qarab fikrini og‘zaki bayon qila oladi.

A1+

o‘rganilgan mavzular doirasida kichik hajmli matn asosida bayon yoza oladi.

Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi:

A1

o‘rganilgan asarlarning nomi, mazmuni va qahramonlarini ajrata oladi va o‘qituvchi yordamida ularga baho bera oladi;

o‘qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera oladi;

matndagi so‘z va gaplarni tushuna oladi.

A1+

mustaqil o‘qish uchun tavsiya etilgan asarlarda tasvirlangan voqea-hodisalar mazmunini tushunib, qayta hikoya qila oladi.

57-mavzu. Chilla chiqib. Tursunboy Adashboyev (1 soat).

Qish chillasi. O‘rmon hayvonlari va o‘simliklarining qish chillasi davridagi hayoti. Qish fasli haqidagi topishmoq va tez aytishlar. She’rni ongli va ifodali o‘qish.

58-mavzu. Sinfdan tashqari o‘qish (1 soat).

59-mavzu. Vatan – mehr qo‘rg‘oni. Iskandar Rahmon (1 soat).

14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni. Vatan, vatanparvarlik va Vatanni qo‘riqlash tushunchalari mazmuni. Vatan posboni – mard yigitlar ekanligi. Vatanni asrash haqidagi maqol va tez aytishlar. She’rni ongli va ifodali o‘qish.

60-mavzu. Bo‘lim yuzasidan takrorlash (1 soat).

“Kumush qish – misoli oqqush” bo‘limi yuzasidan o‘quvchilar bilimini tekshirish, takrorlash va umumlashtirish. Topshiriqlarni bajarish va boshqotirmani hal etish orqali o‘quvchilar bilimini mustahkamlash.

A1+

Mavzu. Qor bosgan dala. Dilshod Rajab (1 soat).

Tabiat hodisalari hayotiy voqealar bilan qiyoslanadi, qishda qor hamma joyda bir tekis yog‘ib yerdagi baland-past joylarni yopgani kabi hayotda yarqirab ko‘ringan ba’zi holatlar aldanchi bo‘lishi, ularga ergashish esa inson hayotini yo‘ldan chiqarishi haqida ota-ona suhbat. Matnni to‘g‘ri, ifodali va tez o‘qish.

Mavzu. Eng qiziq o‘yin. Habib Po‘latov (1 soat).

Inson hayotida yaxshilik qilishning ahamiyati, hatto zerikkanda o‘ynaladigan o‘yinlar orqali ham kimlargadir yordam qilish, o‘yinning yaxshilikka xizmat qilishi. Ongli, ifodali, to‘g‘ri, tez o‘qish.

VI bo‘lim. OTALAR SO‘ZI – AQLNING KO‘ZI

(14 soat, A1+: 6 soat)

61-mavzu. Tilingni avayla – omondir boshing. Yusuf Xos Hojib (1 soat).

Tilning inson boshiga keltiradigan yaxshiliklari va yomonliklari. Tilni avaylash haqida donolarning nasihatlari. Mavzuga doir tez aytish va topishmoqlar. Ongli, tez va ifodali o‘qish.

Nazorat ishi (1 soat).

62-mavzu. Ibn Sinoning bolaligi. Maqsud Qoriyev (1 soat).

Ibn Sinoning bolaligi kechgan davr va oilasidagi muhit. Ilm olishga bo‘lgan intilishi. Kichkina Husaynning afshonalik shoir Umarxondan olgan olqishi va duosi. Mavzuga doir tez aytish va topishmoqlar. Ongli, tez va ifodali o‘qish.

63-mavzu. Amir Temur haqida hikoya. Bo‘riboy Ahmedov (1 soat).

Amir Temurning bolaligi. Temurbekning otasi. Ziyrak Temurbekning maktabga borishi. Amir Temurning ustozlari Ibodulla domla. Ustozning Temurbekka qilgan nasihatlari. Temurbek madrasa talabasi. Mamlakatni boshqarish ilmini o‘rganishi. Amir Temur – buyuk sohibqiron. Mavzuga doir maqol, tez aytish va

topishmoqlar. Ongli, tez va ifodali o‘qish.

A1+

Mavzu. Sinfdan tashqari o‘qish (1 soat).

Mavzu. Palto. Hadislar kitobi (1 soat).

Palto sabab ota va bolaning bir-biriga bo‘lgan munosabati. Iymon-e’tiqodning ustunligi. Ongli, tez va ifodali o‘qish. Matn mazmuniga mos topishmoq va tez aytishlar.

64-mavzu. Non – ulug‘ ne‘mat. Rivoyat (1 soat).

Mirzo Ulug‘bek – shoh va munajjim. Nonni e‘zozlash. Podsho Ulug‘bekning mulozimlariga ko‘rsatgan namunasi. Mavzuga doir maqol va topishmoqlar. Ongli, tez va ifodali o‘qish.

65-mavzu. Sinfdan tashqari o‘qish (1 soat).

66-mavzu. Nima eksang, shuni o‘rasan. Shorasul Zunnun (1 soat).

Keksa chol va unga o‘g‘li hamda kelinining munosabati. Chol va nabira munosabatlari. Yosh bolaning otasiga ko‘rsatgan ibrati. Keksalarni e‘zozlash – oliy himmat. Mavzuga doir tez aytish va topishmoqlar. Ongli, tez va ifodali o‘qish.

67-mavzu. Ta‘zir. Xudoyberdi To‘xtaboyev (1 soat).

Bahromjon va buvisi. Buvisining Bahromjonga iltimosi. Bahromjonning e‘tiborsizligi. Bahromjonni tarbiyalash uchun buvisining tadbiri. Keksalarni hurmat qilish odobi. Mavzuga doir tez aytish va topishmoqlar. Ongli, tez va ifodali o‘qish.

A1+

Mavzu. Bosh va til. Ertak (1 soat).

Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy munosabatlari. Saroy a‘yonlariing noroziligiga ularning nihoyatda sirli va to‘g‘ri javoblari. Matnni ongli, to‘g‘ri, tez va ifodali o‘qish. Matn mazmuniga mos topishmoq va tez aytishlar.

Mavzu. Hunarning hidi qanaqa. Janni Rodari (1 soat).

Hunarlarning turli-tumanligi va ularning har birining o‘ziga xos hidi borligi haqida. Mavzuga doir maqol va topishmoqlar. Ongli va ifodali o‘qish.

Nazorat ishi (1 soat).

68-mavzu. Mehmon keldi. Aziz Abdurazzoq (1 soat).

Mehnatkashlik, ozodalik, mehmondo‘stlik, mehr-oqibat kabi sifatlarni shakllantirishda milliy qadriyatlarimizning o‘rni. Ra‘noning mehnatkashligi va ozodaligi. Mehmon kutish odobi. Mehmondo‘stlikka doir maqollar. Ongli, tez va ifodali o‘qish.

69-mavzu. Kichkina Alisher. Zamira Ibrohimova (1 soat).

Alisher Navoiyning bolaligi va uning sifatlari. Alisherning sayohati va boshidan o‘tkazganlari. Topqirlik va ziyraklik. Mavzuga doir maqol va tez aytishlar. Ongli, tez va ifodali o‘qish.

70-mavzu. Alisher Navoiy. Xurshid Davron (1 soat).

Alisher Navoiyga ehtirom. Mavzuga doir maqol, tez aytish va topishmoqlar. She‘rni ongli va ifodali o‘qish.

A1+

Mavzu. Sinfdan tashqari o‘qish (1 soat).

Mavzu. Ochko‘zlik. Hikoya (1 soat).

Hikoyada bola bir so‘mini yo‘qotib qo‘yishi va bir odam kelib o‘sha pulni berishi. Shu pulga qanoat qilmagan bolaga qanoatli bo‘lish to‘g‘risida fikr bildirishi. Mavzuga doir tez aytish va maqollar. Ongli, tez va ifodali o‘qish.

71-mavzu. Bo‘lim yuzasidan takrorlash (1 soat).

“Otalar so‘zi – aqlning ko‘zi” bo‘limi yuzasidan o‘quvchilar bilimini tekshirish, takrorlash va umumlashtirish. Qiziqarli topshiriqlar, rebus va boshqotirmanini hal etish orqali o‘quvchilar bilimini mustahkamlash

72-mavzu. Sinfdan tashqari o‘qish (1 soat).

**VII bo‘lim. ZUMRAD BAHOR – BAHRI DILING OCHAR
(18 soat, A1+:10 soat)**

73-mavzu. Bahor keldi. Aziz Abdurazzoq (1 soat).

Bahor fasli. Bahor faslida tabiatdagi o‘zgarishlar. Bahor faslidagi obodonchilik ishlari. Tabiat go‘zalligidan zavq olishga o‘rgatish. Bahor fasli haqidagi maqol, topishmoq va tez aytishlar. She‘rni ongli va ifodali o‘qish mashqi.

Nazorat ishi (1 soat).

A1+

Mavzu. Bahor. Qutlibeka Rahimboyeva (1 soat).

Bahor fasli. Undagi go‘zallik va o‘ziga xoslik. Matnni ongli, to‘g‘ri, tez va ifodali o‘qish. Matn mazmuniga mos maqollar, hikmatli so‘zlar va topishmoqlar.

Mavzu. Shum tulki. Ertak (1 soat).

Ertakda yomonlikning albatta yakun topishi va jazolanishi tulkinining shumligi va jazosini olishi misolida ko‘rsatiladi. Ongli, to‘g‘ri, tez va ifodali o‘qish. Maqol, topishmoq va tez aytishlar.

74-mavzu. Boburning fazilatlari. G.H.Pant (1 soat).

Bobur Mirzo haqida ma‘lumot. Boburning jismoniy sifatlari va insoniy fazilatlari. “Boburnoma”. Boburning tabiatga, farzandlariga va insonlarga munosabati. Mirzo Boburning vorislari. Insoniy fazilatlar haqidagi maqol va tez aytishlar. Ongli, tez va ifodali o‘qish.

75-mavzu. Ko‘klam sep yoydi. Do‘stjon Matjon (1 soat).

Bahor faslida bog‘lardagi o‘zgarishlar. Mevali daraxtlar. Bahor faslida o‘lkamizga uchib keladigan qushlar. She‘r mazmuniga mos topishmoq va tez aytishlar. She‘rni ongli va ifodali o‘qish.

76-mavzu. Bir tup sada. Mahmud Murodov (1 soat).

Sada va uning insonlar uchun yaratgan qulayligi. G‘allakorlarning hordiq chiqarishi. Norbobo – mehnatkash otaxon. Daraxt o‘tqazishning insonlarga foydasi. “Birni kessang, o‘nni ek” hikmati. Insonlarga foyda keltirish va daraxt o‘tqazish haqidagi maqol va tez aytishlar. Ongli, tez va ifodali o‘qish.

77-mavzu. Gunafsha. Quدرات Hikmat (1 soat).

Bahor faslida ochiladigan gullar. Gunafsha – bahor elchisi. Gullarning go‘zalligi va hdan zavq olish. Bahor gullari haqidagi maqollar, tez aytish va topishmoqlar. She‘rni ifodali va ongli o‘qish.

A1+

Mavzu. Sinfdan tashqari o‘qish (1 soat).

Mavzu. Lagerga borgan kuchukcha. Anvar Obidjon (1 soat).

Kuchuklar insonga do‘st ekanligi lagerga borgan kuchukcha misolida o‘z aksini topgan. Bahodirning kuchukchasi hammaga yoqib tushadi. Bolalar bilan birga o‘ynaydi. Kuchukchanning bolalarga do‘stligini hamma bolalar tan oladi. Ongli, to‘g‘ri va ifodali o‘qish. Maqol, topishmoq va tez aytishlar.

78-mavzu. Tanbeh. Latifjon Mansurov (1 soat).

Salomlashish odobi. “Somaleykum” va “Assalomu alaykum” so‘zlarining ma‘nosi. Salomlashishning insonlararo munosabatlarga ta‘siri. Hikoya qahramonining xatosi va onasining bergan tanbehi. Yoshi kattalarni hurmat qilish va mehr-oqibatli bo‘lish. Salomlashish odobiga doir maqol va tez aytishlar. Ongli, tez va ifodali o‘qish.

79-mavzu. Sinfdan tashqari o‘qish (1 soat).

80-mavzu. Momaqaymoq. Quddus Muhammadiy (1 soat).

Bahor gullari va ularning go‘zalligi. Momaqaymoq. Tabiatdagi o‘zgarishlar va gullar go‘zalligidan zavqlanish. Mavzuga doir topshiriq va topishmoqlar. She‘rni ifodali o‘qish.

81-mavzu. Karim chumolilarning tilini bilarkan. Hamid Jalolov (1 soat).

Bolalarning tabiat qo‘yniga sayohati. Tabiat manzarasi. Karim va Nodiraning suhbat. Tabiat hodisalarining bog‘liqligi. “Karim chumolilarning tilini bilar ekan” gapining tahlili. Tabiat hodisalariga doir maqol, topishmoq va tez aytishlar. Ongli, tez va ifodali o‘qish.

A1+

Mavzu. O‘rik gullaganda. Hamid Olimjon (1 soat).

She‘rda bahor fasli o‘ziga xos tarzda o‘rikning gullashi misolida tasvirlanadi. She‘rni ongli, to‘g‘ri va ifodali o‘qish. Maqol, hikmatli so‘z va topishmoqlar.

Mavzu. Dik-Dikjo. Ertak (1 soat).

Ertakda qo‘rqoqlik va jasurlik haqida so‘z boradi. O‘zining hayoti xavfsizligini ta‘minlash uchun jasurlik kerakligi ta‘kidlanadi. Ongli, to‘g‘ri, tez va ifodali o‘qish. Maqol, topishmoq va tez aytishlar.

Nazorat ishi (1 soat).

82-mavzu. Alisherning onasi. Abdulla Oripov (1 soat).

Onalar haqida yozilgan she‘rlar. Alisher Navoiyni tarbiyalash, shoir darajasiga yetkazgan onasining madhi. Onalar haqidagi maqollar. She‘rni ifodali va ongli o‘qish.

83-mavzu. Onam. Umarali Qurbonov (1 soat).

8-mart – Onajonlar bayrami. Ona – buyuk zot, onalarni e‘zozlash – farzandlik burchi. Onalarga ta‘zim. Onalar haqidagi maqollar. She‘rni ongli va ifodali o‘qish.

84-mavzu. Navro‘z – tabiat tantanasi (1 soat).

21-mart – bahoriy tengkunlik. Navro‘zda tabiatning uyg‘onishi, iliq mavsumning boshlanishi. Hashar va obodonlashtirish ishlari. Navro‘z ayyomidagi an‘analar. Qadimgi yozma manbalarda Navro‘z ayyomining nishonlanishi haqida. Navro‘z ayyomi haqidagi maqollar, hikmatli so‘zlar va topishmoqlar. Ongli, tez va ifodali o‘qish.

A1+

Mavzu. Sinfдан tashqari o‘qish (1 soat).

Mavzu. Bizning bahor. Dilshod Rajab (1 soat).

Bahor manzarasi. Turfa xil gullarning ochilishi, qaldirg‘ochlarning kelishi. Bahor borliqni sayratib yuborishi. She’rni ongli va ifodali o‘qish.

85-mavzu. Polvonman. Qambar Ota (1 soat).

Sport va jismoniy mashqlarning inson salomatligiga ta’siri. O‘zbek milliy kurashi. Kurash – mardlar sporti. Salomatlik va jismoniy mashqlar haqidagi hikmatli so‘zlar. She’rni ongli va ifodali o‘qish.

86-mavzu. Sinfдан tashqari o‘qish (1 soat).

87-mavzu. Qaldirg‘och. To‘lan Nizom (1 soat).

Bahor faslida o‘lkamizga uchib keladigan qushlar. Qaldirg‘och. Qushlar bilan bog‘liq qadriyatlar. Qaldirg‘ochning in qurishi va bola ochishi. Qushlar haqidagi tez aytish, maqollar. She’rni ongli va ifodali o‘qish.

88-mavzu. Bo‘lim yuzasidan takrorlash (1 soat).

“Zumrad bahor – bahri diling ochar” bo‘limi yuzasidan o‘quvchilar bilimni tekshirish, takrorlash va umumlashtirish. Topshiriqlarni bajarish va boshqotirmani hal etish orqali o‘quvchilar bilimni mustahkamlash.

A1+

Mavzu. Omadini izlagan yigit. Hidoyat Olimova (1 soat).

Omadni izlab, kutgandan ko‘ra o‘z mehnati bilan omadga erishish yo‘llari. Mehnat qilgan odam albatta omadga erishishi. Matnni to‘g‘ri, ongli va ifodali o‘qish.

Mavzu. Varraklar quvonchi. Dilshod Rajab (1 soat).

Qishning o‘tib ketgani va bahor manzarasi varraklarning vaqti kelgani chiroyli bo‘yoqlarda tavsiflanadi. She’rni ongli, to‘g‘ri va ifodali o‘qish. She’r mazmuniga mos maqollar, topishmoqlar va tez aytishlar.

VIII bo‘lim. QUSHLAR, HAYVONLAR – BIZNING DO‘STIMIZ

(5 soat, A1+: 2 soat)

89-mavzu. Bulbuljonim kuylasin. Quddus Muhammadiy (1 soat).

Qushlar – bizning do‘stimiz. Bulbulning xush ovozi. Qushlar haqidagi maqol va topishmoqlar. Ongli, tez va ifodali o‘qish.

90-mavzu. Chumchuq bola. O‘ktam Usmonov (1 soat).

Qushlarning inson hayotidagi o‘rni va ularga munosabat. Boboxonning chumchuq bolasini qiynashi. Tal’at qushchani ayirboshlashi. Qushcha erkinlikda. Boboxonning hayrati. O‘quvchilarni qushlarni asrashga o‘rgatish. Qushlar haqidagi maqol va tez aytishlar. Ongli, tez va ifodali o‘qish.

91- mavzu. Tuya, fil va olmaxon. Ertak (1 soat).

Uy hayvonlari haqida ma’lumot. O‘rtoqlar va chin do‘st. Qo‘y va xo‘rozning do‘stlashishi. Qo‘y bo‘riga duch kelishi. Itning qo‘yni qutqarishi. Haqiqiy o‘rtoq. Nodon do‘st va ziyrak dushman. Do‘stlik haqidagi maqollar. Ongli, tez va ifodali o‘qish.

92-mavzu. Bo‘lim yuzasidan takrorlash (1 soat).

“Qushlar va hayvonlar bizning do‘stimiz” bo‘limi yuzasidan o‘quvchilar bilimni tekshirish, takrorlash va umumlashtirish. Topshiriqlarni bajarish va boshqotirmanini hal etish orqali o‘quvchilar bilimni mustahkamlash.

Nazorat ishi (1 soat)

A1+

Mavzu. Kirpitikan. Hamza Imonberdiyev (1 soat).

Kuzda barglarning to‘kilishi, hayvonlarning qish g‘amini yeyishi, ayrim sayyohlar barglarni yoqishi, kirpitikan ularni o‘chirishi misolida tabiatni va toza havoni asrashning ko‘rsatilishi. Ongli, to‘g‘ri, tez va ifodali o‘qish. Maqol, topishmoq va tez aytishlar.

Mavzu. Sinfdan tashqari o‘qish (1 soat).

O‘quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Adabiy-nutqiy kompetensiya (*tinglab tushunish, fikrni og‘zaki bayon qilish, o‘qish, fikrni yozma bayon qilish*):

A1

hikoya, ertak va she‘riy matnlarni tinglab tushuna oladi;

matnlarni ifodali, to‘g‘ri va tez o‘qiy oladi;

o‘qilgan matnlarning mazmunini tushuna oladi va mavzuga mos maqol va hikmatli so‘zlarni topa oladi;

matnlarning mazmunini qisqartirib va darslikdagi rasm va illyustratsiyalarga qarab fikrini og‘zaki bayon qila oladi;

o‘rganilgan mavzular doirasida kichik hajmli matn asosida bayon yoza oladi.

A1+

matnlarning mazmunini to‘liq bayon qilib bera oladi.

Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi:

A1

o‘rganilgan asarlarning nomi, mazmuni va qahramonlarini ajrata oladi va o‘qituvchi yordamida ularga baho bera oladi;

o‘qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera oladi;

matndagi so‘z va gaplarni tushuna oladi.

A1+

mustaqil o‘qish uchun tavsiya etilgan asarlarda tasvirlangan voqea-hodisalar mazmunini tushunib, qayta hikoya qila oladi.

IX bo‘lim. ERTAKLAR – YAXSHILIKKA YETAKLAR

(15 soat, A1+: 6 soat)

95-mavzu. Tansihatlik – tuman boylik. O‘zbek xalq ertagi (1 soat).

Ertak haqidagi dastlabki nazariy ma‘lumotlar. Donishmandga qashshoq yigitning murojaati. Donishmand chol va kambag‘al yigit bahsi. Inson salomatligi – eng katta boylik. Donishmandning kambag‘al yigitga nasihati. Mehnat qilish va salomatlik haqidagi maqollar ustida ishlash. Ongli, tez va ifodali o‘qish.

96-mavzu. Kenja o‘g‘il. O‘zbek xalq ertagi (1 soat).

Donishmand chol va uning uch o‘g‘li. Cholning o‘g‘illariga topshirig‘i.

Topshiriqning bajarilishi – o‘g‘illar qurgan qo‘rg‘onlar. Kenja o‘g‘ilga xotining maslahati. Do‘st – haqiqiy qo‘rg‘on. Do‘stlik haqidagi maqol va topishmoqlar. Ongli, tez va ifodali o‘qish.

97-mavzu. Eng yaxshi sovg‘a. O‘zbek xalq ertagi (1 soat).

Savdogar va uning uch qizi. Savdogarning Xitoy mamlakatiga sayohati va qizlarining iltimosi. Qizlar uchun sovg‘a. Kenja qizning sovg‘asi. Sog‘lik – eng katta boylik. Aqlli qiz. Ongli, tez va ifodali o‘qish.

98-mavzu. Tulki va xo‘roz. Eron xalq ertagi (1 soat).

Tulkining ayyorligi va xo‘rozga taklifi. Ayyor tulki yolg‘onining fosh bo‘lishi. Xo‘roz, tulki kabi ramziy obrazlar orqali aqllilik, tadbirlilik talqini. Do‘stlik va hayvonlar haqidagi ertaklar. Ongli, tez va ifodali o‘qish.

A1+

Mavzu. Uch Tulki. Ertak (1 soat)

Qaysarlik va o‘zbilarmonlikning yomon oqibati quyoncha va xo‘tikcha misolida ko‘rsatilishi. Ongli, tez va ifodali o‘qish. Ertak mazmuniga doir maqol, topishmoq va tez aytishlar.

Mavzu. Sinfdan tashqari o‘qish (1 soat).

99-mavzu. Aqlli bola. O‘zbek xalq ertagi (1 soat).

Maqtanchoq podsho. Podsho va aqlli bola suhbat. Aqlli bolaning jumboqli gapi. Mehmondorchilik. Jumboqning yechimi va bolaning aqliga podshoning tan berishi. Bolaning saroyga kelishi. Aqlning inson hayotining rivojlanishidagi ahamiyati. Aql va bilimdonlik haqidagi maqol, tez aytish va topishmoqlar. Ongli, tez va ifodali o‘qish.

100-mavzu. Sinfdan tashqari o‘qish (1 soat).

101-102-mavzu. Somon, cho‘g‘ va loviya. Aka-uka Grimmlar (2 soat).

Keksa kampirning ovqat tayyorlash voqeasi. Somon, cho‘g‘ va loviyaning uchrashib qolishi. Do‘stlashishi va sayohati. Do‘stlarning ariqchadan o‘tish voqeasi. Do‘stlarining ustidan kulgan loviyaning ahvoli. Loviyalarning qornidagi qora choki. Ertakdagi ramziy obrazlar orqali do‘st tanlash va do‘stlarga sodiq bo‘lish g‘oyasining talqini. Ertak mazmuniga doir maqol, tez aytish va topishmoqlar. Ongli, tez va ifodali o‘qish.

A1+

Mavzu. Uch o‘rtoq. Ertak (2 soat).

Haqiqiy do‘stlik. Qo‘y, xo‘roz va itning do‘stligi. “Nodon do‘stdan ziyrak dushman yaxshi” maqolining ma‘nosi. Ongli, tez va ifodali o‘qish. Ertak mazmuniga doir maqol, topishmoq va tez aytishlar.

103-mavzu. Qarg‘a bilan tulki. Ivan Krilov (1 soat).

Masal haqida qisqa nazariy ma‘lumot. Qarg‘a pishloq topishi. Ayyor tulkining qarg‘ani maqtashi. Qarg‘aning maqtovlarga aldanishi. Pishloqdan ayrilgan qarg‘a. Ramziy obrazlar orqali zukkolik, aqllilik, ayyorlik kabi sifatlar talqini. Masal mazmuniga doir maqol va topishmoqlar. Ongli, tez va ifodali o‘qish.

104-mavzu. Hakka bilan tulki. O‘zbek xalq ertagi (1 soat).

Ramziy obrazlar orqali zukkolik, aqllilik, ayyorlik kabi sifatlar talqini. Ertakni xulosalash.

Nazorat ishi (1 soat).

105-mavzu. Mushuk va sichqon. Habib Po‘latov (1 soat).

Mushuk va sichqonning suhbat va kelishuvi. Mushukni aldagan sichqon. Aldangan mushukning sichqonni poylashi. Ertak mazmuniga doir maqol va tez aytishlar. Ongli, tez va ifodali o‘qish.

A1+

Mavzu. Saboq. Hidoyat Olimova (1 soat).

Valijonning tushi. Undagi barcha kamchiliklarining bayoni. Valijonning o‘z xatolarini tushinishi. Erinchoqlik yomon odat ekanligi. Ongli, tez va ifodali o‘qish. Ertak mazmuniga doir maqol, topishmoq va tez aytishlar.

Mavzu. Maqtanchoq quyon. Ertak (1 soat)

Quyoning maqtanchoqligi, yolg‘onchiligi va qo‘rqoqligi. Bunday salbiy sifatlar yomon oqibatlariga olib kelishi maqtanchoq quyon misolida ko‘rsatiladi. Ongli, ifodali o‘qish. Ertak mazmuniga doir maqol, topishmoq va tez aytishlar.

106-mavzu. Bo‘lim yuzasidan takrorlash (1 soat).

“Ertaklar – yaxshilikka yetaklar” bo‘limi yuzasidan o‘quvchilar bilimni tekshirish, takrorlash va umumlashtirish

107-mavzu. Sinfdan tashqari o‘qish (1 soat).

X bo‘lim. TABIATNI ASRANG, AVAYLANG

(7 soat, A1+: 4 soat)

108-mavzu. Yomg‘ir. O‘roq Saidov (1 soat).

Tabiat hodisasi – yomg‘ir va uning xosiyati. Yomg‘irning rizq-ro‘z ulashuvchiligi. She‘r mazmuniga doir tez aytish va topishmoqlar. She‘rni ifodali va ongli o‘qish.

109-mavzu. Zilol suv. G‘ani Abdullayev (1 soat).

Asar qahramoni Tohirning otasi topshirig‘ini bajarishi. Anhorga tushgan axlatlar. Toza suvning ifloslanishi. Ta‘til davrida toqqa sayohat.

A1+

Mavzu. Kapalak. Mahmud Murodov (1 soat).

Qushlarga mehribonlik, zarur bo‘lganda ularni himoya qilish, qushlar insonlarning do‘sti ekanligi. Ongli, tez va ifodali o‘qish. Hikoya mazmuniga doir maqol, topishmoq va tez aytishlar.

Mavzu. Tovus va hakka. Ertak (1 soat).

G‘arazgo‘ylik, aldoqchilik, birovning muvaffaqiyatini ko‘rolmaslik va ochko‘zlikning yomon oqibati. Tovus va Hakka misolida ko‘rsatilganligi. Ongli, tez va ifodali o‘qish. Ertak mazmuniga doir maqol va tez aytishlar.

110-mavzu. Zilol suv. G‘ani Abdullayev (1 soat).

Tog‘ning toza havosi va zilol suv. Anhorning boshlanishi. Asad bilan Tohirning chopishuvi. Tohirning qilgan ishidan afsuslanishi. Tabiatni asrashga doir fikrlar. She‘rni ifodali va ongli o‘qish.

111-mavzu. Yershunos bo‘laman. Qambar Ota (1 soat).

Yerni asrab-avaylash va tuprog‘ining har bir zarrasini qadrlash. Tabiatni asrashga doir tushunchalar. Bolaning kelajakdagi orzulari va niyatlari. She‘r

mazmuniga doir maqol, tez aytish va topishmoqlar. She'rni ongli va ifodali o'qish.

112-mavzu. Bo'lim yuzasidan takrorlash (1 soat).

“Tabiatni asrang, avaylang” bo'limi yuzasidan o'quvchilar bilimini tekshirish, takrorlash va umumlashtirish. Topshiriqlarni bajarish, rebus va boshqotirmalarni hal etish orqali o'quvchilar bilimini mustahkamlash.

Nazorat ishi (1 soat).

A1+

Mavzu. Akula kelmadi. O'tkir Xoshimov (1 soat).

Suvda suzish, uning inson sog'ligi uchun ahamiyati, bolalarni yoshligidan suzishga o'rgatishning ahamiyati. Ongli, tez va ifodali o'qish. Hikoya mazmuniga doir maqol, topishmoq va tez aytishlar.

Mavzu. Suv. Quadrat Hikmat (1 soat).

Suvning hayotdagi o'rni. Suvning tabiatga ta'siri. Suvsiz hayotning yo'qligi. Cho'lni, sahroni bo'stonga aylantirishdagi o'rni. She'rni ongli va ifodali o'qish. She'r mazmuniga doir maqol, tez aytish va topishmoqlar.

113-mavzu. Sinf dan tashqari o'qish (1 soat).

XI bo'lim. YOZ - O'TADI SOZ

(8 soat, A1+: 6 soat)

114-mavzu. Yoz keldi. Qambar Ota (1 soat).

Yoz faslida tabiatdagi o'zgarishlar. Yoz ne'matlari va yozda kishilar mehnati. Yoz fasli haqidagi maqol va tez aytishlar. Ongli, tez va ifodali o'qish.

115-mavzu. Tabiatning ne'mati ko'p (1 soat).

Ertak qahramoni Eshakning tabiatga sayohati. Bog' va poliz ne'matlari. Eshakning chumchuq bilan tabiat ne'matlari haqidagi suhbat. Eshakning e'tirozi, qilmishi va jazosi. Hikmat. Tabiatning ne'mati. Ertak mazmuniga mos maqol va topishmoqlar. Ongli, tez va ifodali o'qish.

116-mavzu. Yozning ziynati. Aziz Abdurazzoq (1 soat).

Yoz faslida qushlar hayoti. Qaldirg'och uyasi va polaponlari. She'r mazmuniga doir maqol va topishmoqlar. She'rni ongli va ifodali o'qish.

A1+

Mavzu. Kitob. Obid Rasul (1 soat).

Kitobni asrash, uni toza saqlashning ahamiyati, kitobning bilim manbai ekanligi, kitob o'qigan kishining umri yaxshi o'tishi. She'rni ongli, ifodali, to'g'ri o'qish. She'r mazmuniga doir maqol, topishmoq va tez aytishlar.

Mavzu. Uchar poezd. Erkin Malik (1 soat).

O'zbekistondagi rivojlanish, taraqqiyot, yangiliklar, yangi temir yo'llarning ochilishi, Boysun - Qumqo'rg'on" yo'nalishidagi poezdda bobo va nabiraning sayohati, undagi taassurotlar. Topishmoq va tez aytishlar. Matnni ongli, tushunib, tez va ifodali o'qish.

117-118-mavzular. Qaldirg'och bilan beshiktervatar. O'tmish O'sarov (2 soat).

Ertak qahramonlari – qaldirg'och va beshiktervatarning tanishuvi. Do'stlar. Qaldirg'ochning bolalariga hujumi. Qaldirg'ochga yordam. Beshiktervatarning

jasorati. Ilonning jazosi. Haqiqiy do'stlik. Ertak mazmuniga mos maqollar. Ongli, tez va ifodali o'qish.

119-mavzu. A'lo o'qidingiz, a'lo dam oling! Ilyos Muslim (1 soat).

Yoz va yozgi ta'tilning boshlanishi. Yozgi ta'tilda bolalar dam olishi. She'r mazmuniga doir maqol, topishmoq va tez aytishlar. She'rni ongli va ifodali o'qish.

120-mavzu. Bo'lim yuzasidan takrorlash (1 soat).

"Yoz – o'tadi soz" bo'limi yuzasidan o'quvchilar bilimini tekshirish, takrorlash va umumlashtirish. Topshiriqlarni bajarish va boshqotirmalarni hal etish orqali o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash hamda amaliyotda qo'llay olishlarini tushuntirish.

A1+

Mavzu. Bug'doyning taqdiri. Dilshod Rajab (1 soat).

Bug'doyning maysa bo'lib o'sishidan tortib, pishib yetilishi, un va non bo'lishiga qadar jarayon. Nonning inson hayotidagi o'rni. Nonni e'zozlash. She'rni ongli va ifodali o'qish. She'r mazmuniga doir maqol, topishmoq va tez aytishlar.

Mavzu. Sovg'a. Farhod Musajon (1 soat).

Oqiljonga dadasi gul ko'chatini olib kelishi. Otasini Oqiljonga gul ko'chatini ekishga o'rgatishi orqali tabiatga muhabbat uyg'otishi. Oqiljonning gul ko'chatini parvarishlashi va mehnati mahsulini (ya'ni, gulni) sinfdoshiga sovg'a qilishi. Matnni ongli va ifodali o'qish. Hikoya mazmuniga doir maqol, topishmoq va tez aytishlar.

121-mavzu. Sinfdan tashqari o'qish (1 soat).

Nazorat ishi (1 soat).

Mavzu. Ezgulik qilay deb. Qambar Ota (1 soat)

O'quvchilarni ezgu ishlar qilishga yo'llash. Ezgu ishlarning jamiyat uchun ahamiyati. She'rni ongli va ifodali o'qish. Hikoya mazmuniga doir maqol, topishmoq va tez aytishlar.

A1+

Mavzu. Tonggi so'z. Raim Farhodiy (1 soat).

Insonlararo munosabatda salomlashishning o'rni. Ertalabki bu so'zning ma'nosi. Ahmadning tongdagi sarguzashtlari.

Mavzu. Yerning tili. Tolib Yo'ldosh (1 soat).

Yerni parvarishlash. Mehnat qilsa, yerning gullab yashnashi, insonlarni boqishi. Yerga e'tiborli bo'lish. She'r mazmuniga doir maqol va topishmoqlar. She'rni ongli, ifodali, to'g'ri o'qish.

O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Adabiy-nutqiy kompetensiya elementlari (*tinglab tushunish, fikrni og'zaki bayon qilish, o'qish, fikrni yozma bayon qilish*):

A1

ertak va she'riy matnlarni tinglab tushuna oladi;

ularni ongli, ifodali, to'g'ri, tez va bir daqiqada 30-35 ta so'zni o'qiy oladi;

o'qilgan matnlarning mazmunini tushuna oladi va mavzuga mos maqol va hikmatli so'zlarni topa oladi;

ularning mazmunini to'liq yoki qisqartirib, darslikdagi rasm va illyustratsiyalarga qarab fikrini og'zaki bayon qila oladi;
maktab kutubxonasidan foydalana oladi;
kichik hajmdagi 5 ta she'rni yoddan aytib bera oladi.

A1+

asar qahramonlari, tabiat tasviri haqida 4-5 gapdan iborat kichik ijodiy matn yoza oladi.

Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi:

A1

o'rganilgan asarlarning nomi, mazmuni va qahramonlarini ajrata oladi va o'qituvchi yordamida ularga baho bera oladi;

asar mazmunidan ta'sirlana oladi;

o'qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera oladi.

A1+

mustaqil o'qish uchun tavsiya etilgan asarlarda tasvirlangan voqea-hodisalar mazmunini tushunib, qayta hikoya qila oladi.

SINFDAN TASHQARI O'QISH

(17 soat, A1+: 17 soat)

O'qish materiallari 16-32 bet hajmdagi bolalarbop badiiy, ilmiy-adabiy kitoblar. O'quvchi ovozsiz mustaqil o'qish va tanlab ovoz chiqarib o'qish uchun 1-5 bet hajmli she'r, ertak va hikoyalar o'qiladi. O'qish mavzulari. Ona Vatan va otoboblar jasorati, o'simliklar, qushlar hamda hayvonlar haqidagi asarlar.

Sinfdan tashqari o'qishning asosiy vazifasi bolalarni mustaqil amaliy faoliyatga o'rgatish, bilimni boyitish va o'qish ko'nikmalarini takomillashtirishdir. O'qituvchilarga sinfdan tashqari o'qish darslarida o'qishlari zarur bo'lgan kitoblar, ular bilan tanishish tartibi yuzasidan ko'rsatmalar beriladi. Maktab kutubxonasi bilan birgalikda kitob ko'rgazmalari tashkil etiladi.

Kitobning muqovasi (tituli), betlarini farqlay olish. Kitobning nomini, muallifi va rasmlari asosida mazmunini aniqlay olish. Kim yoki nima haqida o'qidingiz? Savoliga javob berish, mazmunini aniqlash. Qahramonlarning xatti-harakatini, xulqini va ular boshidan kechirgan voqea-hodisalarni mustaqil baholay olish.

Mavzularni o'rganish uchun – 121 soat (A1+: 68 soat)

Nazorat ishlari uchun – 15 soat

Umumiy – 136 soat (A1+: 204 soat)

III SINF

O'QISH

Xalq ta'limi vazirligining 2018-yil 29-oktabrdagi
266-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan

O'quvchilar o'quv faoliyati natijalariga qo'yiladigan talablar:

hikoya, she'r, ertak, topishmoq, maqol, tez aytish, latifa, rivoyat, hikoyat, masal, ibora, afsona, xalq qo'shiqlari, qissalardan parchalarni to'g'ri, ongli, ifodali, sidirg'a o'qiydi va janriga ko'ra farqlay oladi;

badiiy asar mazmuniga munosabat bildiradi va asardagi qahramonlar haqida kichik hikoya tuza oladi;

matndagi so'zlarning ma'nolarini izohlay oladi;

maktab kutubxonasidagi kitoblardan unumli foydalanadi, mustaqil o'qish uchun bolalar yozuvchilarining turli mavzudagi asar tanlay oladi va ifodali o'qiydi;

o'qilgan badiiy asarga reja tuzadi, asar mazmunini qisqartirib, qayta hikoyalaydi va o'qigan asari yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini erkin bildira oladi;

bir daqiqada 40-50 ta so'z o'qiydi;

o'quv yili yakunida 15 ta she'rni yoddan ifodali aytib beradi;

o'qilgan asar asosida kichik sahnalar qo'yadi.

Kirish. Darslik bilan tanishtirish, darslikdagi asarlarni o'qishga qiziqish uyg'otish.
(1 soat)

I bo'lim. BIZ BUYUK YURT FARZANDI

(11 soat)

Vatan madhi, yurt jamoli, yurtimizda so'nggi yillarda amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari, ilm-fan taraqqiyoti va o'zbek sportining jahon miqiyosida o'z o'rniga ega bo'lishi.

Mustaqillik yillarida yoshlar uchun yaratilgan imkoniyat va sharoitlar. Istiqloq farzandlari buyuk avlodlarimiz kabi shijoatli, tadbirli va bilimdon bo'lib, el-yurtiga xizmat qilishi.

O'zbekiston bag'ri keng, ozod va obod vatan ekani, Vatanini va ona tilini sevishi.

Bo'lim yuzasidan takrorlash.

II bo'lim. SAHOVATLI KUZ

(13 soat)

Kuz tabiati manzarasi, undagi o'zgarishlar. Kuz sahovati, Kuz ne'matlari va kuz faslida yurtimizda nishonlanadigan milliy bayramlar. Kuz faslining o'ziga xos xususiyatlari, kuzda hayvonot va nabodot olami. Xazonrezgilik, kuzda kishilarning mehnati. Bog'bon va dehqonlarning mehnatini qadrlash.

Bo'lim yuzasidan takrorlash

III bo'lim. MAKTABIM–QUTLUG' MAKONIM, KITOBIM- BUYUK IMKONIM

(13 soat)

Maktab muqaddas dargoh ekanligi haqida. Maktab qoidalariga amal qilish va uning mulkini asrab– avaylash haqida. Ustoz –ilmga yetaklovchi aziz va mo'tabar inson sifatida e'zozlanishi haqidagi tushunchalar.

Bilim manbai–kitobni sevish, ardoqlash, asrash o'quvchilarning burchi ekanligi, kitob katta boylik deb ta'riflanishi haqidagi bilimlarni singdirish.

Kitobning inson hayotidagi o‘rni. Ilm olish o‘quvchining muhim vazifalaridan biri ekanligi. Vaqting ketdi baxting ketdi.

Zamonaviy bilim olish imkoniyatlari haqidagi ma’lumotlar.

Bo‘lim yuzasidan takrorlash.

IV bo‘lim. HUNAR-HUNARDAN RIZQING UNAR

(11 soat)

Kasb-hunar haqida tushuncha berish va ularning turlari bilan tanishtirish. Fan-texnika taraqqiyotiga hissa qo‘shayotgan kasblar bilan tanishtirish. Oila a’zolarining kasb-hunarlari haqida. Kasb tanlashga yo‘naltirish. O‘zi sevgan kasbdan faxrlanish. Tanlangan kasbning inson hayotidagi o‘rni.

Mehnatsevarlik va dangasalik. Mehnat insonni ulg‘lashi haqida. Uy ishlariga yordam berish.

Bo‘lim yuzasidan takrorlash.

V bo‘lim. GO‘ZAL QISH MANZARASI

(16 soat)

Kumush fasl manzarasi. Qomusimiz bo‘lgan Konstitutsiya haqida. Qish tabiatining manzarasi va hodisalari, bolalarning qishki o‘yinlari, Yangi yil bayrami, yangi yil archasi, Qorbobo va Qorqiz yangi yil bayrami mehmoni, Qorbobo va yangi yil bayramiga bolalar munosabati, Ayamajiz haqida.

Bo‘lim yuzasidan takrorlash.

VI bo‘lim. VATAN HIMOYACHILARI

(8 soat)

Vatanimizning qurolli kuchlari, Vatan himoyachilari va ularning hayoti bilan tanishtirish, harbiylik kasbiga qiziqish uyg‘otuvchi, vatanparvarlik hissini rivojlantiruvchi fazilatlarni yoritilishi. Vatanimiz himoyachilarining vatan oldidagi o‘z burchlarini qanday o‘tayotganliklari, ona yurtga bo‘lgan tengsiz sadoqatlari, Qurolli kuchlar safida harbiy xizmatni o‘tash har bir o‘g‘il bolaning yuksak yigitlik burchi ekanligi haqida.

Bo‘lim yuzasidan takrorlash.

VII bo‘lim. ULUG‘LARDAN O‘RGANMOQ–OQILLIK

(14 soat)

Ulug‘lardan qolgan hikmatlar. Ma’rifatparvarlik ajdodlarimizdan meros tuyg‘u. Dunyo ilm-fani va jamiyat rivojiga katta hissa qo‘shgan ajdodlarmiz haqida ma’lumot. Ulug‘lar ibрати masallar misolida. Ajdodlarimizning go‘zal fazilatlari. Buyuk ajdodlarimizdan ibrat olish va ularga munosib avlod bo‘lish burchimiz.

Bo‘lim yuzasidan takrorlash.

VIII bo‘lim. XALQ OG‘ZAKI IJODI

(8 soat)

Xalq og‘zaki ijodiga oid namunalardan kiritilishi. Xalq qo‘shiqlari. Va ularning bolalar hayotidagi o‘rni. Maqollarda aks etgan fazilatlar. Ular orqali o‘quvchilarga xalqning orzu-umidlari, do‘stlik, ahillik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, halollik fazilatlarini ulug‘lanishi, salbiy xislatlarning qoralanishini uqtirilishi. Bola aqlini va tasavvurini kengaytirishda topishmoqlarning ahamiyati.

Ertaklar olamiga sayohat. Nima yaxshi-yu, nima yomonligini ertaklardagi voqea-hodisalar orqali tanishtirish. Ertak qahramonlarining holati.

IX bo‘lim. ZUMRAD BAHOR NAFOSATI

(11 soat)

Bahor fasli va tabiati, bu faslning go‘zalligi. Bahor gullari. Kishilarning mehnati. Bahor faslida yurtimizda nishonlanadigan bayramlarning tasnifi. Onajonlar va Navro‘z bayrami haqida. Milliy urf-odatlar va an‘analar.

Bo‘lim yuzasidan takrorlash.

X bo‘lim. JAHON BOLALAR ADABIYOTI

(15 soat)

Jahon bolalari adabiyoti bilan tanishtirish, dunyo tan olgan bolalar badiiy asarlaridan namunalar berish. Tanlangan asarlar o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos kelishi va tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligiga e‘tibor qaratish kerakligi.

Bo‘lim yuzasidan takrorlash.

XI bo‘lim. TINCHLIK VA DO‘STLIK BO‘LSIN BARQAROR

(11 soat)

Tinchlik-bebaho ne‘mat. Baxtli va farovon turmush. Xotira va qadrlash, Vatan uchun jon bergan, shahid ketgan o‘g‘lonlar va ularni xotirlash.

Do‘stlik haqida tushuncha berish, uning qadr-qimmati va inson hayotidagi o‘rni. Do‘st bo‘lish va uni asrab avaylashga o‘rgatish. Qiyin damlarda do‘stlarining yonida bo‘lish.

Bo‘lim yuzasidan takrorlash.

XII bo‘lim. YOZ -O‘TADI SOZ

(5 soat)

Yoz zavqi. Yoz faslining go‘zalligini, yoz ne‘matlarini, o‘quvchilarning yozdagi hayotini tasvirlash. Yoz tabiati, pishiqchilik, o‘quvchilarni yozgi ta‘til kunlari.

Bo‘lim yuzasidan takrorlash.

SINF DAN TASHQARI O‘QISH

(17 soat)

Sinf dan tashqari o‘qish o‘quv dasturi bilan chambarchas bog‘liq. Shuning uchun o‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalash, ularni oddiy kitobxondan ijodkor kitobxon darajasiga ko‘tarish talab etiladi. O‘quvchilarda

kitobga havas uygʻotishda har bir bolaga yakka tartibda yondashish, shaxsiy qiziqishlarini hisobga olish zarur. Bolalar bilan ishlash ularda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalashining eng muhim omili hisoblanadi.

Sinfdan tashqari oʻqish ikki haftada bir marta oʻtkaziladi va oʻqish uchun ajratilgan 17 soatdan foydalaniladi. Badiiy asarlar mustaqil ravishda va izchil oʻqib borilsa, oʻquvchilarning dunyoqarashini kengaytirishga, shakllantirishga xizmat qiladi. Sinfdan tashqari oʻqish tanish boʻlmagan muallifning kitoblari hamda muqovasi, titul varagʻi, kirish soʻz, mundariyasi va suratlariga qarab asarning taqvimiy mazmunini aniqlash vazifasini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Sinfdan tashqari oʻqish tanish boʻlmagan muallifning kitoblari muqovasi, titul varaqi, kirish soʻzi, mundariyasi va suratlariga qarab asarning taqvimiy mazmunini aniqlash vazifasini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Bolalarda ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat hislarini uygʻotish, ularning bogʻlanishli nutqini oʻstirish, adabiy-estetik tafakkurini yuksaltirish oʻqish darslarining tub mohiyatini tashkil etadi.

Oʻqish koʻnikmasi:

Soʻzlarni butunicha sidirgʻa oʻqish; matn mazmunini ongli oʻzlashtirish; badiiy asardagi voqea – hodisalarining izchilligini belgilashda, oʻzaro bogʻlanish, tasviriy vositalarni matnda qoʻllanishini bilish; maqol va iboralarda soʻzlarni togʻri tanlay olish; mavzuni adabiy tilda talaffuz etishga oʻrgatish.

MAVZUIY REJALASHTIRISH

№	Boʻlim nomi	Jami soatlar taqsimoti		
		Mavzular	Sinfdan tashqari oʻqish	Nazorat ishi
1	Biz buyuk yurt farzandi	11	1	1
2	Sahovatli kuz manzarasi	13	1	2
3	Vatan himoyachilari	13	1	1
4	Ulugʻlardan oʻrganmoq-oqillik	11	2	1
5	Maktabim–qutlug`makonim, kitobim-buyuk imkonim	16	2	1
6	Hunar-hunardan rizqing unar	8	1	2
7	Goʻzal qish manzarasi	14	2	2
8	Xalq ogʻzaki ijodi	8	2	1
9	Zumrad bahor nafosati	11	1	2
10	Jahon bolalar adabiyoti	15	2	2
11	Tinchlik va doʻstlik boʻlsin barqaror	11	1	1
12	Yoz-oʻtadi soz	5	1	1
Jami		136	17	17
Umumiy soat:		170		

IV SINF OʻQISH

O'quvchilar o'quv faoliyati natijalariga qo'yiladigan talablar:

hikoya, she'r, ertak, topishmoq, maqol, tez aytish, rivoyat, doston, hikoyat, masal, latifa, lof, ibora, afsona, xalq qo'shiqlari, doston va qissalardan parchalarni to'g'ri, ongli, ifodali, sidirg'a (ravon) o'qiydi va asar mazmunini mustaqil tahlil qila oladi;

xabar, tabiat tasviri, kuzatgan voqea va hodisalar ishtirok etgan kichik hajmdagi insho yoza oladi;

matndagi so'z, ibora, gaplarning ma'nolarini izohlay oladi;

maktab kutubxonasidagi kitoblardan unumli foydalanib, bolalar yozuvchilarining turli janrdagi asarlarini tanlab, mustaqil o'qib, ijodiy bayon qila oladi;

o'qilgan asar qahramonlar xatti-harakatini baholaydi, ular haqida kichik hikoya tuzadi va ijodiy ravshda rasm chizadi va asar qahramonlariga shaxsiy munosabat bildiradi;

bir daqiqada 55-60 so'zni o'qiydi;

matn mazmunini reja asosida to'liq yoki qisqartirib, ijodiy qayta hikoyalaydi;

mustaqil o'qish uchun bir mavzu doirasida bir nechta asar tanlaydi va ifodali o'qib, so'zlab beradi, kitob haftaliklarida faol qatnashadi;

asari asosida bahs - munozara, mushoira qiladi va o'qilgan asar asosida kichik sahna ko'rinishlarida faol qatnashadi;

o'quv yili yakunida 10 ta she'rni yoddan aytib beradi.

Kirish. Darslik bilan tanishtirish, darslikdagi asarlarni o'qishga qiziqish uyg'otadi.

I bo'lim. ULUG' VA AZIZ VATANIM – MANGU BO'L OMON

(7 soat)

Vatan-inson tug'ilgan muqaddas zamin, bu zamin uning qalbida abadiy qolishi va hech qachon unutilmasligi, vatanga bo'lgan muhabbat ona suti, ona bag'ri, ona allasi bilan bola yuragiga jo bo'lishi haqida. El-yurt obodligi, a'lo o'qish – vatanning kelajagi, ishonchi va quvonchi ekanligi. Yoshlarda o'z xalqiga sadoqat, an'analariga chuqur hurmatda bo'lishni, vatanga sodiqlikni shakllantirish. Vatan ravnaqi yo'lida ijodkorlik, tashabbuskorlik ko'rsatishga undovchi matnlar. Ulug' va aziz vatani bo'lgan O'zbekistonni mangu omon bo'lishida o'z millati va vatani manfaatlari yo'lida fidoyilik ko'rsatishga qodir bo'lgan barkamol yosh avlodni tarbiyalash.

II bo'lim. SAHOVATLI FASL

(7 soat)

Kuz go'zal va serjilo fasl. Kuz tabiati. Kuz ne'matlari. Faslda tabiatdagi o'zgarish va hodisalar. Kuz faslining o'zgacha husn-tarovati. Kuz faslini "Xazon" barglari bilan ajralib turishi. Kuz fasli kirib kelganda ona tabiat oltin libosga burkanishi. Kuzda kishilar hayoti va mehnati. Dehqonchilik va yurt obodligi.

Dehqonchilikning ulug‘lanishi. O‘qituvchi kasbining ulug‘lanishi haqida. Kuz tabiatiga xos bo‘lgan tabiatdagi va ob-havodagi o‘zgarishlar.

Bo‘lim yuzasidan takrorlash

III bo‘lim. ILM DARGOHI MAKTAB, UNING KALITI KITOB

(8 soat)

Maktab muqaddas ilm dargohi ekanligi. Zamonaviy maktablar. Dono va bilimli kishilarning ilm to‘g‘risidagi fikri. Kitob axloqiy xislatlarni tarbiyalovchi manba ekanligi. Ilmli kishilar haqida. Hikmatlarda ulug‘ allomalarimizning ilm haqidagi fikrlari. Ilmning qadri. Ilmning ulug‘lanishi. Yomon odat va illatlarni bartaraf etish to‘g‘risida. Xalqaro fan olimpiadalarida yuqori natijalarga erishgan bolalar haqida. Kompyuter va uning inson mehnatini yengillatishdagi, ilm olishdagi o‘rni. Kompyuterning imkoniyatlari. Kompyuterdan to‘g‘ri va ongli foydalanish qoidasi haqida tushunchalarini kengaytirish.

Bo‘lim yuzasidan takrorlash

IV bo‘lim. HUNAR-HUNARDAN RIZQING UNAR

(6 soat)

Kasb-hunar haqida tushuncha berish va ularning turlari bilan tanishtirish. Fan-texnika taraqqiyotiga hissa qo‘shayotgan kasblar bilan tanishtirish. Oila a‘zolarining kasb-hunarlari haqida. Kasb tanlashga yo‘naltirish. O‘zi sevgan kasbdan faxrlanish. Tanlangan kasbning inson hayotidagi o‘rni. Kasbi orqasidan obro‘ topgan insonlar hayoti haqida.

Mehnatsevarlik va dangasalik. Mehnat insonni ulug‘lashi haqida. Hunar orqali xor bo‘lmaslik to‘g‘risida. Uy ishlariga yordam berish.

Bo‘lim yuzasidan takrorlash.

V bo‘lim. KUMUSH QISH

(9 soat)

Qish manzarasi. Yil fasllarining almashinib turishi. Faslda turli jonivorlar va hayvonlarning hayoti. Qishki o‘yinlar. Qish faslining o‘ziga xos xususiyatlari. Qish faslida kishilarning mehnati. Qish faslida nishonlanadigan bayramlar. Konstitutsiyamiz-bosh qomusimiz ekanligi haqida ma‘limot berish. Yangi yil. Yangi yil bayramining asosiy bezagi-Archa daraxti. “Tog‘ malikasi”. Archa bezatish va go‘zallikdan zavqlanish. Yangi yil bayramining sevimli qahramonlari-Qorqiz va Qorbobo haqida. Tabiat go‘zalligidan zavqlanish. Qor va uning dehqonchilikka hamda inson salomatligiga ta’siri.

Bo‘lim yuzasidan takrorlash

VI bo‘lim. BORDIR VATAN POSBONLARI – TINCH OSUDA OSMONLARI

(5 soat)

Vatan himoyachilari ona-yurtning, xalqning taqdiriga chuqur hurmat bilan qarashi, Vatan manfaatlari yo‘lida fidoyilik ko‘rsatishga qodir bo‘lgan vatanparvar

shaxslar ekanligi, Vatan ozodligi, ota-ona, el-yurt, jigargo'shalar tinchligini saqlash, himoya qilish uchun jismoniy va ma'naviy tayyor bo'lishi, har qanday dushmandan o'z yurtini himoya qilishi, millat, xalq, Vatan ozodligi, el-yurt tinchligi yo'lida o'z kuchi va bilimini ayamasi. Yoshlarni harbiy xizmatga va armiyaga muhabbat, jasurlik, intizomlilik, zukkolik, o'z vatani himoyasiga doimo tayyor bo'lishga tarbiyalash. Qurolli kuchlar safida harbiy xizmatni o'tash har bir o'g'il bolaning yuksak yigitlik burchi ekanligi haqida

VII bo'lim. BUYUK ALLOMALARGA MUNOSIB VORISLARMIZ

(6 soat)

Ulug'lardan qolgan hikmatlar. Ma'rifatparvarlik ajdodlarimizdan meros tuyg'u. Dunyo ilm-fani va jamiyat rivojiga katta hissa qo'shgan ajdodlarmiz haqida. Ajdodlarimizning go'zal fazilatlar. Buyuk allomalarmizdan ibrat olish va ularga munosib voris bo'lish. Yoshlarni ma'naviy merosimizga ehtirom ruhida tarbiyalash. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda xalqimizning tarixi, bosib o'tgan yo'li, undagi tarixiy voqealar namuna bo'la olishi.

Bo'lim yuzasidan takrorlash.

VIII bo'lim. XALQ OG'ZAKI IJODI

(6 soat)

Xalq og'zaki ijodidan namunalar. Xalq qo'shiqlari va ularning bolalar hayotidagi o'rni. Maqollarda aks etgan fazilatlar. Ular orqali o'quvchilarga xalqning orzu-umidlari, do'stlik, ahillik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, halollik fazilatlarining ulug'lanishi, salbiy xislatlarning qoralanishi. Bola aqlini va tasavvurini kengaytirishda topishmoqlarning ahamiyati.

Ertaklar olamiga sayohat. Mardlikning inson hayotidagi o'rni. Ertak qahramonlarining holati. Masal haqida ma'lumot. Ularda insoniy fazilatlarining ulug'lanishi. Rivoyatlar va afsonalar haqida tushuncha berish.

IX bo'lim. ZUMRAD BAHOR

(7 soat)

Fasllar kelinchagi bo'lgan bahor tabiati. Bahor – tabiatimizning tiklanish, yasharish, yangilanish fasli. Tabiat hodisalari va o'zgarishlari. Buyuk avlodlarimizning obodonlashtirish ishlari. Kattalarga hurmat, kichiklarga izzatda bo'lish kerakligi. Navro'z – qadimiy bayramligi. Navro'z bayramiga bog'liq urf-odatlariga amal qilish. Milliy udumlar va qadriyatlarni bilish, e'zozlash. Mehnatkashlik, ozodalik, mehmondo'stlik, mehr-oqibat kabi sifatlarni shakllantirishda milliy qadriyatlarimizning o'rni.

Bo'lim yuzasidan takrorlash

X bo'lim. JAHON BOLALAR ADABIYOTI

(8 soat)

Jahon bolalari adabiyoti bilan tanishtirish. Dunyo tan olgan bolalar badiiy asarlaridan namunalar berish. Tanlangan asarlar o'quvchilarning yosh

xususiyatlariga mos kelishi va tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligiga e'tibor qaratish.

Bo'lim yuzasidan takrorlash.

XI bo'lim. XOTIRA MUQADDAS - TINCHLIK VA DO'STLIK ULUG' NE'MAT

(7 soat)

Xotira va qadrlash. Ajdodlar yodining o'chmasligi. Vatan uchun jon bergan, shahid ketgan o'g'lonlar va ularni xotirlash, tiriklarini qadrlash.

Tinchlik-bebaho ne'mat. Baxtli va farovon turmush.

Do'stlik haqida tushuncha berish, uning qadr-qimmatini va inson hayotidagi o'rni. Do'st bo'lish va uni asrab avaylashga o'rgatish. Qiyin damlarda do'stlarining yonida bo'lish. Xalqlar do'stligi ulug' fazilat ekanligi.

XII bo'lim. YOZ -O'TADI SOZ

(4 soat)

Yoz zavqi. Yoz faslining go'zalligini, yoz ne'matlarini, o'quvchilarning yozdagi hayotini tasvirlash. Yoz tabiati, pishiqchilik, o'quvchilarning yozgi ta'til kunlari. Yozgi ta'tilni o'quvchi qanday o'tkazishi haqidagi matnlar.

Bo'lim yuzasidan takrorlash.

SINFDAN TASHQARI O'QISH

(10 soat)

Sinfdan tashqari o'qish o'quv dasturi bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalash, ularni oddiy kitobxondan ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish talab etiladi. O'quvchilarda kitobga havas uyg'otishda har bir bolaga yakka tartibda yondashish, shaxsiy qiziqishlarini hisobga olish zarur. Bolalar bilan ishlash ularda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalashining eng muhim omili hisoblanadi.

Sinfdan tashqari o'qish ikki haftada bir marta o'tkaziladi va o'qish uchun ajratilgan 10 soatdan foydalaniladi. Badiiy asarlar mustaqil ravishda va izchil o'qib borilsa, o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishga, shakllantirishga xizmat qiladi. Sinfdan tashqari o'qish tanish bo'lmagan muallifning kitoblari hamda muqovasi, titul varag'i, kirish so'z, mundariyasi va suratlariga qarab asarning taqvimiy mazmunini aniqlash vazifasini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Sinfdan tashqari o'qish tanish bo'lmagan muallifning kitoblari muqovasi, titul varaqi, kirish so'zi, mundariyasi va suratlariga qarab asarning taqvimiy mazmunini aniqlash vazifasini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Bolalarda ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat hislarini uyg'otish, ularning bog'lanishli nutqini o'stirish, adabiy-estetik tafakkurini yuksaltirish o'qish darslarining tub mohiyatini tashkil etadi.

O'qish ko'nikmasi:

So'zlarni butunicha sidirg'a o'qish; matn mazmunini ongli o'zlashtirish; badiiy asardagi voqea-hodisalarining izchilligini belgilashda, o'zaro bog'lanish,

tasviriy vositalarni matnda qo‘llanishini bilish; maqol va iboralarda so‘zlarni tog‘ri tanlay olish;

mavzuni adabiy tilda talaffuz etishga o‘rgatish.

MAVZUIY REJALASHTIRISH

№	Bo‘lim nomi	Jami soatlar taqsimoti			
		Mavzular	Sinfdan tashqari o‘qish	Nazorat ishi	Takrorlash (изох)
1	Ulug‘ va aziz vatanim - mangu bo‘l omon	7	1	1	
2	Sahovatli fasl	7	1	1	1
3	Ilm dargohi maktab, uning kaliti kitob	8	1	1	1
4	Hunar-hunardan rizqing unar	6	1	1	1
5	Kumush qish	9	1	1	1
6	Bordir vatan posbonlari – tinch osuda osmonlari	5			
7	Buyuk allomalarga munosib vorislarmiz	6	1	1	1
8	Xalq og‘zaki ijodi	6	1	1	
9	Zumrad bahor	7	1	1	1
10	Jahon bolalar adabiyoti	8	1	1	1
11	Xotira muqaddas - tinchlik va do‘stlik ulug‘ ne‘mat	7	1	1	
12	Yoz-o‘tadi soz	4	1	1	1
Jami		80	11	11	8
Umumiy soat:		102			

V SINF ADABIYOT

Xalq ta‘limi vazirligining 2020-yil 10-apreldagi 102-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan

O‘quvchilar o‘quv faoliyati natijalariga qo‘yiladigan talablar:

badiiy adabiyotning turlari va uning farqlarini ajratadi;
xalq og‘zaki ijodini tushunadi;
asar parchalarini ifodali o‘qiydi;
she'rni (kichik hajmdagi)yoddan aytadi;
asar qahramonlariga o‘zining munosabatini bildiradi;
asarlari va erkin mavzu yuzasidan yozma ish(matn, taassurot) yozadi;
kutubxonadan kerakli kitoblarni tanlay oladi va o‘qiydi.

Kirish

Adabiyot – so‘z san'ati. Adabiyotning olam va odamga bog‘liq bo‘lgan ma'lumotlarni badiiy shaklda aks ettirilishi. Uning ezgulik va yovuzlik, yaxshilik

va yomonlik singari tushunchalarni shakllantirishdagi o‘rni va ahamiyati. Og‘zaki va yozma adabiyot. O‘quvchilarda kitobxonlik madaniyati.

I bob. HIKMAT DURDONALARI

(7 soat)

Maqollar

Maqollar – xalq og‘zaki ijodi namunasi. Maqollarda xalq milliy tafakkuri va donishmandligining aks etishi. Maqollarning tuzilishi, mavzu qamrovi. Vatanparvarlik, do‘stlik, ilm va kasb-hunar, odob, tarbiya haqidagi maqollar. Maqollar matni ustida ishlash. Inson tarbiyasida maqollarning ahamiyati.

Topishmoqlar

Topishmoq – xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xos janri. Topishmoqlarda inson va uni o‘rab olgan olam tasvirining o‘xshatishlar, taqqoslashlar, savollar vositasida ifodalanishi. Topishmoq bag‘ishlangan predmetlar tavsifidagi o‘ziga xosliklar. Ularning shakliy tuzilishi. Topishmoqlar matni ustida ishlash. Topishmoqlar savol va javob qismlari bilan birgalikda bir butun ekanligi. Mantiqiy fikrlashda topishmoqlarning ahamiyati.

Hadislar.

Hadislarda islom dinining qonun-qoidalari bilan birgalikda insoniy fazilatlar ham keng o‘rganiladi, insoniylik sha‘niga dog‘ tushuradigan yomon illatlar qoralanadi. Ya‘ni, hadislarda o‘zaro do‘stona munosabatlar, qarindosh, ota-ona va farzandlarning haq-huquqlari, mehr-oqibat, halollik, poklik, adolat, insof-tavfiqli bo‘lish targ‘ib qilingan.

Ezop. “Yovvoyi echkilar”, “Kiyik bilan tokzor”, “Bo‘ri bilan laylak”, “Eshak bilan baqalar”, “Ustiga tuz yuklangan eshak”, “Burgut, zag‘cha va cho‘pon” masallari.

Masal haqida qisqacha ma‘lumot. Masallarda ezgulik, saxiylik, olijanoblik singari fazilatlarining ulug‘lanishi, ayrim salbiy xususiyatlarning qoralanishi. Ezop masallarining matni ustida ishlash. Ezop masallarining ma‘rifiy hamda tarbiyaviy ahamiyati.

O‘quvchilar sinfda va mustaqil o‘qishlari, yod olishlari lozim bo‘lgan asarlar:

1. Hadislarni o‘qish.
2. O‘zbek xalq maqollaridan 10 tadan yod olish.
3. Topishmoqlarlardan 10 tadan yod olish.
4. Ezop masallarini o‘qish.

II bob. ERTAKLAR OLAMIDA

(6 soat)

“Uch og‘a-ini botirlar” ertagi

“Uch og‘a-ini botirlar” ertagi matni ustida ishlash. Unda xalq badiiy dahosi, fantaziyasining yorqin namoyon bo‘lishi. Ertak matni ustida ishlash. Botirlarga xos ezgu ma‘naviy sifatlarning ulug‘lanishi.

Hamid Olimjon. “Oygul bilan Baxtiyor” dostoni

Hamid Olimjon hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. “Oygul bilan Baxtiyor” dostonidagi asosiy obrazlar. Dostondagi ijobiy fazilatli kishilar tasviri. Dostonda ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash tasviri. Doston matni ustida ishlash. Asarning badiiy xususiyatlari.

Aka-uka Grimmlar. “Botir tikuvchi” ertagi

Ertakchi aka-uka Grimmlar haqida qisqacha ma'lumot. Ertakda ezgulikning tasvirlanishi. Ertak qahramonlari o'rtasidagi munosabatlar va ulardagi zukkolik, uddaburonlik, dovyuraklik va boshqa o'ziga xos sifatlarning ifodalanishi. Ertak matni ustida ishlash.

O'quvchilar sinfda va mustaqil o'qishlari, yod olishlari lozim bo'lgan asarlar:

1. “Uch og'a-ini botirlar”ertagi.
2. Hamid Olimjon “Oygul bilan Baxtiyor” dostoni.
3. Shukrullo. “Umr haqida ertak”
4. Aka-uka Grimmlar “Botir tikuvchi” ertagi.

III bob. BOLALIKNING BEG'UBOR OLAMI

(13 soat)

Mirkarim Osim. “Zulmat ichra nur” tarixiy qissasi

Adibning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. “Zulmat ichra nur” qissasida Alisher Navoiyning nihoyatda o'tkir zehni bo'lganligi, o'qish va yozishni juda erta o'rganib olganligi, eng muhimi – bolaligidan she'riyatga, adabiyotga g'oyat qiziqanligi ifodalangan.

Oybek. “Fonarchi ota” hikoyasi

Yozuvchining hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot.

“Fonarchi ota” hikoyasida otaning olijanob insoniy fazilatlarini va bolalar sho'xliklarining haqqoniy ifodalanganligi. Bolalarning fanorchi otaga bo'lgan munosabatlarining o'zgarib borishi va bu holning yozuvchi tomonidan katta mahorat bilan ifodalanishi. Hikoyaning estetik-tarbiyaviy ahamiyati.

Mirtemir. “Bulut”, “Shudring”, “Baliq ovi” she'rlari

Mirtemir hayoti va ijodi haqida ma'lumot. Mirtemir she'rlarida ona yurt tabiatidagi tengsiz go'zalliklarning tasvirlanishi. Shoir she'rlarida yurt tabiatiga mahliyolik, undan faxrlanish hissining bo'rtib turishi.

Mirtemir she'rlarida tabiatga mehr-muhabbatning ifoda etilishi. Shoir she'rlarida o'zbek xalqiga xos ezgu sifatlarning o'ziga xos yo'sinda aks ettirilishi. She'rlarning badiiy xususiyatlari va ifoda tarzi. She'r matni ustida ishlash

O'tkir Hoshimov. “Dunyoning ishlari” qissasi

O'tkir Hoshimovning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot.

“Dunyoning ishlari” qissasidan olingan boblarda ona, o'g'il va boshqa obrazlarning jonli tasvir etilgani. Qissaning “Alla”, “Iltijo” boblarida insonning Ona oldidagi farzandlik burchining, hiech qachon to'lab bo'lmas qarzni ta'sirchan ifodalangani. Onani qo'msash, uni sog'inish, uning hiech kim bilan almashtirib bo'lmaydigan mehri oldida qarzdorlik tuyg'usining ifodalanishi.

“Oq, oydin kechalar”, “Tush”, “Gilam paypoq” fasllarida Ona qalbidagi cheksiz mehr-muhabbat tuyg‘usining samimiy ifodasi. Asarning badiiy xususiyatlari.

O‘quvchilar sinfda mustaqil o‘qishlari, yod olishlari lozim bo‘lgan asarlar:

1. Mirkarim Osimning “Zulmat ichra nur” qissasi.
2. Oybekning “Bir o‘lkaki” she’ri.
3. O‘.Hoshimov. “Dunyoning ishlari” qissasi.
4. Mirtemir. “Bult”, “Shudring”, “Baliq ovi” she’rlari.

IV bob. MA’NAVIYAT BO‘STONI

(9 soat)

Alisher Navoiy. “Sher bilan Durroj” hikoyati (“Hayrat ul-abror” dostonidan)

Alisher Navoiyning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot.

Rostgo‘ylik va yolg‘onchilikning Sher bilan Durroj qismati misolida aks ettirilgani. “Sher bilan Durroj” asari matnini ustida ishlash.

Hikoyatlarning ramziy ma’nosi. Uning ma’rifiy va tarbiyaviy ahamiyati.

Bobur. Ruboiylari

Boburning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot.

Bobur – ruboiynavis. Shoirning “Har kimki vafo qilsa...”, “Kim yor anga ilm tolibi...”, “Ko‘pdin berikim...”, “Tole yo‘qi jonimg‘a...” ruboiylariga xos xususiyatlar. Ruboiylarda muallif hayoti, orzulari, armonlari va ularning betakror tarzda tasvir etilgani. Ruboiy haqida qisqacha ma'lumot.

Sa'diy Sheroziy. “Guliston”, “Bo‘ston” asarlari

Sa'diy Sheroziy haqida qisqacha ma'lumot.

“Guliston” asarining badiiy-ma’rifiy xususiyatlari. Sa'diy hikoyatlarida ta’lim-tarbiya masalasining hal qiluvchi masala sifatida qo‘yilishi. Ularda to‘g‘riso‘z, qanoatli, mehnatkash, halol kishilar taqdirining badiiy jihatdan lo‘nda, soddavata’sirchanaks etishi. Dostondagi she’riy lavhalar va hikoyatlarning hayotiy-didaktik asosi.

“Bo‘ston” asarining badiiy-ma’rifiy xususiyatlari. Sa'diy hikoyatlarida ayb qidirmaslik masalasining hal qiluvchi masala sifatida qo‘yilishi.

“Mufradot”dagi hikmatlarning badiiy xususiyati.

O‘quvchilar sinfda va mustaqil o‘qishlari, yod olishlari lozim bo‘lgan asarlar:

1. Alisher Navoiy. “Hayrat ul-abror” dostonidan “Tuzlug‘ta’rifida” hikoyati.
2. Boburning “Har kimki vafo qilsa...”, “Kim yor anga ilm tolibi...” ruboiylari.
3. Sa'diy Sheroziy. “Guliston”, “Bo‘ston” asarlaridan parcha o‘qish.

V bob. VATANNI SEVMOQ IYMONDANDIR

(13 soat)

Abdulla Avloniy. “Vatan” she’ri, “Chin do’st”, “Yolg’on do’st”, “Xurus ila bo’ri”, “Jankashlik zarari”

Abdulla Avloniy hayoti va ijodi to’g’risida qisqacha ma'lumot.

“Vatan” she’rida inson tug’ilib o’sgan zaminning qadr-qimmatini sodda bir uslubda tushuntirib berganligi.

Erkin Vohidov. “Nido” dostoni

Erkin Vohidov hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot.

“Nido” dostonida insoniyat boshiga tushgan falokat – Ikkinchi jahon urushi keltirgan balolarning murg’ak o’smir taqdirida aks ettirilishi. Doston matni ustida ishlash. Dostonda bola tabiatining g’oyat nozik jihatlari haqqoniy tasvirlanganligi.

Abdulla Oripov. “O‘zbekiston” qasidasi

A. Oripov hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot.

“O‘zbekiston” qasidasida ona yurt o‘tmishining g’oyat ta’sirli va millat tarixi bilan uyg‘un holda tasvirlanganligi. Asarda buyuk ajdodlarni ulug‘lashdagi samimiyat. Shoirning Vatanga bo‘lgan muhabbatining yorqin ifodalanishi. Qasidaning badiiy xususiyatlari.

Anvar Obidjon. She’rlar

Anvar Obidjon hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot.

Shoirning she’riy to‘plamlari. “Hayotning har lahzasi go‘zal”, “Vatanjon”, “Tinch kun”, “yer” nomli she’rlaridagi samimiy tuyg‘ular ifodasi. She’rlarning badiiy xususiyatlari, tasvir vositalari.

Nodar Dumbadze. “Hyellados” hikoyasi

Gruzin adibi Nodar Dumbadzening hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot.

Adibning roman, qissa va hikoyalarining o‘zbek tiliga tarjima etilganligi. “Hyellados” hikoyasida bolalar hayoti, ular orasidagi murakkab munosabatlar tasviri. Asardagi vatanparvarlik tuyg‘usining o‘ziga xos tarzda ifoda etilishi.

Asardagi voqyealar rivoji va undagi qahramonlar tasviri. Yanguli va Jamol timsollari. Bu timsollarning xarakter darajasiga ko‘tarilganligi. Yanguli tabiatida jangarilik, olijanoblik hamda vatansevarlik tuyg‘ularining mavjudligi.

O‘quvchilar sinfda va mustaqil o‘qishlari, yod olishlari lozim bo‘lgan asarlar:

1. Abdulla Avloniyning «Vatan» she’ri. ”Ikkinchi muallim” kitobidan “Yolg‘on do’st”, ”Chin do’st”, ”Xurus ila bo’ri”, ”Janjalchilik zarari” hikoyalaridan lavhalar
2. Abdulla Oripov. “O‘zbekiston” she’ri.
3. Erkin Vohidov. “Nido” dostonidan parcha.
4. Nodar Dumbadze. “Hyellados” hikoyasi.

MAVZUIY REJALASHTIRISH

№	Boblar nomi	Soatlar taqsimoti					Mustaqil o‘rganadigan soat
		Jami	Mavzu soat	Nazorat ishi	Takrorlash	Test	
1	Kirish	1	1				

2	Hikmat durdonalari	7	7				
3	Ertaklar olamida	6	6	2	1	1	
4	Bolalikning beg'ubor olami	13	13	2	1	1	1
5	Ma'naviyat bo'stoni	9	9	2	1	1	1
6	Vatanni sevmog' iymondandir	13	13	2	1	1	1
Jami		68	49	8	4	4	3

VI SINF ADABIYOT

Xalq ta'limi vazirligining 2017-yil 3-iyundagi
190-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan

(68 soat, haftasiga 2 soat, A2+: 102 soat)

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari: Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

A2

mediamanba va kutubxonalardan zarur ma'lumotlarni topa olish va ulardan foydalanish.

A2+

mediamanbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olish, saralash va ulardan foydalana olish.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

A2

doimiy ravishda o'z-o'zini ma'naviy rivojlantirish, mustaqil o'qib-o'rganish.

A2+

doimiy ravishda o'z-o'zini ma'naviy, intellektual rivojlantirish, kamolotga intilish, mustaqil o'qib-o'rganish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

A2

oila, maktabda bo'layotgan tadbirlarda faol ishtirok etish, barcha bilan xushmuomalada bo'lish.

A2+

badiiy asarlarda aks etgan insoniy fazilatlarni anglay olish va boshqalarga yetkazishga intilish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

A2

umuminsoniy va milliy qadriyatlarni e'zozlash, orasta kiyinish.

A2+

badiiy asarlarda aks etgan milliy qadriyatlarni tushunish, sog'lom turmush tarziga amal qilish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

A2

oddiy kun tartibini tuza olish, unga amal qilish.

A2+

kundalik faoliyatda turli chizmalarni o'qiy olish.

1-mavzu. Kirish. Ma'naviyat xazinasini. (1 soat)

Badiiy adabiyot va yoshlar ma'naviyati. Adabiy asarlarning insonning ma'naviy dunyosini shakllantirishdagi o'rni. Komil inson tarbiyasida kitobning ahamiyati. Axloq-odob bilan badiiy adabiyot o'rtasidagi mushtaraklik. Adabiyotning odob so'zidan olinganligi. Xalq va mamlakatning ma'naviy-madaniy ravnaqida badiiy adabiyotga muhabbatning muhim ahamiyatga ega ekanligi.

I bob. BOLA – UCHQUR XAYOL EGASI

(12 soat, A2+:8 soat)

2-4-mavzu. G'afur G'ulom. "Shum bola" qissasi. (3 soat, A2+: 5 soat)

G'afur G'ulomning hayoti va ijodi haqida qisqacha annotatsiya.

"Shum bola" qissasida topqir, hozirjavob bola obrazining hajviy talqin etilishi. Hayotiy hodisalarga kulgi nazari bilan qarash, qissada yozuvchining tarjimai holiga doir unsurlarning ifodalanishi va bu holning yozuvchi ijodiy uslubiga xos xususiyat ekanligi. Asar tilidagi xalqchilik, jamiyatning turli tabaqalariga xos jihatlarning mohirona tasvir etilganligi.

5-6-mavzu. Turob To'la. "Do'nan" hikoyasi. ("Yeti zog'ora" qissasidan) (2 soat, A2+: 3 soat)

Turob To'laning hayoti va ijodi to'g'risida ma'lumot.

Adibning "Yeti zog'ora" qissasida bolalik xotiralari bilan bog'liq voqealarning ifodalanganligi. "Do'nan" hikoyasida hikoyachi bola obrazi. Uning Do'nan laqabli otga bo'lgan muhabbati va bu muhabbat tasviri orqali bola ruhiy olamiga xos bokiralik, samimiylik, sadoqat tuyg'ularining tasvir etilganligi. Hikoyaning tarbiyaviy ahamiyati.

7-10-mavzu. X. To'xtaboev. "Sariq devni minib" romani. (4 soat, A2+: 6 soat).

X.To'xtaboevning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot.

Roman qahramoni – Hoshimjon sarguzashtlarining obraz tabiati bilan uyg'unligi. Hoshimjondagi yalqovlik va intizomsizlik qusurlarining qahramon taqdirini nojoiz yo'llarga solib yuborganligi va bu holning ta'sirchan ifodalanishi.

Roman qahramoni tabiatidagi quvnoqlik, topqirlik, hozirjavoblik, qo'nimsizlik singari xislatlarning asar voqealari rivojida o'rni. Qalpoqcha yordamida "ulg'aygan" va turli ixtisoslikni "egallagan" Hoshimjonning har safar chuv tushishi sabablari, qahramon tabiatining yoqimli va noxush jihatlari hamda ular o'rtasidagi aloqadorlik. Asar tilining o'ziga xosligi.

11-13-mavzu. Janni Rodari. "Hurishni eplolmagan kuchukcha". (3 soat A2+:4 soat)

O'tgan asrning eng mashhur adabiy ertakchisi Janni Rodari hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. Uning "Rim ertaklari" asari va "Uchtadan oxiri bor ertaklar" turkumi to'g'risida. Bir ertakning uch turli tugallanishi jahon ertakchiligi

tarixidagi yangilik ekanligi va buning ma'rifiy-didaktik ahamiyati. "Hurishni eplolmagan kuchukcha" ertagining turli tugallanishlarida kuchukchanning turlicha holati tasviri va buning sabablari.

Ertakning uchinchi tugallanishidagi tabiiylik va kuchukning sevinib ketishi sabablari. Ertakning badiiy jihatlari va undan kelib chiqadigan ijtimoiy ma'no. Ertakning to'rtinchi va hokazo tugallanishini o'quvchilarga vazifa qilib berish mumkinligi va uni muhokama qilish.

Nazorat ishi: Insho va uning tahlili. (2 soat, A2+: 3 soat)

Takrorlash: (1 soat)

Nazorat ishi: Test topshiriqlari asosida. (1 soat)

Sinfdan tashqari o'qilgan asarlar muhokamasi: (1 soat, A2+: 2 soat)

O'quvchilar sinfda va mustaqil o'qishlari, yod olishlari lozim bo'lgan asarlar:

G'afur G'ulom. "Shum bola" qissasi.

Turob To'la. "Yetti zog'ora" qissasi.

X.To'xtaboev. "Sariq devni minib" romani.

Janni Rodari. "Hurishni eplolmagan kuchukcha" asari.

II bob. KECHAGI KUN SABOQLARI

(14 soat, A2+:6 soat)

14-15-mavzu. Muqimiy. "Tanobchilar" asari. (2 soat)

Muqimiyning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot.

Muqimiyning "Tanobchilar" hajviyasida foydaxo'r, imonsiz va yolg'onchi kimsalarning tasvir etilishi. Hajv qahramonlari Sulton Ali va Hakimjon o'rtasidagi munosabatlar tufayli tug'iladigan hajviy kulgining kuchi. Muqimiy asarlarining xalqchilligi, soddaligi va ta'sirchanligi.

Hajviya haqida tushuncha.

16-17-mavzu. Abdulla Qahhor. "Bemor". (2 soat)

Adib hayoti va ijodi haqida qisqacha annotatsia.

Hikoyachilikda Abdulla Qahhor badiiy mahoratining namoyon bo'lishi. "Bemor" asarining adib hikoyachiligida tutgan o'rni. Uning badiiy xususiyatlari. Hikoya ohangi. Asardagi Sotiboldi, bemor va qizcha obrazlari.

"Bemor" ilojsizlik, qashshoqlik insonni qanchalar xo'rlashi mumkinligini badiiy ifodalagan asar sifatida. Bemor obrazida mehribon onaga xos xususiyatlarning ta'sirli aks ettirilganligi.

18-19-mavzu. Odil Yoqubov. "Muzqaymoq" hikoyasi. (2 soat)

Adib hayoti va ijodi haqida qisqacha annotatsia.

"Muzqaymoq" hikoyasida yolg'on e'tiqod tufayli bola ruhiyatida ro'y bergan ma'naviy o'zgarishlarning haqqoniy aks ettirilganligi. Noto'g'ri e'tiqod, ko'r-ko'rona siyosiy aqidaparastlik, do'stdan dushman, halol odamdan tuhmatchi yasashi mumkinligining hikoyada ishonarli tasvir etilganligi. Hikoyachi xotirasida chuqur iz qoldirgan bolalik davri fojialarining ko'rsatilishi. Bolaning nog'oralar marshini eshitgandagi holatining mahorat bilan ko'rsatilganligi. Hikoyada odam

tuyg'ularini biryoqlama tushunish va tushuntirish mumkin emasligining aks etganligi.

20-22-mavzu. Erkin Vohidov. "O'zbekim". (3 soat, A2+:5)

E. Vohidov hayoti va ijodi to'g'risida qisqacha ma'lumot.

"O'zbekim" qasidasi ko'p asrlik o'zbek xalqi tarixining o'ziga xos poetik ifodasi va badiiy talqini sifatida. She'rdagi o'zbek millatiga mansublikdan iftixor tuyg'ularining samimiy tasvirlanganligi. Qasidaning milliy o'zlikni anglashdagi, xalq milliy tafakkurining shakllanishidagi ahamiyati.

23-24-mavzu. O'tkir Hoshimov. "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasi. (2 soat, A2+:3)

O'tkir Hoshimovning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot.

Asarda qiyinchilik inson ma'naviyatini sinovdan o'tkazish vositasi ekanining ko'rsatilganligi. Hikoyada urush yillarining haqqoniy tasvirlanganligi. Yo'qchilik bolani onadan, og'ani inidan sovutganligining asarda ta'sirchan ifodalanganligi. Asl odam har qanday sharoitda ham ma'naviy pokligicha qolishi. Hikoyadagi Shoikrom, Shone'mat, Xadicha hamda Umri xola obrazlariga xos xususiyatlarning yorqin aks etganligi.

O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Adabiy-nutqiy kompetensiyalar (tinglab tushunish, fikrni og'zaki bayon qilish, o'qish, fikrni yozma bayon qilish):

A2

o'rganilgan asarlar asosidagi audiomatn va videotasvirlarni ko'rib, tinglab tushuna oladi;

o'rganilgan asarlarni ifodali o'qiy oladi;
ularning mazmun-mohiyatini tushuna oladi;
badiiy asar syujetini qayta hikoya qila oladi;
ular asosida kichik insho yoza oladi.

A2+

barmoq, erkin va aruz vaznidagi she'rlarni ifodali o'qiy oladi;
asarda tasvirlangan insoniy his-tuyg'ular xususida fikr yurita oladi.

Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi:

A2

asarda tasvirlangan voqea-hodisalar, qahramonlarning fazilat va nuqsonlariga munosabat bildira oladi.

A2+

musiqqa yoki rangtasvir asari zamiridagi badiiy jozibani his qila oladi.

Nazorat ishi. Insho va uning tahlili. (2 soat, A2+: 3 soat)

Nazorat ishi: Test topshiriqlari asosida. (1 soat)

Takrorlash: (1 soat)

Sinfidan tashqari o'qilgan asarlar muhokamasi: (1 soat, A2+: 2)

25-26-mavzu. Said Ahmad. "Qoplon", "Sobiq" hikoyalari. (2 soat)

Adibning hayoti va ijodi haqida qisqacha annotatsia.

"Qoplon" hikoyasida laganbardor va manfaatparast kimsa tabiatiga xos illatlarning tasvirlanishi. Qurbonboy va qoplon obrazlarini taqqoslab baholash

zarurligi. “Sobiq” hikoyasida ishlab chiqarishni mafkuraga moslashtirgan sho‘ro tuzumi tartibotining muayyan shaxs taqdirida namoyon bo‘lishi. Hikoyalarning til xususiyatlari, muallif nuqtayi nazarining yashirin ifodalanishi.

27-mavzu. Musa Jalil. “Ishonma” she’ri. (1 soat, A2+: 2)

Musa Jalil hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot.

Shoirning Ikkinchi jahon urushi yillarida asirlikka tushishi va Maobit qamoqxonasida qatl etilishi. “Maobit daftari” she’rlar turkumining yaratilish tarixi. “Ishonma” she’rining g‘oyaviy mazmuni. Asir shoir qalbidagi shubha va gumonlarning she’rda o‘z ifodasini topishi. O‘z Vatanini sevgan inson iroda kuchining she’rda badiiy mujassamlanganligi.

O‘quvchilar sinfda va mustaqil o‘qishlari, yod olishlari lozim bo‘lgan asarlar:

Abdulla Qahhor. Hikoyalar.

Odil Yoqubov. Hikoyalar.

Erkin Vohidov. “O‘zbekim” qasidasi.

O‘tkir Hoshimov. Hikoyalar.

Said Ahmad. Hikoyalar.

Musa Jalil. She’rlar.

III bob. SO‘ZDA HIKMAT BOR

(10 soat, A2+:9 soat)

28-mavzu. Xalq qo‘shiqlari. (1 soat, A2+: 2 soat)

Qo‘shiq xalq og‘zaki ijodining keng tarqalgan janrlaridan biri sifatida. Ularning turlari. Lirik qo‘shiqlarda inson his-tuyg‘ularining ifodalanishi. Mavsum qo‘shiqlarida xalqimiz e’tiqodiy qarashlarining, shuningdek, bolalarning yil fasllariga bo‘lgan munosabatlarining kuylanishi (“Boychechak” va boshqalar).

Nazariy ma’lumot. Xalq qo‘shiqlari.

29-31-mavzu. Alisher Navoiy. Hikoyatlar. (3 soat, A2+: 4 soat)

Navoiy hikmatli so‘zlarining mazmun-mohiyati, umrboqiyliqi.

“Mahbub ul-qulub” - hayotiy hikmatlar majmuasi sifatida. “Saxovat va himmat bobida”, “Hilm zikrida”, “Safar manofii zikrida” qismlaridagi ilm va hunar, yaxshilik, insoniylik, rostgo‘ylik va yolg‘onchilik, sabr va qanoat, mehr, vafu, insoniylik haqidagi hikmatlarning o‘ziga xosliklari. Ularning xalq maqollariga yaqinligi, ulardan farqi. Bu hikmatlarning ma’naviy-axloqiy, ta’limiy, tarbiyaviy va badiiy ahamiyati, hikmatlarda hayotiy hodisalarning qisqa, ixcham, lo‘nda va ta’sirchan ifodalangani. Ulardagi badiiy tasvir vositalari.

32-33-mavzu. Muhammadsharif Gulxaniy. “Zarbulmasal”.(2 soat, A2+: 4 soat)

Gulxaniyning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot.

“Maymun bilan najjor” hikoyati, undagi majoziy obrazlar talqini. Maymun – uquvsizlik timsoli. Uning tasviridagi yumoristik ohang. Hikoyada tabiat tasvirining o‘rni.

“Toshbaqa bilan chayon” hikoyatida ezgulik va yomonlik tasviri. Yomonlik ijtimoiy-ma’naviy illat sifatida. Masalda dialoglarning o‘rni. Masalning badiiy xususiyatlari.

34-35-mavzu. Avaz O‘tar. “Til”, “Fidoyi xalqim”, “Sipohi pora istar”, “Biling, ushbu zamon g‘amnokidurman” she‘rlari. (2 soat)

Avaz O‘tar hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot. Avaz O‘tar adabiyotdagi yangi mavzu va g‘oyalar kuychisi sifatida.

“Til”, “Fidoyi xalqim”, “Sipohi pora istar”, “Biling, ushbu zamon g‘amnokidurman” she‘rlarining mazmun-mohiyati, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari.

36-37-mavzu. Abay. Nasihatlar. (2 soat)

Abay hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot.

Abayning odob-axloqqa doir qarashlari. Ijodkorning ta’lim-tarbiyaga, ilm olishga, to‘g‘rilikka oid nasihatlarining umuminsoniy mazmun-mohiyati. Abay nasihatlarida sharqona odob va axloq masalalarining ifodalanishi. Mazkur nasihatlarning tarbiyaviy ahamiyati.

Haydar Xorazmiy. “Bo‘z to‘quvchi kampir” hikmati. (A2+: 3 soat)

Adib hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot. Hikmatning ma’naviy-axloqiy, ta’limiy, tarbiyaviy ahamiyati. Unda manfaat uchun ikki yuzlamachilik qilishning qoralanishi. Asarda hayotiy voqeaning ta’sirchan ifodalangani. Hikmatning badiiy xususiyati.

Nazorat ishi: Insho va uning tahlili. (2 soat, A2+: 3 soat)

Takrorlash: (1 soat)

Nazorat ishi: Test topshiriqlari asosida. (1 soat)

Sinfdan tashqari o‘qilgan asarlar muhokamasi: (1 soat, A2+: 2 soat)

O‘quvchilar sinfda va mustaqil o‘qishlari, yod olishlari lozim bo‘lgan asarlar:

Xalq qo‘shiqlari;

Alisher Navoiy. Hikmatli so‘zlar.

Gulxaniy. “Zarbulmasal” asari.

Avaz O‘tar. She‘rlar.

Abay. Nasihatlar.

IV bob. RANGIN TUYG‘ULAR

(11 soat, A2+:11 soat)

38-39-mavzu. Zulfiya. “Baxtim bor, ajoyib kishilar aro..”, “Bog‘lar qiyg‘os gulda”, “Bahor keldi, seni so‘roqlab”, “O‘g‘lim, sira bo‘lmaydi urush” she‘rlari. (2 soat, A2+:3 soat)

Shoira hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot.

Zulfiya she‘rlarida yashagan umridan va qilgan mehnatidan iftixor tuyg‘usiga to‘lgan kishi ruhiy olamining ifodalanishi. Shoira she‘rlarida hayotga, yashashga bo‘lgan zavqning turli shakllarda mujassamlanishi. Shoira she‘rlarining badiiy jozibasi.

“O‘g‘lim, sira bo‘lmaydi urush” she‘rida urush keltirgan baxtsizliklar, uning mudhish oqibatlari, yurt tinchligi, xalq farovonligi buyuk ne‘mat ekanligi, uni

qadriga yetish haqidagi lirik qahramon kechinmalarining kuylanishi.

40-43-mavzu. Pirimqul Qodirov. “Yulduzli tunlar” asari. (4 soat A2+:6 soat)

Adib hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot.

“Yulduzli tunlar” asaridan olingan parchada chin insoniy fazilatlarining favqulodda holatlarda namoyon bo'lishi va bu holning mahorat bilan ifodalanishi.

Asarda murakkab davr shiddati va talotumlarining aks etishi. Ezgu insoniy xislatlarning milliy, irqiy va diniy tafovutlardan qat'i nazar har kimning o'ziga bog'liqligi masalasi va bu masalaning asarda ifodalanishi. Asarning badiiy xususiyatlari.

44-46-mavzu. Tog'ay Murod. “Yulduzlar mangu yonadi” qissasi. (3 soat A2+:5 soat)

Yozuvchi hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot.

“Yulduzlar mangu yonadi” qissasida o'zbek xalqiga xos urf-odat, ruhiyat va ma'naviy qadriyatlarining o'ta ta'sirchan, o'ziga xos yo'sinda aks ettirilganligi. Qissa qahramoni Bo'ri polvonga xos mardlik, tantilik, halollik xislatlarining turli vaziyatlarda namoyon bo'lishi.

Asarda o'zbek qishloqlari hayotiga doir holatlarning g'oyat jonli aks etganligi. Ajdodlarga mansub ezgu odatlarning Shukur, Tilovberdi, Temir singari obrazlar tasvirida talqin etilganligi. Qissaning ta'sirchanligi va o'ziga xosligini ta'minlagan omillar. Asarning til xususiyatlari.

47-48-mavzu. Ibroyim Yusupov she'riyati. “Qadrdon so'qmoqlar” she'ri. (2 soat, A2+: 3 soat)

Ibroyim Yusupov hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. Shoirning hozirgi qoraqalpoq she'riyatida tutgan o'rni.

“Qadrdon so'qmoqlar” she'rida kindik qoni to'kilgan qishloqqa bo'lgan mehr-muhabbatning ifodalanishi. Vatanga bo'lgan muhabbatning qadrdon xonadon, qadrdon so'qmoqlarga bo'lgan muhabbatdan boshlanishi. She'rda lirik tuyg'uning mohirona ifodalanganligi.

Nizomiy Ganjaviy. Ruboiylar. (A2+: 3 soat)

Nizomiy Ganjaviy hayoti va ijodi to'g'risida qisqacha ma'lumot. Adib ruboiylarida hayot haqiqatlari, yuksak insoniy fazilatlar talqini. “Umrimizku shom-u xufton orasi”, “Adolat farzandi zafardir, zafar”, “Ne gaplar bor, qaytarishga chidamaydi bet” ruboiylari tahlili.

O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Adabiy-nutqiy kompetensiyalar (tinglab tushunish, fikrni og'zaki bayon qilish, o'qish, fikrni yozma bayon qilish):

A2

o'rganilgan asarlar asosidagi audiomatn va videotasvirlarni ko'rib, tinglab tushuna oladi;

nasriy va she'riy asarni ifodali o'qiy oladi;

ularning mazmun-mohiyatini tushuna oladi;

badiiy asar syujetini qayta hikoya qila oladi;

turli janr va hajmdagi 4-5 ta she'riy matn yoki uning parchasini yoddan ifodali ayta oladi;

asar qahramonlariga tavsif, insho (3-4 sahifa) yoza oladi.

A2+

maktab kutubxonasidan mustaqil foydalana oladi, tanlab mutolaa qilgan asardagi voqea-hodisalar, obrazlar tizimiga munosabat bildiradi.

Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi:

A2

o'rganilgan asarda tasvirlangan voqea-hodisalar, obrazlar tizimini o'zgalarga tushuntirib bera oladi.

A2+

monologik va dialogik nutqlarni ifodali o'qiy oladi;

musiqa yoki rangtasvir asari zamiridagi badiiy jozibani his qila oladi va so'z bilan ifodalab bera oladi.

Nazorat ishi: Insho va uning tahlili. (2 soat, A2+: 3 soat)

Nazorat ishi: Test topshiriqlari asosida. (1 soat)

Takrorlash: (1 soat)

Sinfdan tashqari o'qilgan asarlar muhokamasi: (1 soat A2+:2 soat)

O'quvchilar sinfda va mustaqil o'qishlari, yod olishlari lozim bo'lgan asarlar:

Zulfiya. She'rlar.

Pirimqul Qodirov. "Yulduzli tunlar" asari.

Tog'ay Murod. "Yulduzlar mangu yonadi" qissasi.

Ibroyim Yusupov. She'rlar.

Mavzularni o'rganish uchun – 48 soat (A2+: 74 soat).

Nazorat ishlari uchun – 12 soat (A2+: 16 soat).

Takrorlash uchun – 4 soat.

Sinfdan tashqari o'qilgan asarlar muhokamasi uchun – 4 soat (A2+: 8 soat).

Jami: 68 soat, A2+:102 soat

Ifodali o'qish (Yondosh dastur)

(A2+34 soat)

Mavzu. Kirish suhbat. (1 soat)

Mavzu. Nafasni sozlash mashqlari. (1 soat)

Mavzu. So'z va gap urg'usi (2 soat) Mantiqiy urg'u. Ularning og'zaki nutqdagi o'rni va ahamiyati.

Mavzu. Ifodali o'qish mashqi. (1 soat)

Mavzu. To'xtam (pauza) (2 soat) Uning rang-barang ko'rinishlari, ahamiyati.

Mavzu. Nutqiy ohangdorlik (2 soat). Fikr aniqligini ta'minlashda ma'nodosh so'zlarning o'rni va ahamiyati.

Mavzu. She'riy va nasriy matnlarning o'ziga xosliklari (2 soat). She'riy va nasriy asarlarning o'xshash va farqli jihatlari.

Mavzu. Qofiya va band tushunchasi. Ularni ifodali o‘qishdagi o‘rni va ahamiyati. (2 soat)

Mavzu. She’riy vazn tushunchasi. Barmoq va erkin vaznlardagi she’rlarni ifodali o‘qish. (2 soat)

Takrorlash: (1 soat)

Ifodali o‘qish mashqi: (1 soat)

Mavzu. Aruz vazni va uning o‘ziga xos xususiyatlari. (2 soat)

Mavzu. Aruz vaznidagi she’riy shakllar va janrlardagi asarlarni ifodali o‘qishning o‘ziga xosliklari. (2 soat)

Mavzu. Monologik nutq va uning ko‘rinishlariga oid mashqlar. (2 soat)

Mavzu. Dialogik nutq va uning ko‘rinishlari ustidagi mashqlar. (2 soat)

Mavzu. Dramatik asarlardagi dialoglarni o‘qish bilan bog‘liq o‘ziga xosliklar. (2 soat)

Mavzu. Portret tasviri va uni ifodali o‘qish xususiyatlari. (2 soat)

Mavzu. She’riyatda lirik qahramon. Ifodali o‘qishda lirik qahramon kechinmalarini e’tiborga olish. (2 soat)

Mavzu. Kichik sahna asarlarini rollarga bo‘lib o‘qish. (1 soat)

Takrorlash: (1 soat)

Ifodali o‘qish mashqi: (1 soat)

Mavzularni o‘rganish va amaliy mashg‘ulotlar uchun – 32 soat

Takrorlash uchun – 2 soat

VII SINF ADABIYOT

Xalq ta’limi vazirligining 2017-yil 3-iyundagi
190-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan

(68 soat, haftasiga 2 soat, A2+: 102 soat)

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:

A2

mediamanbalardan zarur ma’lumotlarni izlab topa olish, saralash, saqlash, va ulardan foydalana olish.

A2+

mediamanbalardan zarur ma’lumotlarni izlab topa olish, saralash, saqlash, ulardan foydalana olish, ularning xavfsizligini ta’minlash.

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:

A2

doimiy ravishda o‘z-o‘zini ma’naviy, intellektual rivojlantirish, mustaqil o‘qib-o‘rganish.

A2+

doimiy ravishda o‘z-o‘zini ma’naviy, intellektual rivojlantirish, kamolotga intilish, mustaqil o‘qib-o‘rganish, o‘z xatti-harakatini baholash.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

A2

oila, maktab, mahallada bo'layotgan jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish.

A2+

oila, maktab, mahallada bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'z burchini tushunish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

A2

vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy asarlarni tushunish, orasta kiyinish.

A2+

vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, sog'lom turmush tarziga amal qilish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

A2

aniq reja tuza olish, kundalik faoliyatda turli formula, chizmalarni o'qiy olish.

A2+

kundalik reja tuza olish, turli formula, chizmalarni o'qiy olish.

1-mavzu. Kirish. Badiiy so'z qudrati. (1 soat)

Badiiy adabiyotning so'z san'ati ekanligi. Uning boshqa san'at turlari o'rtasidagi o'rni va ahamiyati. Hayot hodisalarini badiiy obrazlar vositasida tasvirlashning o'ziga xosligi. Badiiy adabiyotning ilmiy adabiyotdan va san'atning boshqa turlaridan farqi. Adabiy tur va janrlar.

I bob. KO'ZIM QAROG'IDASAN, VATAN!

(7 soat, A2+: 2 soat)

2-3-mavzu. Hamza. "Jonlarni jononi vatan", "Dardiga darmon istamas" she'rlari. (2 soat)

Hamza Hakimzoda Niyoziy hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot.

Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti namoyandalari ijodida Vatan mavzuining asosiy o'rinni egallash sabablari.

"Vatan", "Dardiga darmon istamas" she'rlarida chorizm zulmi ostida ezilgan, jaholat botqog'iga botgan Turkiston xalqlari qismatiga qayg'urish. Shoirning xalq og'zaki ijodiga xos timsollar va xalq iboralaridan foydalanishi.

4-5-mavzu. Saida Zunnunova. "Mening Vatanim!", "Yer uzra qo'ndi oqshom", "Qizimga", "Buvilar duoga qo'llarin ochib" she'rlari. (2 soat)

Shoira hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. Saida Zunnunova she'rlaridagi tuyg'ular teranligi va samimiyligi. "Mening Vatanim!" she'rida yurtga muhabbat tuyg'ularining ifoda qilinganligi. "Yer uzra qo'ndi oqshom", "Qizimga" she'rlarida ona mehrining badiiy yo'sinda ifodalanganligi.

Saida Zunnunova she'rlarining badiiy xususiyatlari.

6-7-mavzu. Shuhrat. "Mardlik afsonasi" balladasi. (2 soat)

Shuhrat hayoti va ijodi to'g'risida qisqacha ma'lumot. "Mardlik afsonasi" balladasida o'zbek xalqining eng qadimgi zamonlarda mustaqillik uchun olib borgan kurashining tasvirlanishi. To'maris obrazi. To'maris boshchiligidagi xalq jasoratining ballada janriga xos poetik vositalar orqali tasvirlanishi. "To'maris" hikoyasi bilan "Mardlik afsonasi" balladasi o'rtasidagi yaqinlik va farqli tomonlar. Balladaning tarbiyaviy ahamiyati.

Nazariy ma'lumot. Ballada haqida.

8-mavzu. Rasul Hamzatov. "Ona tilim", "Kenja nevaram Shahrizodga" she'rlari. (1 soat, A2+: 3 soat)

Shoir hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot.

"Ona tilim" she'rida ona tilining millatni, shu millatga mansub har bir shaxsning o'zligini saqlab qoluvchi vosita ekanligining ko'rsatilishi. Tilga muhabbat orqali elga muhabbat paydo bo'lishining ifodalanishi. "Kenja nevaram Shahrizodga" she'rida avlodlar o'rtasidagi vorislik, davomiylik va ma'naviy javobgarlik tuyg'ularining aks etishi.

O'quvchilar sinfda va mustaqil o'qishlari, yod olishlari lozim bo'lgan asarlar:

Hamza she'rlari.

Saida Zunnunova. "Mening Vatanim!" she'ri.

Shuhrat. "Mardlik afsonasi" asari.

Rasul Hamzatov. "Ona tilim" she'ri.

II bob. O'YLARIMNING CHEKSIZ OSMONI

(10 soat, A2+: 9 soat)

9-10-mavzu. Asqad Muxtor. "Yulduzim", "Tug'ilish", "Yo'l", "O'zinniki emas bu umr...", "Bir tup o'rik" she'rlari. (2 soat)

Asqad Muxtorning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot.

Asqad Muxtor she'riyatining o'ziga xos xususiyatlari. "Yulduzim", "Tug'ilish", "Yo'l", "O'zinniki bu umr..." she'rlarida shoir ruhiy olamining ifodalanishi. Bu she'rlarda yashashdan maqsad xalq va jamiyat oldidagi mas'uliyatni his etib yashash va o'zidan yaxshi iz, yaxshi nom qoldirish, degan g'oyaning badiiy mujassamlanishi. Asqad Muxtor she'rlaridagi fikr va tuyg'u uyg'unligidagi o'ziga xoslik. Bu she'rlarning badiiy xususiyatlari.

Nazariy ma'lumot. She'r vaznlari haqida.

11-13-mavzu. Mirmuhsin. "Me'mor" romanidan parcha. (3 soat, A2+: 5 soat)

Mirmuhsin hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. Asarda XV asr voqealarining tasvirlanganligi. Asar qahramonining sidqidildan xizmat qilganligi, muhtasham binolar qurib, hukmdorlar shuhratiga shuhrat qo'shganligi, har qancha qiyinchilikka uchrasa-da, o'z qarashlariga, e'tiqodiga sodiq qolganligi. Me'mor taqdiri orqali iste'dodli kishilar timsolining berilishi. Asardagi Najmiddin Buxoriy timsoli.

Nazariy ma'lumot. Roman va uning turlari.

Nazorat ishi: Insho va uning tahlili. (2 soat A2+: 3 soat)

Nazorat ishi: Test. (1 soat)

Takrorlash: (1 soat)

Sinfdan tashqari o'qilgan asarlar muhokamasi: (1 soat A2+: 2 soat)

14-15-mavzu. O'lmas Umarbekov. "Qiyomat qarz" hikoyasi. (2 soat)

Yozuvchi hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. "Qiyomat qarz" hikoyasida aks ettirilgan inson kechinmalari, iztiroblari tasviri, hikoyadagi insoniy qadriyatlar talqini. Asarda millatga xos samimiylik, soddalik, bag'rikenglik va irodalilikning ifodalanishi. Hikoya qahramonining qarzdorligi, kechinmalari va iztiroblarining haqqoniy tasvirlanganligi. Sarsonboy ota timsoli. Hikoyaning ahamiyati va ifoda tarzi. Hikoya orqali millatga xos halollik, o'zganing haqidan qo'rqish kabi insoniy sifatning ulug'lanishi.

Nazariy ma'lumot. Hikoya haqida.

Mark Tven. "Tom Coyerning yangi sarguzashtlari". (A2+: 3 soat)

Mark Tven hayoti va ijodi to'g'risida qisqacha ma'lumot.

"Tom Coyerning yangi sarguzashtlari" asari avtobiografik asar sifatida. Tom – ta'qiqlarni buzuvchi, yangilikka intiluvchi, xayolparast va tirishqoq bola sifatida tasvirlanganligi. Asarda bolalar dunyosining o'ziga xos tarzda tasvirlangani. Asarning badiiy-estetik xususiyatlari va ma'rifiy, badiiy ahamiyati.

16-18-mavzu. Ch. Aytmatov. "Oq kema" qissasi. (3 soat, A2+: 5 soat)

Adib haqida qisqacha ma'lumot. "Oq kema" qissasida ta'sirchan, beg'ubor va xayolchan bola timsolining tasvirlanishi. Shuningdek, uning qalbiga xos pokiza va ezgu tuyg'ularning bobosi Mo'min chol tabiatida ham namoyon bo'lishi. Go'zal insoniy tuyg'ular sohibining manfaatparastlar davrasida yashashi nechog'lik og'ir ekanligi bola, chol va O'rozqul munosabatlarida aks etishi. Bu holatning bola ruhiyatiga dahshatli ta'siri.

Hayotiy voqelik va bolaning xayolot olami o'rtasidagi shafqatsiz ziddiyatning ko'rsatilishi. Qabohatlar manbai qayerdaligini bilmagan va ularga qarshilik qilishdan ojiz gunohsiz bolaning bu bulg'anch dunyoni tashlab ketishi insonning ma'naviy tanazzuliga qilingan isyon ekanligi.

Ona bug'u obrazi va uning ramziy xususiyati.

Nazariy ma'lumot. Ramziy obrazlar.

O'quvchilar sinfda va mustaqil o'qishlari, yod olishlari lozim bo'lgan asarlar:

Asqad Muxtor. She'rlar.

Mirmuhsin. "Me'mor" romanidan parcha.

O'lmas Umarbekov. "Qiyomat qarz" hikoyasi.

Chingiz Aytmatov. "Oq kema" qissasi.

III bob. O'TMISHDAN SADOLAR

(12 soat, A2+: 10 soat)

19-21-mavzu. "Ravshan" dostoni. (3 soat, A2+: 5 soat)

Ishqiy-sarguzasht dostonlarning o'zbek xalq dostonchiligida katta o'rin

tutishi. Bu xil dostonlarda ishqiy mojarolarning asosiy mavzu ekanligi. “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi ishqiy-sarguzasht dostonlar va mazkur turkumda “Ravshan” asarining tutgan o‘rni.

Doston voqealarining turkiy xalqlar dostonchiligida keng tarqalgan motiv ekanligi. Dostonning bizgacha yetib kelishida Ergash Jumanbulbulning xizmati. Dostondagi Go‘ro‘g‘li, Yunus pari, Avazxon, Ravshan, Zulxumor, aka-ukalar obrazlarining tahlili.

Nazariy ma’lumot. Badiiy obraz va mubolag‘ali tasvir.

22-24-mavzu. Alisher Navoiy. “Mehr va Suhayl”. (3 soat, A2+: 5 soat)

Alisher Navoiyning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot. “Sab’ai sayyor” dostoni haqida. “Sab’ai sayyor” dostonida beshinchi iqlim yo‘lidan kelgan musofirning Mehr va Suhayl haqidagi hikoyasi. Hikoyada sadoqat, mardlik-tantilik kabi insoniy tuyg‘ular ifodasi.

Obrazlar tahlili. Mehr va Suhaylning o‘ziga xos sifatlari.

Nazariy ma’lumot. She’riy san’atlar (Tashbih, tanosub) haqida.

O‘quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Adabiy-nutqiy kompetensiyalar (tinglab tushunish, fikrni og‘zaki bayon qilish, o‘qish, fikrni yozma bayon qilish):

A2

o‘rganilgan asarlar asosida yaratilgan audiomatn va videotasvirlarni tinglab, ko‘rib tushuna oladi;

nasriy va she’riy asarlarni ifodali o‘qiy oladi;

ularning mazmun-mohiyatini tushuna oladi;

asar qahramonlariga tavsif, insho yoza oladi.

A2+

adabiy til me’yorlariga rioya qilgan holda turli mavzularda taassurot, referat va ijodiy matn yoza oladi.

Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi:

A2

xalq og‘zaki ijodi, mumtoz, zamonaviy va jahon adabiyoti namunalarini (nasriy, she’riy, dramatik asar yoki ulardan olingan parchani) farqlaydi, o‘rganilgan asarlarni o‘qituvchi yordamida tahlil qila oladi;

asarda tasvirlangan voqea-hodisalar, qahramonlarning fazilat va nuqsonlariga munosabat bildiradi.

A2+

asar qahramonlari xarakteriga xos bo‘lgan fazilatlar va xislatlarga munosabat bildiradi, baholay oladi, ularni hozirgi kun bilan qiyoslab xulosa chiqara oladi; notiqlik san’atining mazmun-mohiyatini tushunadi va izohlay oladi.

Nazorat ishi: Insho va uning tahlili. (2 soat, A2+: 3 soat)

Nazorat ishi: Test. (1 soat)

Takrorlash: (1 soat)

Sinfdan tashqari o‘qilgan asarlar muhokamasi: (1 soat, A2+: 2 soat)

25-26-mavzu. Uvaysiy. “Mehnatu alamlarga muftalo Uvaysiyman”, “Sog‘indim” g‘azallari, “Anor”, “Yong‘oq”, “Kun va tun” chistonlari. (2 soat)

Shoiraning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. "Mehnatu alamlarga muhtalo Uvaysiyman" g'azalida ijtimoiy hayot hodisalaridan norozilik, ularga nisbatan ko'ngildagi iztirob va kechinmalarning ta'sirli aks ettirilishi. "Sog'indim" g'azalida farzandi yo'liga ko'z tikkan ona tuyg'ularining aks etishi.

Shoiraning "Anor", "Yong'oq", "Kun va tun" chistonlari hamda ularning o'ziga xos badiiy xususiyatlari.

Nazariy ma'lumot: Chiston, qofiya va radif haqida tushuncha.

27-28-mavzu. Zavqiy. "Ajab ermas" g'azali, "Ahli rasta" hajviyasi.

(2 soat)

Shoir haqida qisqacha ma'lumot. "Ajab ermas" g'azalida kelajakka ishonch, yaxshi kunlarga umid tuyg'usining aks etishi. "Ahli rasta" hajviyasida davr odamlaridagi illatli sifatning aks etishi. Asarlarning joziba va ta'sirchanligi.

29-30-mavzu. Maxtumduli. She'rlar. (2 soat)

Maxtumduli hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. Maxtumduli ijodining barcha turkiy xalqlar uchun ham aziz va mo'tabar ekanligi. Shoir she'rlarida ma'naviy-axloqiy mavzularning ustuvorligi.

"Adolat yaxshi" va shu turkumdagi she'rlarning tahlili. She'rlarda umuminsoniy g'oyaning ilgari surilgani. Maxtumduli she'rlariga xos badiiy xususiyatlar. Ularning ma'rifiy-tarbiyaviy hamda badiiy ahamiyati.

"Aytishuv" she'rida dialog shaklining namoyon bo'lishi, personajlarning topqirlik, adolat, inson taqdiri haqidagi qarashlarining o'ziga xos ifodasi.

Shota Rustaveli. "Yo'lbars terisini yopingan pahlavon" dostonidan parcha. (A2+: 4 soat)

Dostonda umumbashariy g'oyalarning yuksak badiiy tarzda ifoda etilgani. Asarda chin insoniylik, sadoqat, mardlik singari insoniy fazilatlarining ulug'lanishi. "Yo'lbars terisini yopingan pahlavon" dostoni – jahon adabiyotining eng go'zal namunalaridan biri sifatida.

O'quvchilar sinfda va mustaqil o'qishlari, yod olishlari lozim bo'lgan asarlar:

"Ravshan" dostoni.

Alisher Navoiy. "Mehr va Suhayl" hikoyasi.

Uvaysiy. G'azal va chistonlar.

Zavqiy. G'azallar.

Maxtumduli. She'rlar.

IV bob. YANGI DAVR NAFASI

(18 soat, A2+: 13 soat)

31-33-mavzu. Abdulla Qodiriy. "Mehrobdan chayon" romani. (3 soat, A2+: 5 soat)

Adib haqida qisqacha ma'lumot. Romanning "Qo'rqinch bir jasorat" bobida mardlik va nomardlik, tantilik va pastkashlik o'rtasidagi to'qnashuvning keskin dramatik vaziyatlarda ko'rsatilishi. Anvar tabiatiga xos mardlik, halollik, tantilikning Xudoyorxon va Abdurahmon xarakteridagi fosiqlik, adolatsizlik, zo'ravonlik kabi xislatlarga qarshi qo'yilishi. Anvar va Ra'no timsollarining o'ziga

xosligi .

Yozuvchining obrazlar tilini individuallashtirish mahorati. Asar yechimining mantiqiy asoslanganligi. Qobilboy, Safar boʻzchi singari timsollarning oʻziga xos jihatlari tasviri. Asarning toʻliq oʻqilishiga erishish.

34-36-mavzu. Choʻlpon. “Binafsha”, “Goʻzal”, “Koʻngil”, “Xalq”, “Buzilgan oʻlkaga” sheʼrlari. (3 soat)

Shoir hayoti va ijodi haqida qisqacha maʼlumot. “Goʻzal” sheʼrida goʻzallik qoshida lol qolgan inson ruhiyati poʻrtanalarining, oy, quyosh, yulduz, shamol obrazlarida oshiq taqdirining taʼsirchan koʻrsatilishi. “Binafsha” sheʼrida binafsha obrazida inson qismatining aks ettirilishi. Mazkur sheʼrlarda ifodalash mushkul boʻlgan nozik hissiyotlarning aniq tasvir etilganligi. Shoir sheʼrlarida lirik qahramon holatiga mos tasvir usuli va vositalarining qoʻllanishi. Choʻlponning soʻz va poetik obrazni yaratish mahorati .

“Xalq” va “Koʻngil” sheʼrlarida Choʻlpon shaxsiyati va dunyoqarashiga xos belgilarning namoyon boʻlishi

Nazariy maʼlumot. Koʻchim.

37-39-mavzu. Abdulla Qahhor. “Oʻgʻri”, “Dahshat” hikoyalari. (3 soat)

Adib haqida qisqacha maʼlumot. “Oʻgʻri” hikoyasida jabrdiyda chol Qobil bobo va oʻzgar baxtsizligini tirikchilik manbaiga aylantirgan amaldorlar obrazi. Adibning tasvirlash mahorati, soʻz qoʻllash sanʼati, inson ruhiyatining yashirin jihatlari ocha bilish isteʼdodi.

“Dahshat” hikoyasida insonni yengish mumkin emasligining kurashchan ayol - Unsin obrazi misolida gʻoyat taʼsirchan koʻrsatilganligi. Hikoyada har bir obraz tabiatining psixologik jihatdan asoslanganligi. Tasvirning hayotiy va taʼsirchanligi.

Mavzu: Hamid Olimjon. “Holbuki tun”, “Gʻazal” sheʼrlari. (A2+: 2 soat)

Shoir haqida maʼlumot. “Holbuki tun” sheʼrida ilohiy goʻzallik tasviri. Shoirning inson qalbi tebranishlarini nozik ilgʻab, aniq ifodalagani.

“Gʻazal”da anʼanaviy sheʼriy shakldan foydalanilgan holda zamonaviy mazmunning ifodalanishi. Sheʼrda oʻxshatish, sifatlash, mubolagʻa singari badiiy tasvir vositalarining ishlatilishi.

Mavzu: Maqsud Shayxzoda. “Yillarning salomin yillarga eltib” sheʼri, toʻrtliklar. (A2+: 2 soat)

Shoir haqida qisqacha maʼlumot. M. Shayxzoda sheʼriyatida hayotga falsafiy qarashning ustuvorligi. Sheʼrda vaqt qadrini, uni chuqur his qilgan kishi tuygʻularining aks etganligi. Asarda shoirning hayotga muhabbati, yashashga chanqoqligi xislatlarining tasvirlanganligi. Sheʼrning taʼsirchanligini taʼminlagan badiiy vositalar.

Toʻrtliklarda insonni avaylash, unga imkon boricha muruvvat koʻrsatish fikrlarining badiiy aks etganligi.

Nazorat ishi: Insho va uning tahlili. (2 soat, A2+: 3 soat)

Nazorat ishi: Test. (1 soat)

Takrorlash: (1 soat)

Sinfdan tashqari oʻqilgan asarlar muhokamasi: (1 soat, A2+: 2 soat).

40-42-mavzu. Mirtemir. “Men tug‘ilgan tuproq”, “Onaginam”, “Toshbu”, “Betobligimda” she’rlari. (3 soat)

Mirtemirning qalamkash do‘stlaridan milliy shoir sifatida farqlanishi. Shoir ijodidagi xalqona ohanglar.

“Onaginam” she’rida uzilmagan farzandlik qarzi tufayli lirik qahramon iztiroblari, qalb tug‘yonlarining aks ettirilishi. Tug‘yonlar ko‘lami va shoirning tasvirlash mahorati. “Toshbu” she’rida o‘zbek ayollariga xos yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarining yorqin va ta’sirchan aks ettirilishi. “Men tug‘ilgan tuproq” she’rida ona yurt obrazining yaratilishi. She’rning samimiyligi va ta’sirchanligini ta’minlaydigan badiiy omillar. Mirtemirning tasvirlash san’ati. Uning she’riyatiga xos soddalik, samimiylilik va rostgo‘ylik.

Nazariy ma’lumot. Tabiat lirikasi haqida.

43-44-mavzu. Xayriddin Saloh. “Yulduzlar afsonasi” asari. (2 soat, A2+: 4 soat)

Xayriddin Salohning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot. “Yulduzlar afsonasi” asarining o‘zbek xalq afsonalari ruhida yaratilganligi. Asarda tilga olingan samoviy jismlarning inson hayoti va xayolot olami bilan bog‘liqligi. Hulkar va Yetti qaroqchi obrazlari. Yerdagi odamlar o‘rtasidagi ziddiyatlar, kurashlar va kelishmovchiliklarning asardagi ramziy tasviri. Asarda tasvirlangan voqealarning aniq va ta’sirchan ifodalanganligi. Asarning badiiy xususiyatlari.

Nazariy ma’lumot. Ballada.

45-48-mavzu. E. S. Tompson. “Yovvoyi yo‘rg‘a” hikoyasi. (4 soat, A2+: 5 soat)

Adib hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot. Uning qalamiga mansub “Yovvoyi yo‘rg‘a” asarining ko‘plab tillarga tarjima etilgani va katta shuhrat qozongani. Asarda erkinlik, hurlik tuyg‘usining ulug‘lanishi. Ozodlikning o‘limdan kuchli ekanligi tasviri.

O‘quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Adabiy-nutqiy kompetensiyalar (tinglab tushunish, fikrni og‘zaki bayon qilish, o‘qish, fikrni yozma bayon qilish):

A2

o‘rganilgan asarlar asosida yaratilgan audiomatn va videotasvirlarni tinglab, ko‘rib, tushuna oladi;

nasriy va she’riy asarlarni ifodali o‘qiy oladi;

ularning mazmun-mohiyatini tushuna oladi;

asar qahramonlariga tavsif, insho (4-5 sahifa) yoza oladi;

turli janr va hajmdagi 5-6 ta she’riy matn yoki uning parchasini yoddan ifodali ayta oladi.

A2+

maktab kutubxonasidan mustaqil foydalana oladi, tanlab mutolaa qilgan asardagi voqea-hodisalar, obrazlar tizimiga munosabat bildiradi.

Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi:

A2

o‘rganilgan asarlarni o‘qituvchi yordamida tahlil qila oladi;

asarda tasvirlangan voqea-hodisalar, qahramonlarning fazilat va nuqsonlariga munosabat bildira oladi.

A2+

xalq ogʻzaki ijodi, mumtoz, zamonaviy va jahon adabiyotiga oid asar va uning qahramonlariga yozma hamda ogʻzaki tavsif bera oladi;

Gʻarb va sharqning mashhur notiqolari, notiqlikning jamiyatdagi oʻrni va ahamiyatini izohlab bera oladi.

Nazorat ishi: Insho va uning tahlili. (2 soat, A2+: 3 soat)

Nazorat ishi: Test. (1 soat)

Takrorlash: (1 soat)

Sinfdan tashqari oʻqilgan asarlar muhokamasi: (1 soat, A2+: 2 soat)

Oʻquvchilar sinfda va mustaqil oʻqishlari, yod olishlari lozim boʻlgan asarlar:

Abdulla Qodiriy. “Mehrobdan chayon” romani.

Choʻlpon. Sheʼrlar.

Abdulla Qahhor. Hikoyalar.

Mirtemir. Sheʼrlar.

Xayriddin Saloh. “Yulduzlar afsonasi” asari.

E. S. Tompson. “Yovvoyi yoʻrgʻa” asari.

Asarlarni oʻrganish uchun – 48 soat (A2+: 74 soat).

Yozma ishlar uchun – 12 soat (A2+: 16 soat).

Takrorlash uchun – 4 soat.

Sinfdan tashqari oʻqilgan asarlar muhokamasi – 4 soat (A2+: 8 soat).

Jami: 68 soat, A2+:102 soat.

“Notiqlik sanʼati” (Yondosh dastur)

(A2+ 34 soat)

Kirish. “Notiqlik sanʼati” xususida umumiy tushuncha. (1 soat)

“Notiqlik sanʼati” fanining maqsad va vazifalari, tarixi, notiqlikning oʻziga xos qirralari. Notiqlik – nutqning oqzaki shakli ekanligi. Oʻzbekistonda nutqqa eʼtiborning kuchayganligi. Oʻzbek tilida fikr-mulohazalarni ravon ifodalashning muhimligi.

Amaliy mashgʻulot. (2 soat)

Ifodali oʻqish mashqi.

Gʻarbdagi notiqlik sanʼati tarixi xususida. (1 soat)

Gʻarbda notiqlik ritorika atamasi bilan nomlanganligi. Notiqlik sanʼatining qadim Yunonistonda shakllanganligi. Bu sanʼatning bevosita davlat ishlari bilan bogʻliq rasmiy doiralarda nutq soʻzlash bilan bogʻliqligi. Mashhur notiqar haqida maʼlumot. Aristotel (384-322), Demosfen (384-322) va Sitseron (103-43) faoliyati.

Amaliy mashgʻulot. (2 soat)

Gʻarbdagi mashhur notiqar fikrlaridan namunalar.

Sharqdagi notiqlik sanʼati tarixiga doir. (2 soat)

Sharq dunyosida, xususan, musulmon olamida notiqlik san'ati bevosita muqaddas kitob - Qur'oni Karimni tilovat qilish, hadisi sharifni tushuntirish bilan bog'liqligi. Sharqda notiqlar voiz – va'z, suxandon, ma'ruza aytuvchi deb yuritilganligi. Balog'at va fasohat xususida. Sharqdagi mashhur voizlar to'g'risida ma'lumot. Husayn Voiz Koshifiy va boshqa mashhur shaxslar faoliyati.

Amaliy mashg'ulot. (2 soat)

Sharqdagi mashhur notiqlar fikrlaridan namunalar.

O'zbek adiblari notiqlik haqida. (2 soat)

Mashhur o'zbek adiblarining notiqlik, nutq madaniyati va odobi to'g'risida aytgan fikrlarining ahamiyati. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor va boshqa ijodkorlar notiqlik haqida.

Amaliy mashg'ulot. (2 soat)

Takrorlash: (1 soat)

Notiq nutqining bezagi. (2 soat)

Nutqni bezaydigan omillar xususida. Frazologik birliklar, maqol, hikmatli so'z va ichki sa'j nutqning ta'sirchanligini oshiradigan asosiy omillar sifatida.

Amaliy mashg'ulot. (2 soat)

Notiqlik san'ati va nutq sifati. (2 soat)

Notiqlik san'atida nutq umuman yaxshi va yomon nutq shaklda farqlanishi. Nutq sifatiga aniqlik, ravonlik, ta'sirchanlik, tozalik, izchillik, mantiqiylik va boshqa sifatlar kirishi. Nutqning puxtaligi.

Amaliy mashg'ulot. (2 soat)

Notiqlik san'atida reja va vaqt me'yori. (2 soat)

Notiqlik san'atida rejaning ahamiyati. Vaqt me'yoriga amal qilish zarurati. Nutq bayonidagi mezon va reglament masalasi. Fikr bayonida tinglovchi ruhiyati. Maxsus nutq va munosabat nutq yuzasidan ma'lumot.

Notiqlik turlari va nutq ko'rinishlari haqida ma'lumot. (2 soat)

Nutqning yozma va og'zaki nutq shakllari borligi. Notiqlik san'atida ijtimoiy-siyosiy notiqlik, ilmiy-pedagogik, maishiy nuqtalarning farqlanishi. Shoir, so'z ustasi, aktyorlarning nutqi masalasi. Ommabop, dialogik va monologik nutqlar xususida.

Amaliy mashg'ulot. (2 soat)

Notiq mahorati. (2 soat)

Notiqlikda iste'dod zarurati va mashqning ahamiyati. Notiqning so'z tanlashi. So'z ustalarining o'z nutqlari ustida qunt bilan rejali ravishda mashqlar bajarishi. Notiqlikda muomala odobi masalasi. Notiqlik san'atida undalmaning o'rni. Notiqlikda obrazga kirish, tabiiylik va ishonchning ahamiyati kattaligi.

Amaliy mashg'ulot. (2 soat)

Takrorlash: (1 soat)

“Notiqlik san'ati” fani yuzasidan xulosalar bayon qilish. Mazkur fanni o'rganish jarayonidagi bilim, ko'nikma va malakalarni takrorlash. O'quvchilardagi notiqlikka bo'lgan qiziqishni rag'batlantirish.

Mavzularni o‘rganish uchun –16 soat
Amaliy mashg‘ulotlar uchun –16 soat
Takrorlash – 2 soat

VIII SINIF

ADABIYOT

Xalq ta’limi vazirligining 2018-yil 29-oktabrdagi
266-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan

O‘quvchilar o‘quv faoliyati natijalariga qo‘yiladigan talablar:

turli adabiy janrlarga oid bahslarda ishtirok etadi;
ezgu g‘oya va insoniy fazilatlar xususida fikr yuritadi;
badiiy adabiyot turlarini ajrata oladi;
asar qahramonlari xarakterini baholaydi;
o‘zbek milliy dramaturgiyasi namunalarini tushunadi;
g‘azallarning o‘quv tahlilini uddalaydi;
turli vaziyatlarda nutq madaniyati qoidalariga rioya qiladi;
adabiy til me’yorlariga rioya qilgan holda turli mavzularda taassurot, referat
va ijodiy matn yozadi:

O‘quvchilar o‘quv faoliyati natijalariga qo‘yiladigan talablar:

(chuqurlashtirilgan sinflar uchun)

g‘azallarning o‘quv tahlilini qila oladi;
she’r va asarlarni mustaqil tahlil qiladi;
asar qahramonlariga tavsif yozadi;

Kirish (1 soat)

Davr, ijodkor va adabiyot. Adabiyotda muayyan millat hayotiga daxldor jihatlarining aks ettirilishi. Muayyan davrga xos xususiyatlarning badiiy asarlarda tasvirlanishi. Adabiyotning ijtimoiy muammolarga hamohangligi va umrboqiyliigi. Badiiy adabiyot adabiy til shakllanishida asosiy vosita sifatida.

I bob. XALQ OG‘ZAKI IJODI

(4 soat)

“Kuntug‘mish” dostoni

“Kuntug‘mish” dostoni syujetining sarguzashtlarga boyligi. Qahramonlar taqdirini belgilovchi hodisalarning maishiy turmushga yaqinligi. Kuntug‘mish obrazi. Unga xos jo‘mardlik, tantilik, jasurlik va ayni vaqtda soddalik sifatleri. Kuntug‘mish tabiatidagi samimiyat va ishonuvchanlik xislatleri. Xolbekada o‘zbek qizlariga xos go‘zallik, o‘ktamlik, erkalik, shaddodlik, mayinlik va mehribonlik sifatlarining namoyon bo‘lishi. Dostondagi Gurkiboy va Mohiboy obrazlarining tasviri. Doston matni ustida ishlash. Dostonning badiiy xususiyatlari.

II bob. O‘ZBEK ADABIYOTI TARIXIDAN

(10 soat)

Lutfiy. “Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma”, “Meni shaydo qiladurg‘on bu ko‘nguldir, bu ko‘ngul”, “Ayoqingg‘a tushar har lahza gisu” g‘azallari va tuyuqlari

Lutfiyning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma‘lumot. Lutfiy merosi va xalq og‘zaki ijodi. G‘azallarining tahlili. Ularning vazni, tasvir vositalari va boshqa badiiy xususiyatlari .

Lutfiy – tuyuq ustasi. “Ko‘ngluma har yonki boqsam dog‘i bor”, “Men sening ilkingdin, ey dil, bandamen”, “Charxi kajraftor elidin yozamen” tuyuqlarida so‘z o‘yinlari. Matn ustida ishlash. So‘z o‘yinlarining yuzaga kelishida tajnisning o‘rni.

Tuyuq haqida nazariy ma‘lumot

Alisher Navoiy. Kichik hajmdagi she‘rlari

Alisher Navoiyning ruboiy, tuyuq va fardlari. Ularda yurt va Vatan sog‘inchi hayot hodisalari, yoshlikning qadri, ota-onaga hurmat va ehtirom kabi fazilatlarning ulug‘lanishi. “Gardun gar manga jafu-u dunluq qildi...”, “Ahhob, yigitlikni g‘animat tutingiz...”, “Atodin xato kelsa ko‘rma xato...”, “G‘urbatda g‘arib shodmon bo‘lmas emish” ruboiylari; “Necha dedim ul sanamg‘a bormag‘in...”, “O‘tkali ul sarvi gul ruxsorida...”, “Tig‘i ishqing yorasidur butmagan...” tuyuqlari, “Yuqar yomonlig‘ angakim...”, “Ulki sanga eldin erur aybgo‘...”, “Men sinuq, ko‘nglum sinuq, sabrim uyi...” fardlari matni ustida ishlash. Tuyuqlarda milliy til imkoniyatlarining yuzaga chiqishi. Fard ixcham hayotiy xulosalar uchun qulay janr.

Nodira. “Doda keldim...”, “Vasl uyin obod qildim...”, “Kel dahrni imtihon etib ket...” g‘azallari

Nodiraning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma‘lumot. Nodira g‘azallarida hijron va ayriliq ohanglari. Ularning badiiy yetukligi, g‘azallarda ayol tuyg‘ularining ifodalanishi. Matn ustida ishlash. “Doda keldim...”, “Vasl uyin obod qildim...”, “Kel dahrni imtihon etib ket...” g‘azallarining tahlili.

Nazariy ma‘lumot: Talmeh, irsoli masal, tajnis

III bob. XX ASR O‘ZBEK ADABIYOTI

(20 soat)

G‘afur G‘ulom. “Sog‘inish”, “Vaqt”, “Bilib qo‘yki, seni Vatan kutadi” she‘rlari

G‘afur G‘ulomning XX asr o‘zbek she‘riyatida tutgan o‘rni. “Sog‘inish” she‘rida otaga xos sog‘inch tuyg‘usining tiniq va jozibali ifodalanishi. Lirik qahramon tabiatida milliy o‘ziga xoslikning bo‘rtib ko‘rinishi. She‘rda yaxshilikka, ezgulikka, ertangi kunga ishonch tuyg‘ularining falsafiy tasvirlanishi. “Vaqt” she‘rida umr falsafasi, hayotning har bir daqiqasini qadrlab va iz qoldirib yashashga da‘vatning yuksak poetik shaklda ifodalanishi. “Bilib qo‘yki, seni Vatan kutadi” she‘rida barkamol yoshlarni Vatan kutayotganligini, ularning Vatani oldidagi mas‘uliyati shoirona mahorat bilan tasvirlanishi. She‘rlar matni ustida ishlash. Shoir she‘rlarida so‘z qo‘llash san‘ati.

Oybek. “Na‘matak”, “O‘zbekiston”she‘rlari

Oybekning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma‘lumot. Oybek she‘riyatining

o'ziga xos xususiyatlari. Lirik qahramon ruhiyatining kashf etilishi va so'z qo'llashdagi mahorat. Shoir lirikasida tabiat, inson va tarix munosabatining ifodalanishi. "Na'matak", "O'zbekiston" she'rlarining g'oyaviy-badiiy tahlili. She'rlar matni ustida ishlash.

Maqsud Shayxzoda. "Jaloliddin Manguberdi" tragediyasi

M. Shayxzodaning o'zbek dramaturgiyasi taraqqiyotida tutgan o'rni.

"Jaloliddin Manguberdi" – o'zbek dramaturgiyasining yetuk namunasi. Asarda mo'g'il istilochilariga qarshi kurashgan xalq qahramoni obrazi va unga xos bo'lgan vatanparvarlik sifatlarining tasviri. Asar qahramoni haqidagi tarixiy haqiqat va badiiy to'qimaning o'zaro munosabati. Matn ustida ishlash. Tragediyadagi falsafiy ruh va til jozibadorligi. Badiiy asar tahlili

Tragediya haqida nazariy ma'lumot

Usmon Nosir. "Yurak", "Nil va Rim", "Yana she'ringa" she'rlari

Usmon Nosirning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. Shoirning adabiy merosi. Shoir she'rlarida tabiat go'zalliklari bilan pokiza qalbli inson tuyg'ulari o'rtasidagi hamohanglik.

"Yurak" she'rining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. She'rdagi tuyg'u va fikr parvozi. She'rning ohangdorligi. "Nil va Rim" she'ri erk madhiyasi ekanligi. She'rda tarixga – ozodlik va mustaqillik uchun olib borilgan asriy kurash sahifalariga murojaat qilib, insoniy erk uchun kurashning abadiyligi va davomiyligi masalasining yuksak ifoda etilgani.

"Yana she'ringa" sonetida lirik qahramonning she'riyatga, ijodga munosabati yorqin aks etganligi. Matn ustida ishlash. She'rda tilga olingan tarixiy va adabiy siymolarning asar badiiyatidagi o'rni.

Said Ahmad. "Ufq" romanidan parcha

Said Ahmadning "Ufq" trilogiyasi haqida ma'lumot. Romanda o'zbek xalqining Ikkinchi jahon urushi davridagi hayoti haqqoniy tasvir etilishi. "Hijron kunlarida" asarining bosh qahramoni Ikromjon – murakkab taqdirli shaxs. Beshafqat urushning asar qahramonlari taqdiridagi izlari. Yozuvchining xarakter yaratishdagi milliy o'ziga xosligi. Asardagi tabiiylik va ruhiy tahlil. Roman tilining jozibadorligi. Matni ustida ishlash. Asarning tarbiyaviy ahamiyati.

Roman shakllari haqida nazariy ma'lumot

Asqad Muxtor. "Chinor" romani

Asqad Muxtorning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. "Chinor" romani adibning ijodidagi yangi bosqich sifatida. Romanning yetakchi qahramonlari va kompozitsion o'ziga xosligi. Matn ustida ishlash. Akbarali qismati haqidagi fasl "Chinor" romanining eng dramatik sahnalaridan biri ekanligi. Asarda insoniy ojizlik, loqaydlik, qo'rqqoqlik, irodasizlik fojiga olib kelishi mumkinligining ishonarli tasvirlab berilgani. Lahzalik qo'rqqoqlik sababli Bektemirning o'limiga sabab bo'lgan Akbaralini vijdon azobi tinimsiz ta'qib etishi va oxir-oqibat halokatga olib kelishi. Bu voqea tasviridagi samimiylik va ta'sirchanlik. Akbarali ruhiy olamining teran tasviri. Matn ustida ishlash. Romanning yuksak tarbiyaviy ahamiyati.

Ozod Sharafiddinov. "O'lsam ayrilmasman quchoqlaringdan" maqolasi

Ozod Sharafiddinovning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. Adibning "O'lsam ayrilmasman quchoqlaringdan" maqolasida ilgari surilgan g'oyalar. Vatan tuyg'usi, Vatan oldidagi farzandlik burchini anglash masalalari O.Sharafiddinov talqinida. Matni ustida ishlash. Maqolaning bugungi yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati.

To'ra Sulaymon. "Iltijo", "Armon", "Tavallo", "Gul bir yon, chaman bir yon" she'rlari

To'ra Sulaymonning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. Shoir she'rlarining xalqchilligi. "Iltijo" she'rida hayotga, tiriklikka bo'lgan muhabbat tasviri. Bahor obrazi tasviridagi tuyg'ular rang-barangligi. "Armon" she'ri shoirning hayotiy qarashlari, e'tiqodlari mujassam bo'lgan asar sifatida. "Tavallo" she'rida onalarga xos bo'lgan fazilatlarining tarannum etilishi. Matni ustida ishlash. "Gul bir yon, chaman bir yon" she'rining ohangdorligi, unda lirik qahramon tuyg'ularining samimiy ifodalanishi.

Shukur Xolmirzayev. Hikoyalar

Shukur Xolmirzayevning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. "O't egasi", "Omon ovchining o'limi" hikoyalarida inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlikning ifodalanishi. Hikoyalarining syujeti, kompozitsion qurilishi va badiiy xususiyatlari. Matn ustida ishlash. Adib hikoyalarida tarixiy davrga xos voqealar bayoni.

Muhammad Yusuf. "Vatanim", "Mehr qolur", "Yurtim, ado bo'lmas armonlaring bor" she'rlari

Muhammad Yusufning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot.

Muhammad Yusuf she'rlarida insondagi yashirin tuyg'ularning samimiy tasvirlanishi. His-tuyg'ularning samimiyligi va haqqoniyligi Muhammad Yusuf she'rlarining yetakchi fazilati sifatida. Shoir she'rlarida inson ko'nglidan kechgan, ifodalash mushkul bo'lgan sezgilarning o'ta tabiiy aks ettirilishi. Matn ustida ishlash. Muhammad Yusuf she'rlarining jozibadorligini ta'minlab turgan samimiylilik, musiqiylik va tasvir.

IV bob. JAHON ADABIYOTI

(7 soat)

Fuzuliy. G'azallar

Fuzuliyning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. Shoirning "Shifoyi vasl qadrin...", "G'amzasin sevding, ko'ngul" g'azallarida ifodalangan yuksak badiiy mahorat, ishq va oshiqlik tasviri. Matn ustida ishlash. Ulardagi chuqur falsafiy fikrlar, teran mushohada va lirik qahramon shaxsiyati talqini.

Robindranat Thakur. "Shubxa" hikoyasi

Robindranat Thakurning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot.

Hikoyada insoniy g'ururdan mahrum etilgan, nafsiga qul kishilar hamda ezgu tuyg'ular sohibi bo'lgan odam o'rtasidagi ziddiyatning ifodalanishi. Matn ustida ishlash. Asarda ezgulik va manfaatparastlik, insoniylik va e'tiqodsizlik to'qnashuvining turli xarakterlar misolida ko'rsatilishi. Matn ustida ishlash. Adibning tasvirlash mahorati.

Sergey Yesenin. “Dog‘lar ketmish majruh ko‘ngildan...”, “Singlim Shuraga”, “Ona ibodati”, “It haqida doston” she‘rlari

Shoir hayoti va ijodi haqida qisqacha ma‘lumot. Yesenin va O‘zbekiston. “Fors taronalari” turkum she‘rlarining yozilishi tarixi.

Sergey Yesenin she‘rlarida Sharq ruhiyatining nozik ilg‘ab olinishi va mahorat bilan aks ettirilishi. She‘rlardagi lirizm va ritm. Matn ustida ishlash. Tilning jozibadorligi va obrazlarning milliy o‘ziga xosligi. She‘rlardagi lirizm va musiqiylikni saqlab qolishda Erkin Vohidovning tarjimonlik mahorati.

“Notiqlik san‘ati” (VIII sinf uchun yondosh dastur)

(A2+: 34 soat)

Kirish. “Notiqlik san‘ati” – hayotiy ehtiyoj. (1 soat)

Notiqlik san‘atining ijtimoiy-ma‘naviy hayotda tutgan o‘rni. Uning muloqot jarayonidagi ahamiyati.

Nutqning ma‘no turlari: tavsif. (2 soat)

Uning narsa-hodisa, predmet, inson va boshqalarning asosiy xususiyatlarini tavsiflab, ularning muhim va nomuhim jihatlarini ko‘rsatib berishga yo‘nalganligi.

Nutqning ma‘no turlari: hikoyalash. (2 soat)

Hikoyalashning tarkibiy qismlari. Bayondagi mantiqiy izchillik, hodisalar orasidagi sababiy bog‘lanishlar mohiyatining ko‘rsatilishi.

Fikrga ishontirish – notiqlik asosi sifatida. (2 soat)

Kitob haqidagi hikmatlar to‘g‘risida (“Axloq gulistoni va odob bo‘stoni”ning 2-bobidan).

Amaliy mashg‘ulot. (2 soat)

Matn bilan ishlash.

Nutqning ma‘no turlari: mushohada. (1 soat)

Uning narsa va hodisalar haqidagi turli nuqtayi nazarlarni ko‘rsatishga yo‘nalgani.

So‘z – nutq material va quroli. (2 soat)

Buyuk notiqlar so‘z haqida.

Amaliy mashg‘ulot. (2 soat)

Matn bilan ishlash.

Notiqlik san‘ati va nutq sifati. (1 soat)

Nutqda ko‘p ma‘noli so‘zlar va omonimlardan foydalanishning ahamiyati.

Amaliy mashg‘ulot. (2 soat)

Matn bilan ishlash.

Nazorat ishi: (2 soat)

“Nutqning ma‘no turlari”

Notiqlik san‘atida reja va vaqt me‘yori. (2 soat)

Rejaning matnini yaxlit hamda alohida qismlarga bo‘lishdagi ahamiyati. Uning tarkibiy qismlari: kirish, asosiy qism, xulosa va boshqalarning o‘ziga xosligi.

Amaliy mashg‘ulot. (2 soat)

Matn bilan ishlash.

Nutq ta'sirchanligi ustida ishlash. (2 soat)

Nutqni ta'sirchan qiladigan vositalar. Bu boradagi asosiy xato va kamchiliklar.

Tahrir nima? (2 soat)

Tahrir zaruriyati. Tahrirda ma'no va mantiqning ustuvorligi. Ortiqcha yoki yetishmaydigan qismlar haqida tushuncha. Ega bilan kesimning, qaratqich va qaralmishning mutanosibligi. Uyushiq bo'laklar.

Amaliy mashg'ulot. (2 soat)

Matn bilan ishlash.

Notiq mahorati. (2 soat)

Notiq va auditoriya. Notiqning tayyorgarlik bosqichlari. Nutq jarayonida notiqning ahloqiy-ma'naviy nuqtayi nazari.

Nazorat ishi. (2 soat)

“Ta'sirchan nutq qanday bo'lishi kerak?”

Xulosa. (1 soat)

Nutq tayyorlash bo'yicha maxsus tavsiyalar. Nutq, notiq va ma'naviyat.

Mavzularni o'rganish uchun – 20 soat**Amaliy mashg'ulotlar uchun – 10 soat****Nazorat ishlari uchun – 4 soat****MAVZUIY REJALASHTIRISH**

t/r	Boblar nomi	Soatlar taqsimoti					
		Jami	Mavzu soat	Nazorat ishi	Takrorlash	Test	Mustaqil o'rganadigan soat
	Kirish	1	1				
1	Xalq og'zaki ijodi	10	4	4	1		1
2	O'zbek adabiyoti tarixidan	17	10	4	1	1	1
3	XX asr o'zbek adabiyoti	26	20	4	1		1
4	Jahon adabiyoti	14	7	4	1	1	1
	Jami	68	42	16	4	2	4

(chuqurlashtirib o'qitishni mavzuiy rejalashtirish)

T/r	BOBLAR NOMI	Soatlar taqsimoti					
		Jami	Mavzu soat	Nazorat ishi	Takrorlash	Test	Mustaqil o'rganadigan soat
	Kirish	1	1				
1	Xalq og'zaki ijodi	15	6	5	2	1	1
2	O'zbek adabiyoti tarixidan	26	15	5	2	2	2
3	XX asr o'zbek adabiyoti	37	28	5	2	1	1
4	Jahon adabiyoti	23	12	5	2	2	2
	Yondash dastur	34					
	Jami	136	62	20	8	6	6

IX SINF

ADABIYOT

Xalq ta'limi vazirligining 2018-yil 29-oktabrdagi
266-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan

O'quvchilar o'quv faoliyati natijalariga qo'yiladigan talablar:

asarlardagi falsafiy qarashlarga munosabat bildiradi;
milliy va jahon madaniyati, adabiyoti xususida fikr yuritadi;
nutq madaniyati va muomala odobiga rioya qiladi;
mumtoz va hozirgi o'zbek adabiyotida mavzu va tarixiy shaxslar obraziga nisbatan o'z fikrini og'zaki va yozma bayon qila oladi;
badiiy adabiyotdagi milliy va umuminsoniy g'oyalarni farqlay oladi;
badiiy adabiyotning o'rganilgan tur va janrlariga oid namunalarni tahlil qila oladi;
adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda turli mavzularda og'zaki va yozma matn yaratadi.

O'quvchilar o'quv faoliyati natijalariga qo'yiladigan talablar:

(chuqurlashtirilgan sinflar uchun)

she'r va asarlar tahlil bo'yicha taqdimot yaratadi;
yozuvchi mahoratiga baho beradi;
o'zbek milliy ruhiyati va urf-odatlarini tasvirini ajratadi;
asarlarni badiiy-estetik tahlil qila oladi.

Kirish. (1 soat)

Badiiy adabiyot – obrazli tafakkur mahsuli. Shaxs kamolotida obrazli tafakkurning o'rnini. Mantiqiy va badiiy tafakkurning o'zaro aloqador hamda farqli jihatlari.

Badiiy adabiyotning tarbiyaviy, estetik, ma'rifiy, kommunikativ vazifalari. Insoniyat tomonidan asrlar davomida shakllantirilgan axloqiy xislatlarni o'quvchilarda tarkib toptirishga intilish badiiy adabiyotning tarbiyaviy vazifasi ekanligi. Insoniylik tuyg'ularini rivojlantirish, tafakkurini taraqqiy ettirish badiiy adabiyotning ma'rifiy vazifasi ekanligi.

I bob. XALQ OG'ZAKI IJODI

(5 soat)

“Alpomish” dostoni

Turkiy xalqlar madaniyati va ma'naviyati shakllanishida “Alpomish” dostonining o'rnini. Doston ko'lamining estetik tafakkur va turkiy davlatchilik bilan bevosita bog'liqligi.

Dostonda o'zbek milliy ruhiyati va urf-odatlarini tasviri. Alpomish, Qorajon, Oybachin, Qaldirg'och obrazlari tavsifi. Doston matni ustida ishlash.

Asarning til xususiyatlari. Dostonda qo'llanilgan tasvir usullari.

II bob. O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI

(20 soat)

Alisher Navoiy. “Farhod va Shirin” dostoni

Navoiy ijodi – o‘zbek mumtoz adabiyotining eng yuksak bosqichi.

“Farhod va Shirin” dostonining “Xamsa”da tutgan o‘rni. Dostonning obrazlar tizimi. Komillik yo‘liga kirgan inson manzillari tasviri. Shirin obrazi. Unda ayollarga xos ma’naviy fazilatlar talqini.

Dostonda yaxshilik va yomonlik, razolat va adolat, butunlik va noqislik o‘rtasidagi ziddiyatning jonli shaxslar timsollarida ko‘rsatilishi. Matni ustida ishlash. Doston qahramonlaridagi ma’naviy xususiyatlarga alohida urg‘u berilgani. Dostonning badiiy xususiyatlari.

Xoja. “Gulzor” asaridan parcha

Xoja hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot. Asarning badiiy xususiyati. “Gulzor” asaridagi hikoyalardan namunalar. Matn ustida ishlash. Asarning tarbiyaviy ahamiyati.

Muhammadrizo Ogahiy. She’rlar

Muhammadrizo Ogahiyning hayoti va faoliyati haqida qisqacha ma’lumot.

Shoir g‘azallarida tabiat manzaralari. Navro‘z, bahor, qish haqidagi she’rlari. “Baland aylab quyoshg‘a poya Navro‘z”, “Qotig‘roq kelmadi hargiz jahong‘a ushbu qishdin qish” g‘azallarida shoir hayotining aks etishi.

“Iloho, har kuning Navro‘z bo‘lsin” g‘azalida yangi yil tilaklari va ularning poetik ifodasi.

Ogahiyning “Mushkin qoshining hay’ati ul chashmi jallod ustina” g‘azallari ishqiy she’rning namunasi sifatida. G‘azallar matni ustida ishlash. Mazkur g‘azallardagi yor timsolida (xususan, unga murojaatda) shohga xos xususiyatlarning aks etishi.

Lirika haqida nazariy ma’lumot

Furqat lirikasi

Furqatning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot.

“Fasli navbahor o‘ldi” g‘azalida bahorning rangin, fusunkor manzarasi tasviri. Bahor va umrning go‘zalligi, g‘animatligi. She’rning badiiyati. “Bormasmiz” she’rida ham insoniy qadrni baland tutishning madh etilishi, ayni paytda, havoyilik va xudbinlikning tanqid qilinishi.

“Surmadin ko‘zlar qaro” g‘azalida go‘zal yor portreti tasviri. G‘azallardagi poetik san’atlar. “Bir qamar siymoni ko‘rdim, baldai Kashmirda” g‘azalida ishqiy mavzuning g‘urbatdagi shoir taqdiri bilan bog‘lab berilishi. Furqat lirikasidagi g‘urbat ohanglarining shoir hayot yo‘li bilan bevosita bog‘liqligi.

“Sayding qo‘yaber, sayyod” musaddasida tutqunlik fojiasidan kuyunish, erksizlikdan qayg‘urish, hurlikka tashnalik tuyg‘ularining ifodalanishi. Sayd, sayyod, lirik qahramon obrazlari. Matn ustida ishlash.

Furqat ijodining o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rni.

G‘azalda badiiy tasvir vositalarining o‘rni haqida nazariya ma’lumot

III bob. O‘ZBEK ADABIYOTI RUHIY TARBIYA VOSITASI

(28 soat)

Imom Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Hadislar

Imom Buxoriy hayoti va ijodi va uning “Al-jome’ as-sahih” («Ishonchli to‘plam») hadis to‘plami haqida ma’lumot. Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom hadislarining inson ma’naviyati yuksalishida tutgan o‘rni. Axloq-odobga oid hadislarining o‘ziga xos xususiyatlari. Ularda ezgu insoniy fazilatlarning ixcham voqeiy hikoyalar asosida ifodalanishi. Hadislarining millatimiz axloqiy qadriyatlarini shakllantirishdagi o‘rni.

Hadislarda mehribonlik, bag‘rikenglik, ma’rifatga chanqoqlik, odillik singari fazilatlarning ahamiyati xususida. Hadislar bilan o‘zbek xalq maqollari va buyuk allomalar hikmatli so‘zlarining mushtarak jihatlarini. Matn ustida ishlash. Hadis haqida tushuncha.

Oybek. “Navoiy” romanidan parcha

Oybekning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot.

Oybekning “Navoiy” romanida adib qarashlarining aks etishi. Matn ustida ishlash. Alisher Navoiy obrazi misolida insonparvarlik g‘oyalarining tarannum etilishi.

Romanda tarixiy voqealarning aks etishi. Romandagi zamon tasviri, undagi qahramonlarning o‘ziga xos tavsifi. Asar matni ustida ishlash. Asarning badiiy ahamiyati.

Odil Yoqubov. “Ulug‘bek xazinasi” romanidan parcha

Odil Yoqubovning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot. “Ulug‘bek xazinasi” romani xususida. Asarda temuriy zoda hukmdor Ulug‘bekning allomalik fazilatlari va insoniy xislatlarining yoritilishi. Asarda shoh va olim Ulug‘bekning fojiasi haqidagi tarixiy haqiqat va badiiy to‘qimaning o‘zaro munosabati. Romandagi zamon tasviri, undagi qahramonlarning o‘ziga xos tavsifi. Asar matni ustida ishlash. Tasvirlangan voqealar va ularda ilgari surilgan ma’naviy jihatlar.

Badiiy adabiyotda ruhiyat tahlili yuzasidan nazariy ma’lumot

Abdulla Oripov. “Sohibqiron” dramasi

Abdulla Oripovning hayoti va ijodi to‘g‘risida qisqacha ma’lumot. Abdulla Oripov – zamonaviy o‘zbek she’riyatining zabardast vakili.

“Sohibqiron”dramasida Amir Temur ruhiy holatining mohirona tasviri. Asar matni ustida ishlash. Sohibqiron va Amir Husayn, Sulton Boyazid, amirlar, o‘g‘illariga munosabatining ishonarli yoritilishi.

Omon Matjon she’rlari

Omon Matjonning hayoti va ijodi to‘g‘risida qisqacha ma’lumot. Shoir she’riyatining asosiy mavzu va yetakchi xususiyatlari.

Shoirning “Vatan mehri”, “Haqqush qichqirig‘i” turkumidagi she’rlari va “Avvalgilarga o‘xshamas”, “Eng so‘nggi xazina” she’rlari talqini. She’r matni ustida ishlash.

Halima Xudoyberdiyeva. She’riyati

Halima Xudoyberdiyevaning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot.

Shoira she’rlarida insonparvarlik, vatanparvarlik, sadoqat tuyg‘ularining ifodalanishi. “Dorilomon kunlar keldi...” she’rida erk, ozodlik g‘oyalarining kuylanishi. “Begim, sizni...” she’rida samimiy sevgi, vafo, sadoqat tuyg‘ularining ishonarli tasvir etilishi. “Shunchaki” she’rida samimiyat va mas’uliyat hisslarining

aks etishi. She'rlar matni ustida ishlash.

Shavkat Rahmon. “Tong ochar ko‘zlarin...”, “Turkiylar”, “Jangda o‘lgan emas biror bahodir”, “Baxt so‘zi” she‘rlari

Shavkat Rahmonning hayoti va ijodi to‘g‘risida qisqacha ma‘lumot. Shoir she‘riyatining yetakchi xususiyatlari. Shoir she‘riyatining asosiy mavzulari. “Tong ochar ko‘zlarin...” she‘ridagi lirik qahramon tabiati. “Turkiylar” she‘rida o‘zlikni tanish, Vatan tuyg‘usi, millat qayg‘usi kabi tushuncha va kechinmalar ifodasi. “Jangda o‘lgan emas biror bahodir”, “Baxt so‘zi” she‘rlarida shoirning o‘ziga xos qarashlarining ifodalanishi. She‘r matni ustida ishlash. Shoir poetik mahorati, she‘rlarining badiiy latofati.

Sharof Boshbekov. “Temir xotin” dramasi

Sharof Boshbekovning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma‘lumot. Dramada aks etgan mustabid davrining ijtimoiy turmush tarzi. Asardagi Qo‘chqor va Qumri obrazlari orqali millatimizga xos fazilat va nuqsonlarning ko‘rsatilishi. Dramada hayotda uchrab turadigan kulguli voqealarning mahorat bilan tasvirlanishi, real turmushning ochib berilishi. Matn ustida ishlash. Asar tilining o‘ziga xosligi.

IV bob. JAHON ADABIYOTI

(12 soat)

Vilyam Shekspir. “Gamlet” tragediyasi

Vilyam Shekspirning hayoti va ijodi to‘g‘risida qisqacha ma‘lumot. “Gamlet” asarida insoniy tuyg‘ular, oila sha‘ni bilan bog‘liq muammolarning tig‘iz konfliktlar asosida badiiy talqin etilishi. Gamlet obrazida aks etgan inson ruhiyatining murakkab jihatlari. Asarda Gamlet, Ofeliya va boshqa qahramonlarning o‘zaro munosabatlari. Matn ustida ishlash. Asarda burch va muhabbat, sadoqat mavzularining tutash tasviri.

Chingiz Aytmatov. “Asrga tatigulik kun” romani

Chingiz Aytmatovning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma‘lumot. Yozuvchining XX asr jahon adabiyoti taraqqiyotida tutgan o‘rni. “Asrga tatigulik kun” asari haqida ma‘lumot.

Asar markazidagi Edigey obrazi, uning mashaqqatli hayot yo‘li, ruhiy olami orqali kechagi kunini unutmagan, bobolar amal qilgan yuksak udumlar asosida yashagan chin insonning ifodalanishi.

Romanda Edigeyning yaqin do‘sti Kazangap vasiyatini ro‘yobga chiqarish yo‘lidagi zahmatlari ifodasining ta‘sirli berilishi. Manqurt haqidagi rivoyatda jamiyatdagi ma‘naviy inqirozlar mohiyatining ochilishi. Matn ustida ishlash. “Asrga tatigulik kun” romanining badiiy xususiyatlari.

O‘ljas Sulaymonov. She‘rlar

O‘ljas Sulaymonovning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma‘lumot. Uning she‘rlaridagi yangicha ohanglar talqini. Shoirning “Arg‘umoq”, “Tungu taqqoslar”, “Mambet botir” she‘rlari. Shoir she‘rlarining badiiy o‘ziga xosligi. Matn ustida ishlash. She‘rlarning ma‘rifiy-estetik ahamiyati.

“Notiqlik san’ati” (9-sinf uchun yondosh dastur)

(A2+: 34 soat)

Kirish. “Notiqlik san’ati” va unga erishish yo‘llari. (1 soat)

Amaliy mashg‘ulot. (2 soat)

Notiq va imo-ishoralar. Imo-ishoralarning ma’no qamrovi, ulardan foydalanish usullari.

Xat (maktub) qanday yoziladi? (2 soat)

Matn bilan ishlash.

Amaliy mashg‘ulot. (2 soat)

Nutqning ma’no turlari: hikoyalash. Shu tipdagi matnlar ustida ishlash.

Fikrga ishontirish – notiqlik asosi sifatida. (2 soat)

Insoniy fazilatlar haqidagi hikmatlar (“Axloq gulistoni va odob bo‘stoni”ning 3-bobidan).

Amaliy mashg‘ulot. (2 soat)

Nutqning ma’no turlari: mushohada. Shu tipdagi nutq namunalari mujassamlashgan matnlar bilan ishlash.

Notiqlik san’ati va nutq sifati. (2 soat)

Sinonim va antonimlardan foydalanish.

Amaliy mashg‘ulot. (2 soat)

Matn bilan ishlash.

Nazorat ishi. (2 soat)

Reja va uning turlari: Sodda va murakkab rejalar ustida ishlash (2 soat)

Amaliy mashg‘ulot. (2 soat)

Nutq ta’sirchanligi ustida ishlash. (2 soat)

Mumtoz va zamonaviy matn namunalari asosida nutqning ifoda imkoniyatlarini o‘rganish.

Amaliy mashg‘ulot. (2 soat)

Tahrir nima? Tahrirda faktik, imloviy, ishoraviy, uslubiy jihatlarni e’tiborga olinishi.

Notiq mahorati. (2 soat)

Matndagi har bir so‘z ustida ishlash. Izohli lug‘at – so‘z boyligini oshirish omili.

Amaliy mashg‘ulot. (2 soat)

Matn bilan ishlash.

Buyuk mutafakkirlar notiqlik haqida. (2 soat)

Buyuk mutafakkirlar qarashlarining mohiyati hamda ahamiyati.

Nazorat ishi. (2 soat)

Xulosa. (1 soat)

Mavzularni o‘rganish uchun –16 soat

Amaliy mashg‘ulotlar uchun – 16 soat

Nazorat ishi uchun – 2 soat

MAVZUIY REJALASHTIRISH

T/r	Boblar nomi	Soatlar taqsimoti					
		Jami	Mavzu soat	Nazorat ishi	Takrorlash	Test	Mustaqil o'rganadigan soat
	Kirish	1	1				
1	Xalq og'zaki ijodi	14	5	6	1	1	1
2	O'zbek adabiyoti tarixi	29	20	6	1	1	1
3	O'zbek adabiyoti ruhiy tarbiya vositasi	37	28	6	1	1	1
4	Jahon adabiyoti	21	12	6	1	1	1
	Jami	102	66	24	4	4	4

(chuqurlashtirib o'qitishni mavzuiy rejalashtirish)

T/r	Boblar nomi	Soatlar taqsimoti					
		Jami	Mavzu soat	Nazorat ishi	Takrorlash	Test	Mustaqil o'rganadigan soat
	Kirish	1	1				
1	Xalq og'zaki ijodi	17	6	6	1	2	2
2	O'zbek adabiyoti tarixi	40	28	6	2	2	2
3	O'zbek adabiyoti ruhiy tarbiya vositasi	46	35	6	1	2	2
4	Jahon adabiyoti	32	20	6	2	2	2
	Yondash dastur	34					
	Jami	170	90	24	6	8	8

X SINIF ADABIYOT

Xalq ta'limi vazirligi va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2017-yil 18-avgutdagi 43/65-QQ-son qarori bilan tasdiqlangan

(51 soat, haftasiga 1,5 soat) (B1+: 68 soat)

**O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:
Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:**

B1

mavjud axborot manbalari (kitob, ommaviy axborot vositalari, internet, lug'at, ma'lumotnomalar, (audio-video yozuv), kompyuter, elektron pochta va boshq.) dan o'quv maqsadlari doirasida foydalana olish va ulardagi materiallarga ongli munosabat bildirish, xulosa chiqarish, ibrat olish va o'z faoliyatida qo'llash;

B1+

media vositalardan adabiy ta'limga oid zarur axborotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, uzatish, saqlash, xavfsizligini ta'minlash va foydalanishda media-madaniyatga rioya qilish.

O‘zini - o‘zi rivojlantirish kompetentsiyasi:

B1

shaxs sifatida ma’naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilishni hayotiy-ma’naviy ehtiyojga aylantirish;

badiiy asarlarda tasvirlangan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni e’zozlash va ularga amal qilish;

og‘zaki va yozma matnlar mazmuniga to‘g‘ri baho bera bilish.

B1+

o‘z xatti-harakati, fikr-mulohazalariga tanqidiy yondasha olish, og‘zaki va yozma matnlar mazmuniga to‘g‘ri baho bera bilish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasi:

B1

jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish; tadbirlarda (turli mavzudagi ko‘rik-tanlovlar, musobaqalar va h.k.) faol ishtirok etish, atrofdagi insonlar bilan xushmuomalada bo‘lish;

B1+

badiiy asarlarda xilma-xil shakl va ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladigan qahramon va personajlar tasviridagi fazilat (halollik, vijdonlilik, jonkuyarlik...) va nuqson (yolg‘onchilik, ikkiyuzlamachilik, loqaydlik, dangasalik, qo‘rqoqlik...)larni munosib baholay olish.

Milliy va umummadaniy kompetentsiyalar:

B1

badiiy adabiyotda aks etgan umuminsoniy va milliy qadriyatlar tasviridagi o‘ziga xosliklarni anglash, ulardan ta’sirlanish, ulardagi go‘zallik va ezgulikdan o‘rnak olishga intilish, yovuzlikdan nafratlana bilish;

B1+

badiiy asar va ulardan olingan parchalarda aks etgan voqea-hodisa va tuyg‘ular mohiyatini to‘g‘ri tushunish, ulardagi estetik jihatlarni ilg‘ash.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetentsiyasi:

B1

shaxsiy, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarda hisob-kitob bilan ish yuritish; kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni o‘qiy olish va foydalanish.

B1+

inson mehnatini yengillashtiradigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish.

1-mavzu. Kirish. Adabiyot – ma’naviyatni yuksaltirish vositasi (1 soat)

Badiiy adabiyot inson kamolotida asosiy vosita ekanligi. Insonning eng yaxshi fazilatlar sohibi, mustaqil, erkin shaxs sifatida shakllanishida, o‘z-o‘zini tarbiyalashida adabiyotning ahamiyati.

I bob. XALQ OG‘ZAKI IJODI

(3 soat, B1+: 2)

2-4-mavzu. “Rustamxon” dostoni (3 soat, B1+: 2)

“Rustamxon” ishqiy-qahramonlik dostonlarining eng yaxshi namunalaridan biri ekanligi. Dostonda millatga xos urf-odatlar va insoniy fazilatlarning ulugʻlanishi.

Rustamxon timsoli, unga xos mardlik, jasurlik, irodalilik.

Huroyim va Oftoboy timsollarida oʻzbek ayollariga xos oqilalik, bardoshlilik. Asarda ifodalangan milliy qadriyatlar va inson ruhiyati tasviri.

Nazariy maʼlumot: Doston va uning turlari haqida.

II bob. ADABIYOT TARIXI

(16 soat, B1+: 10 soat)

5-6-mavzu. Oʻrxun-Enasoy obidalari (2 soat, B1+: 1 soat)

Qadimgi turkiy xalqlar va turkiy adabiyot tushunchasi. Eng qadimgi badiiy tafakkur yodgorliklari. Turkiy xalqlar ogʻzaki ijodi.

Obidalarining adabiy-badiiy qimmati. Tunyuquq, Kultegin bitiklarida erk va ozodlik tarannumi. Ularda qahramonlik, ona-yurt daxlsizligi va xalq mustaqilligi gʻoyalarining ifodalanishi.

Tunyuquq timsoli. Qahramonga xos jasurlik, yovqurlik, el, mamlakatni birlashtirish uchun fidoiylik, tinib-tinchimaslik kabi fazilatlarning mahorat bilan tasvirlanganligi.

7-8-mavzu. Ahmad Yassaviy. “Devoni hikmat” asari (2 soat, B1+: 2 soat)

Ahmad Yassaviyning hayoti va ijodi. Ahmad Yassaviy – tasavvuf adabiyotining yirik vakili. “Devoni hikmat”–adabiyot tarixidagi alohida janr sifatida.

“Devoni hikmat”ning obrazlar tizimi. Hikmatlarning xalq ogʻzaki ijodi bilan aloqasi va toʻrtlik shaklida ifodalanishi. Ularda axloqiy-taʼlimiy yoʻnalishning ustivorligi. Adibning badiiy mahorati.

Nazorat ishi. Insho va uning tahlili (2 soat)

Mustaqil oʻqilgan asarlar muhokamasi (1 soat, B1+: 1 soat)

Takrorlash (B1+: 1 soat)

9-10-mavzu. Atoyi (2 soat)

Atoyining hayoti va ijodi haqida maʼlumot. Navoiyning Atoyi haqidagi fikrlari. Atoyi lirikasining janr xususiyatlari. Atoyi – gʻazal ustasi. Shoir gʻazallarida xalqona ohanglarning ustuvorligi.

“Ul sanamkim...”, “Ey doʻst”, “Jamoling vasfini...”, gʻazallarining tahlili. Gʻazallarning tuzilishi, badiiy xususiyatlari va ularda qoʻllangan sheʼriy sanʼatlar.

11-14-mavzu. Alisher Navoiy lirikasi (4 soat, B1+: 3 soat)

Alisher Navoiyning hayoti va ijodi. Navoiy haqida zamondoshlarining fikri. Navoiy – davlat arbobi.

Navoiy lirikasi. “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti.

Mehr koʻp koʻrguzdum ammo..., “Koʻzung ne balo qaro boʻlubtur...”, “Meni men istagan oʻz suhbatiga arjumand etmas”, “Ey sabo” gʻazallari. Sheʼriy sanʼatlar va ularning mohirona qoʻllanishi.

Navoiy gʻazallari, ruboiylari va qithalari tahlili.

15-18-mavzu. Zahiriddin Muhammad Bobur. “Boburnoma” (4 soat, B1+:3 soat)

Bobur – buyuk nosir. “Boburnoma” – o‘zbek mumtoz nasrining nodir namunasi, uning tarix, tabiatshunoslik, jug‘rofiya, elatshunoslik, adabiyot va san‘at tarixiga oid nodir manba ekanligi. “Boburnoma” – memuar asar. “Boburnoma”ning ilmiy-ma‘rifiy hamda badiiy qiymati. Badiiy adabiyotda Bobur obrazi.

Nazorat ishi. Insho va uning tahlili (2 soat).

Mustaqil o‘qilgan asarlar muhokamasi (1 soat, B1+: 1 soat)

Takrorlash (B1+: 1 soat)

19-20-mavzu. Turdi Farog‘iy lirikasi (2 soat, B1+:1 soat).

Turdi Farog‘iyning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma‘lumot. Turdining zullisonayn shoir ekanligi. Shoirning o‘z zamonidagi ijtimoiy hayotdagi illatlarni tanqid qilishdagi ma‘naviy jasorati. “Tor ko‘ngulluk beklar...”, “Turdiman” g‘azallari hamda muxammasining tahlili. Shoir she‘riyatidagi badiiy ta‘sirchanlikni ta‘minlovchi omillar. Turdi o‘zbek tilining ichki imkoniyatlarini ko‘rsatib bergan mohir ijodkor sifatida.

III bob. XX ASR O‘ZBEK ADABIYOTI

(15 soat, B1+:12)

21-22-mavzu. Mahmudxo‘ja Behbudiy. “Padarkush” dramasi (2 soat, B1+:2)

Behbudiyning hayoti va ijodiy faoliyati. Behbudiy o‘zbek jadidchilik harakatining asoschisi. Behbudiy – mahrifatparvar va noshir. Uning milliy teatr san‘atini barpo etish borasidagi sa‘y-harakatlari. “Padarkush” – ilk o‘zbek realistik dramasi. Asarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari va ma‘rifiy ahamiyati.

23-26-mavzu. Abdulla Qodiriy. “O‘tkan kunlar” romani (4 soat, B1+:2)

Adib hayoti va ijodi haqida ma‘lumot.

Abdulla Qodiriy – o‘zbek realistik romanchiligining asoschisi. Uning o‘zbek tarixiy romanlarini yaratish bobidagi faoliyati.

“O‘tkan kunlar” romanining bosh g‘oyasi, syujet va kompozitsiyasi, obrazlar tizimi, asarning badiiy qimmatini va o‘zbek badiiy nasri rivojida tutgan o‘rni.

Abdulla Qodiriy ijodining tarixiy, badiiy ahamiyati.

Abdulla Qahhor hikoyalari (B1+2 soat)

Adibning hayoti va ijod yo‘li haqida ma‘lumot.

Abdulla Qahhor – o‘zbek hikoyachiligining benazir ustasi. Hikoyalarda ijtimoiy hayotdagi jirkanch illatlarning hajv ostiga olinishi va shu orqali sog‘lom insoniy axloq va yuksak ma‘naviy qadriyatlarining ulug‘lanishi. “Adabiyot muallimi”, “San‘atkor” hikoyalarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari.

Abdulla Qahhorning XX asr o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rni.

27-28-mavzu. Hamid Olimjon she‘riyati (2 soat, B1+:2)

Shoir hayoti va ijodi. Hamid Olimjon – jo‘shqin lirik shoir. Uning she‘rlaridagi badiiy o‘ziga xoslik: xalq she‘riyatiga xos o‘ynoqlik va oddiylik. Shoir lirikasida baxt va shodlikning kuylanishi. “O‘rik gullaganda”, “Chimyon

esdaliklari”, “Gʻazal” sheʻrlarining badiiy tahlili. “Gʻazal” asarida mumtoz gʻazalchilik anʻanalarining ifodasi.

Hamid Olimjonning XX asr oʻzbek adabiyoti tarixida tutgan oʻrni.

29-30-mavzu. Said Ahmad. “Qorakoʻz majnun” hikoyasi (2 soat)

Said Ahmadning oʻzbek adabiyotida tutgan oʻrni. “Qorakoʻz majnun” hikoyasidagi Saodat obrazining oʻziga xos milliy tasviri. Ona va bola oʻrtasidagi eʻtiqodiy munosabatning teran badiiy talqini. Hikoyadagi it obraziga yuklangan gʻoyaviy mazmun. Hikoyaning tarbiyaviy qiymati.

Nazorat ishi. Insho va uning tahlili (2 soat)

Mustaqil oʻqilgan asarlar muhokamasi (1 soat, B1+: 1 soat)

Takrorlash (B1+: 1 soat)

31-33-mavzu. Abdulla Oripov sheʻriyati (3 soat, B1+:2)

Shoir hayoti va ijodi haqida maʼlumot. Shoir ijodiga xos yetakchi xususiyatlar: haqqoniylik, samimiylik, dardlilik, falsafiylik, ifodaning aniqligi, poetik tilning jozibadorligi. Uning XX asr oʻzbek sheʻriyatiga yangicha ohang, ruh va falsafiy salmoqdorlik kabi xislatlarni olib kirganligi. Shoirning “Munojotni tinglab”, “Yurtim shamoli”, “Birinchi muhabbatim”, “Qoʻriqxona”, “Temir odam” kabi sheʻrlarida inson ruhiyatining rangli tovlanishlari, inson va zamon munosabatlaridagi murakkab muammolarning liro-falsafiy talqin etilishi.

34-35-mavzu. Oʻtkir Hoshimov “Ikki eshik orasi” (2 soat, B1+:2)

Adib hayoti va ijodi. “Mashaqqatli safar”da adib biografiyasiga oid maʼlumotlar.

“Ikki eshik orasi” romanida urush va uning fojialari, urush odamlarining qismati muammosi. Asarning ifoda uslubi, tili va kompozitsiyasi.

IV bob. JAHON ADABIYOTI

(4 soat, B1+:2)

36-37-mavzu. Jek London “Hayotga muhabbat” hikoyasi (2 soat, B1+:2 soat)

Jek London XX asr Amerika adabiyotining yirik namoyandasi.

Yozuvchi asarlarida chuqur badiiy tahlillar orqali betakror obrazlarning yaratilganligi. “Hayotga muhabbat” hikoyasi inson irodasi va ishonchiga bagʻishlangan asar ekanligi.

38-39-mavzu. Alfons Dode. “Soʻnggi saboq” hikoyasi (2 soat)

Alfons Dodening hayoti va ijodi. “Soʻnggi saboq” hikoyasida fransuz tiliga munosabatning ifodalanishi. Ona tili muallimining ruhiy holati. Hikoyada oʻz ona tilida erkin taʼlim olish yuksak qadriyat ekaniga urgʻu berilishi.

Oʻquvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

1. Adabiy-nutqiy kompetensiyalar (*tinglab tushunish, fikrni ogʻzaki bayon qilish, oʻqish, fikrni yozma bayon qilish*):

B1

xalq ogʻzaki ijodi, mumtoz va zamonaviy adabiy manbalarga mos videotasvirlarni, elektron dars ishlanmalar, slayd-taqdimotlarni koʻrib, eshitib, taʼlim beruvchining maʼruzasini tinglab tushuna oladi;

tavsiya etilgan adabiy manbalar (nasriy, she'riy dramatik asarlar va ulardan parchalar) mazmunini idrok etgan holda ifodali o'qiy oladi;

tavsiya etilgan adabiy matnlarning syujetini qayta hikoyalay oladi;

asardagi qahramonlarning o'ziga xos sifatleri va ularga bo'lgan munosabatini tushuntira oladi;

adabiy til me'yor lariga rioya qilgan holda to'g'ri va tushunarli so'zlay oladi, o'z fikrini boshqalarga yetkaza oladi;

xalq maqollari, matallari, ibora, hikmatli so'zlardan og'zaki va yozma nutqda o'rinli foydalana oladi;

taqdim etilgan asar qahramonlariga yozma va og'zaki tarzda tavsif bera oladi;

manbalar asosida turli mavzularda insho va ijodiy matnlar (5-8 sahifa) yoza oladi;

turli janr va hajmdagi 12-14 ta ta she'riy matn yoki uning parchasini yoddan ifodali ayta oladi.

B1+

musiqa yoki rangtasvir asari zamiridagi badiiy jozibani his qila oladi va so'z bilan ifodalab bera oladi;

turli janr va hajmdagi 14 - 16 ta ta she'riy matn yoki uning parchasini yoddan ifodali ayta oladi.

2. Badiiy asarni tahlil qilish kompetentsiyasi

B1

adabiy tur va janrlarning asosiy belgilarini ayta oladi;

tavsiya etilgan nasriy, she'riy asar yoki ulardan olingan parchani tahlil qila oladi;

matnda tasvirlangan voqea-hodisalar, obrazlarni tasniflay oladi; qahramonlar haqida shaxsiy mulohazasini bildira oladi;

o'quv tahlili jarayonida muayyan shaxslik fazilatlari va xislatlarini tanib boradi, shu tanish tajriba orqali hayotida uchragan turli vaziyatlarga javob topa oladi;

tavsiya etilgan asarlarda uchraydigan notanish so'zlar lug'atini tuza oladi, so'zning ma'nolarini mavjud lug'atlardan aniqlay oladi;

adabiy til me'yor lariga rioya qilgan holda turli mavzularda og'zaki va yozma fikr yurita oladi, unda xalq maqollari va iboralardan o'rinli foydalana oladi.

B1+

O'zbek mumtoz adabiyoti namunalarining janr xususiyatlarini, she'riy san'at turlarini ajrata oladi.

Nazorat ishi. Insho va uning tahlili (2 soat)

Mustaqil o'qilgan asarlar muhokamasi (1 soat, B1+: 1 soat)

Takrorlash (B1+: 1 soat)

O'quvchilar sinfda va mustaqil o'qishlari, yod olishlari lozim bo'lgan asarlar:

“Rustamxon” dostoni.

Ahmad Yassaviyning “Ayo do'stlar, nodon birla ulfat bo'lib” hikmati.

Atoyining “Ul sanamkim...” g'azali.

Alisher Navoiyning “Topmadim” g‘azali.
Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari.
Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar romani.
Hamid Olimjonning “O‘rik gullaganda” yoki “G‘azal” she‘ri.
Said Ahmad. Hikoyalari
Abdulla Oripovning “Yurtim shamoli” yoki “Munojot”ni tinglab” she‘ri.
O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romani.
Jek Londonning “Martin Iden” romani.
Mavzularni o‘rganish uchun – 39 soat (B1+: 65 soat)
Yozma ishlar uchun – 8 soat
Mustaqil o‘qilgan asarlar muhokamasi (4 soat) (B1+: 8 soat)
Takrorlash (B1+: 4 soat)
Jami: 51 soat, (B1+: 85 soat)

XI SINIF ADABIYOT

Xalq ta’limi vazirligining 2018-yil 28-avgustdagi
216-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan

O‘quvchilar o‘quv faoliyati natijalariga qo‘yiladigan talablar:

qadimgi turkiy, mumtoz, mustaqillik adabiyotini farqlaydi;
asarda tasvirlangan insoniy his-tuyg‘ular xususida fikr yurita oladi;
asarining til xususiyatlarini tahlil qiladi, munosabat bildiradi;
turli janr va hajmdagi 6-8 ta she‘riy matn yoki uning parchasini yoddan ifodali ayta oladi;

adabiy, adabiy-ijodiy va erkin mavzulardagi insholarga xos xususiyatlarni biladi va tegishli yo‘nalishda insho (3, 4-bet) yoza oladi;

adabiy til me‘yorlariga rioya qilgan holda turli mavzularda taassurot, referat va ijodiy matn yoza oladi, unda xalq maqollari, matallari, hikmatli so‘z, badiiy asarlardan o‘rinli foydalana oladi;

turli janrdagi adabiyotlarni mustaqil tanlab, mutolaa qiladi, undagi voqea-hodisalar, obrazlar tizimiga munosabat bildira oladi;

o‘qilgan asar bo‘yicha obrazlarga tavsif beradi, mustaqil insho, taqriz yozadi.

KIRISH

Adabiyot – ma’naviyatni yuksaltirish vositasi Badiiy adabiyot inson ma’naviyatini yuksaltirish vositachi ekanligi. Insonning shaxs sifatida shakllanishida, o‘z-o‘zini tarbiyalashida adabiyotning ahamiyati. Shaxsning shakllanishida kitob mutolaasining o‘rni.

I bob. XALQ OG‘ZAKI IJODI (4 soat, B1+: 6 soat)

“Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni sujetining o‘ziga xosligi. Dostondagi asosiy qahramonlar tavsifi. Dostonning

badiiy xususiyatlari. Dostonning badiiy-estetik hamda tarbiyaviy ahamiyati.

II bob. QADIMGI TURKIY ADABIYOT

(7 soat, B1+: 9 soat)

Mahmud Qoshg‘ariy. “Devonu lug‘otit-turk” asari Mahmud Qoshg‘ariyning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma‘lumot.

“Devonu lug‘otit-turk” – izohli lug‘at va qomusiy asar sifatida. Unda badiiy durdonalarning o‘ziga xos tarzda ifoda etilgani. Mehnat va marosim qo‘shiqlari. “Alp Er To‘nga” marsiyasi. “Devon”dagi maqollar xalq donoligining ifodasi sifatida.

Yusuf Xos Hojib. “Qutadg‘u bilig” asari. Yusuf Xos Hojibning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma‘lumot. Yusuf Xos Hojibning didaktik dostonchilikning asoschisi ekanligi. Doston matni ustida ishlash. Undagi to‘rt timsol tavsifi. Asarning badiiy va tarbiyaviy ahamiyati.

III bob. O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI

(14 soat, B1+: 20 soat)

Nosiriddin Rabg‘uziy. “Qisasi Rabg‘uziy” asari. “Qisasi Rabg‘uziy”da avtobiografik ma‘lumotlar. “Qisasi Rabg‘uziy” – o‘zbek nasrining ilk yirik yodgorligi. Asarda nasr va nazm uyg‘unligi. Uning payg‘ambarlar haqidagi qissalardan iborat ekanligi. Asarga xalq og‘zaki ijodining ta‘siri. Asarning mavzu qamrovi.

Hikoyatlar matni ustida ishlash. “Uzum hikoyasi”, “Sulaymonning qarinchg‘a bila so‘rashgani”, “Ilon va Qarlug‘och” hikoyatlari tahlili.

Alisher Navoiy. “Saddi Iskandariy” dostoni. Alisher Navoiyning hayoti va ijodi. “Saddi Iskandariy”dan olingan matn ustida ishlash. Dostonda yoshlik va qarilik haqidagi qarashlarining badiiy tahlili. Dostonning poetik xususiyatlari. Dostonning ma‘rifiy va adabiy ahamiyati.

Zahiriddin Muhammad Bobur lirikasi. Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va ijodi haqida ma‘lumot. Bobur haqida zamondoshlari va undan keyingi buyuk shaxslar e‘tirofi.

Bobur devonlari, ulardagi adabiy janrlar. “Jonimdin o‘zga yori vafodor topmadim”, “Yaxshilig”, “Sochining savdosi tushti...”, “Xazon yaprog‘i yanglig‘ gul yuzung hajrida sorg‘ordim”, “Lola” g‘azallari matni ustida ishlash.

Bobur she‘riyatida badiiy san‘atlar.

Tajnis, talmeh va tanosib she‘riy san‘atlari haqida nazariy ma‘lumot
Mashrab hayoti va ijodi. Mashrab lirikasi. Mashrab hayoti va ijodi. Mashrab lirikasi. Mashrab she‘riyatidagi tasavvufiy ohanglar. “Ishqing o‘tig‘a kuygoni keldim”, “Bu tani xokingni-yu ruhi ravonni na qilay”, “O‘rtar” g‘azallari va “Dastingdan” musaddasi o‘zbek tasavvufiy she‘riyatining yorqin namunasi sifatida.

Mashrab ijodining keyingi ijodkorlarga ta‘siri.

Anbar Otin. “Risolayi falsafayi siyohon” (“Qarolar falsafasi”) Shoiraning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma‘lumot. Asar matni ustida ishlash. Asarning

mazmuni va mohiyati. Unda ijtimoiy muammolarning ifodasi. Asarda o‘zbek ayolining ijtimoiy mavqei haqidagi badiiy estetik kuzatishlar. Anbar Otinning poetik mahorati.

IV bob. YANGI O‘ZBEK ADABIYOTI (10 soat, B1+: 16 soat)

Abdurauf Fitrat. “Abulfayzxon” dramasi. Abdurauf Fitratning hayoti va ijodiy faoliyati. Abdurauf Fitrat – ma’rifatparvar. Uning milliy teatr san’ati rivoji yo‘lidagi sa’y-harakatlari. “Abulfayzxon”– ilk o‘zbek realistik dramasi. Dramadagi asosiy qahramonlar talqini. Asarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari va ma’rifiy ahamiyati.

Cho‘lpon. “Kecha va kunduz” romani. Shoir hayoti va ijodi. Cho‘lpon – yetuk nosir. Uning “Kecha va kunduz” romanida Zebi ishtirokidagi voqealar tasviri va rivoji. Asardagi Mingboshi, Razzoq so‘fi, Qurvonbibi va boshqa qahramonlar talqini. “Kecha va kunduz” romanining kecha, bugun va erta haqida, inson umrining mazmuni to‘g‘risida fikrlashga undashi. Cho‘lpon ijodining XX asr o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rni.

Badiiy asar tahlili (amaliy)

Erkin Vohidov. “Ruhlar isyoni” dostoni. Shoir hayoti va ijodi haqida ma’lumot. Uning she’riyatiga xos kechinmalar nozikligi va ifoda go‘zalligi, mumtoz she’riyatga xos ilg‘or an’analarining she’riyat an’analari bilan uyg‘unligi.

Erkin Vohidov – dostonnavis “Ruhlar isyoni” dostonida ijodkor va millat ozodligi muammosining badiiy-falsafiy talqini. Asarning shoir ijodiy qiyofasini belgilashdagi o‘rni.

Rauf Parfi she’riyati. Rauf Parfining hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot. Shoir she’riyatining o‘ziga xos jihatlari, ularda inson ruhiy kechinmalarining kuylanishi.

Shoirning “Tong otmoqda”, “Yomg‘ir yog‘ar”, “Yoz kechasi”, “Yana qaytib keldim”, “Yurak” she‘rlari talqini. She‘rlardagi lirik qahramon his-tuyg‘ularining ta’sirchan ifodasi. Tabiat go‘zalliklarini tasvirlashda shoirning o‘ziga xos mahorati.

V bob. MUSTAQILLIK DAVRI ADABIYOTI (9 soat, B1+: 15 soat)

XX asr o‘zbek adabiyotining xalqimizga xos qadimiy adabiy meros, boy madaniyat va badiiy tafakkur tarixida sifat jihatidan o‘ziga xos alohida bosqichni tashkil etishi. XX asr o‘zbek adabiyotining taraqqiyot yo‘li – barkamol realistik tasvirning tadrijiy yo‘lidan iborat ekanligi. Bu davrda adabiyotning hayot bilan aloqasi yanada chuqurlashganligi, zamonaviy mavzular va muammolarning adabiyotda keng aks etishi.

Mustaqillik davri she’riyati. Mustaqillik davri o‘zbek adabiyotining estetik saboqlari, erishilgan yutuqlar va kamchiliklar. O‘zbek adabiyotining jahon adabiy jarayonining tarkibiy bir qismiga aylanganligi va o‘zga xalqlar badiiy tajribalari bilan aloqadorlikda taraqqiy etayotganligi. Istiqlol davri adabiyotning vujudga kelishi va uning tarixiy-estetik ahamiyati.

O‘zbek she‘riyatida yangicha ifoda usullari va badiiy tadqiq yo‘llarining kashf etilayotganligi. Mustaqillik davri she‘riyatida taniqli ijodkorlar safida ko‘plab yosh iste‘dodlarning faol ishtirok etayotganligi. Ular ijodida inson, dunyo va abadiyot muammolarining ko‘plab qirralari butun murakkabligi bilan ifodalanayotganligi.

Hozirgi kunda ijod qilayotgan O‘zbekiston xalq shoirlarining she‘rlaridan ayrim namunalar (parchalar)

Mustaqillik davrida nasr. XX asr o‘zbek adabiyotining dunyo adabiy jarayoniga uyg‘unligi. Adabiy jarayonni tashkil etuvchi ijodkor – badiiy asar – o‘quvchi(tanqidchi) o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning faollashuvi. Jahon adabiyoti saboqlari, xalq ijodi va mumtoz adabiyotimiz ilg‘or an‘analaridan oziqlanish, hozirgi adabiy jarayonni harakatga keltirib turuvchi omillar ekanligi. Adabiyotimizning milliy o‘ziga xosligi saqlangan holda voqelikni badiiy idrok etish va tasvirlashda yangi-yangi shakllarning ifoda etilishi. Adabiyotda ijobiy va salbiy obrazlar emas, balki butun murakkabligi bilan inson obrazi turganligi, unda insonga, vatanga va fidokor xalqqa muhabbat tuyg‘ularining ustivor tamoyilga aylanganligi.

Hozirgi o‘zbek nasri rivojida taniqli nosirlar bilan bir qatorda yosh adiblarning qo‘shayotgan hissalarini. Prozada inson ma‘naviyati sarhadlarini yangicha qamrov, yangicha estetik sathlarda o‘lchashga intilishning vujudga kelishi. Nasrimiz badiiyati sathlarining rang-baranglanishi.

Hozirgi kunda ijod qilayotgan O‘zbekiston xalq yozuvchilarining asarlaridan ayrim namunalar (parchalar)

Mustaqillik davri dramaturgiyasi. Hozirgi o‘zbek dramaturgiyasi jahon va milliy dramaturgiyamizning eng yaxshi an‘analarini davom ettirayotganligi. Bu jarayonda qalamkashlarning tutgan o‘rni.

Hozirgi o‘zbek adabiy jarayonida hayotni, voqelikni nisbiy tugallangan, mafkuraviy baholangan kesimlarda emas, balki davom etayotgan jarayon sifatida aks ettirish tamoyilining yetakchilik qilishi. Hozirgi o‘zbek adabiyotiga xos ikkinchi estetik tamoyil adabiyotning bosh predmeti bo‘lmish insonni faqat salbiy yoki ijobiy nuqtai nazardan emas, balki borligicha – bir butun va yaxlit holda badiiy tadqiq etishdan iboratligi. Hozirgi adabiyotimizda voqelikni kitobxonga tayyor xulosalar tarzida yetkazib berish asosiy tamoyil emasligi. Dramatik asarlardan ayrim namunalar (parchalar)

VI bob. JAHON ADABIYOTI

(5 soat, B1+: 9 soat)

A.P.Chexov. “Garov” hikoyasi

A.P.Chexov rus adabiyotining taniqli vakili. Uning hikoyalarida inson tabiatining xilma-xil qirralarining tasvirlanishi. Yozuvchining “Garov” hikoyasi talqini va undagi yetakchi qahramonlar tavsifi. A.P.Chexovning hikoyachilikdagi o‘ziga xos mahorati.

Rishod Nuri Guntekin. “Choliqushi” romani. Rishod Nuri Guntekinning hayoti va ijodi. “Choliqushi” romanida tasvirlangan muhit. Feride obraziga xos

bo'lgan insoniy fazilatlar. Adibning tasvirlash mahorati.

Nazorat ishi: 2 soat

Xulosa

XX asr o'zbek adabiyotining estetik saboqlari, erishgan yutuqlar va nuqsonli jihatlar. Ikki ming yillik o'zbek adabiyotining XX asrda jahon adabiy jarayonining tarkibiy bir qismiga aylanganligi va o'zga xalqlar badiiy tajribalari bilan aloqadorlikda taraqqiy etishi. Asr so'ngida istiqlol davri adabiyotning vujudga kelishi va uning tarixiy-estetik ahamiyati.

MAVZUVIY REJALASHTIRISH

T/r	Bo'lim va boblar nomi	Soatlar taqsimoti					
		Jami	Mavzu soat	Nazorat ishi	Takrorlash	Test	Mustaqil o'rganadigan soat
1	Kirish	1	1				
2	Xalq og'zaki ijodi	4	4				
3	Qadimgi turkiy adabiyot	11	7	3		1	
4	O'zbek mumtoz adabiyoti	19	14	3	1	1	
5	Yangi o'zbek adabiyoti	13	10	3			
6	Mustaqillik davri adabiyoti	13	9	3		1	
7	Jahon adabiyoti	7	5		1	1	
Jami:		68	50	12	2	4	

(chuqurlashtirib o'qitishni mavzuviy rejalashtirish)

T/r	Bo'lim va boblar nomi	Soatlar taqsimoti					
		Jami	Mavzu soat	Nazorat ishi	Takrorlash	Test	Mustaqil o'rganadigan soat
1	Kirish	1	1				
2	Xalq og'zaki ijodi	6	6				
3	Qadimgi turkiy adabiyot	15	9	4	1	1	
4	O'zbek mumtoz adabiyoti	27	20	4	1	2	
5	Yangi o'zbek adabiyoti	21	16	4	1		
6	Mustaqillik davri adabiyoti	20	15	4		1	
7	Jahon adabiyoti	12	9		1	2	
Jami:		102	76	16	4	6	